

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

YDK_____

**Jo‘rayeva Orzigul G‘afurovna
Pirimqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlari**

**5A 111201 – O‘zbek tili va adabiyoti
Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

F.f.n. dots. G. Imomova

Qarshi-2015

Mundarija.

Kirish.....	3-6
I 6o6 O‘zbek nasrida Pirimqul Qodirovning o‘rni.....	7-23
I.1.Pirimqul Qodirovning hayoti va ijodi.....	7-23
I.2Adib ijodida tarixiylik va estetik ideal uyg‘unligi.....	24-32
I bob yuzasidan xulosalar.....	33
II 6o6 Pirimqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlari.....	34-42
II.1. Ijodkorning badialari va hissiy idrok.....	34-42
II.2. Olimning“Adabiy uylar”,”Amir Temur siymosi” badialaridagi ilmiylik va badiiylikning uyg‘unlashuvi.....	43-57
II bob yuzasidan xulosalar.....	58
III 6o6. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida Pirimqul Qodirovning ilmiy faoliyati.....	59-66
III. 1. Pirimqul Qodirov yangi davr adabiyotining tadqiqotchisi.....	59-66
III. 2. Olimning “ Til va el” ilmiy badiasida mumtoz adabiy til muammosi....	67-75
III Bob yuzasidan xulosalar.....	76
Umumiy xulosalar.....	77-78
Foydanilgan adabiyotlar	79-85

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi adabiyotshunoslik har bir tadqiqotchidan o'tkir zehn, sinchkovlik, ayniqsa, yuzaga chiqayotgan ilmiy kashfiyot va yangiliklardan xabardor bo'lishni, umuman, keng qamrovli ish olib borishni talab etadi. Bu esa milliy adabiyotimizning boy ma'naviy xazinasini chuqur o'rganishimiz, uni anglashimiz uchun xizmat qiladi. Muhtaram Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot bu yangicha fikrlash va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi"¹. Shuning barobarida, ilmiy, ijodiy izlanishlarning samarasi o'laroq kashf etilgan har bir yangi fikr, tadqiqotchilarning adabiy masalalar yuzasidan berayotgan yangicha xulosalari adabiyotshunoslik bazasining to'ldirilib, mukammallashtirilib borilishiga turtki bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida yozuvchi Pirimqul Qodirovning hayoti va ayniqsa uning ijodini tahlilu tadqiq etish murakkab va muommolidir. Chunki Pirimqul Qodirovning faoliyati nafaqat badiiy ijod bilan balki adabiyotshunoslik ilmi bilan ham bilan bog'liq.

Shu nuqtai nazardan olim va ijodkor Pirimqul Qodirovning o'zbek adabiyotshunosligida adabiy-nazariy qarashlarini tadqiq etish magistrlik dissertatsiyamizning dolzarbligini belgilaydi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari. Mazkur dissertatsiyada adib va olim Pirimqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlarini tadqiq etishni maqsad qilib, maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalarni belgilab oldik:

- o'zbek nasrida yozuvchi va ijodkor Pirimqul Qodirovning hayoti va ijodini o'rganish.
- adib ijodida tarixiylik va badiiy haqiqatni tadqiq etish.
- Pirimqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlarini tahlil qilish.

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 41-bet.

- olimning badiiy asar tiliga oid asarlarini o‘rganish.
- “Til va dil”, “Xalq tili va realistik proza” asarlari va badiiy til badiiyati.
- Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida Pirmqul Qodirovning faoliyatini tadqiq etish.

- olimning “Til va el” asarining nazariy xususiyatlarini o‘rganish.
- olim taqiqotlaridagi ayniqsa uning “Til va el” ilmiy badiyasidagi mumtoz adabiy til muommolarini tahlil qilish.

Ilmiy ishning yangiligi. O‘zbek adabiyotshunosligida Pirmqul Qodirovning hayoti va ijodi keng va qamrovli o‘rganilgan. Ayniqsa, uning tarixiy “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ona lochin vidosi” romanlari ilmiy jamoatchilik tomonidan keng tahlil qilingan. Ijodkorning olimlik salohiyati, jumladan uning “Adabiy uylar”, “Xalq tili va realistik proza”, “Amir Temur siymosi”, “Til va el” kabi ilmiy asarlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Ana shu muommoning o‘zi dissertatsiyamizning o‘ziga xos yangiligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur muommo ya’ni Pirmqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Bu muommo o‘zbek adabiyotshunosligida yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lsada, ijokorning tarixiy va zamonaviy asarlarining tadqiqi bir qator tadqiqotlarga o‘z aksini topgan. Bunga M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, , U.Normatov, N.Xudoyberganov, B.Nazarov, I.G‘afurov, S.Sodiq, Q.Yo‘ldoshevlarning¹ tadqiqotlari misol bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’naviy-madaniy meros, ilm-fan va milliy madaniyatni rivojlantirish, milliy

¹.Normatov.U.Миллий насримиз тамойиллари.Ўзбекистон адабиёти ва санъати.1999.й 7март.

Normatov.U. Уч ҳикоя, уч дунё. Ёзувчи. 1999. 26май.

Худойберганов.Н. Шаклан асару, мазмунанчи?. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2000. 22сентябрь.

Назаров.Б. Ёзувчи ва танқидчи назари. Ёшлик. 1986.

Содиқов.С. Сўз санъати жозибаси. Тошкент. Ўзбекистон. 1986.

Йулдошев.Қ. Насримиз уфқлари. Тошкент. Ёзувчи. 1999. 5май

o'zlikni anglash haqidagi fikrlari, o'zbek adabiyotshunosligida erishilgan yutuqlar metodologik asos qilib olindi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Dissertatsiyani yozishda Pirimqul Qodirovning “Xalq tili va realistik proza”(T.”Fan”,1977y), “Til va el”(T.G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa uyi.2005y), Tanlangan asarlar.III tomlik.(T.Sharq.2008y) lardan keng foydalanildi.)

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiyaning asosiy natijalari va nazariy xulosalaridan o'zbek adabiyotshunosligida, xususan

- adabiyot nazariyasida ijodkor konsepsiyasi masalalarini yoritishda
- ijodkorlik va olimlik iqtidorining sinkretliligini haqida
- Pirimqul Qodirovning adabiy –nazariy qarashlarini tadqiq etishda
- Olimning “Xalq tili va realistik proza”, “Til va el” ilmiy asarlarini tahlil qilishda

- oliy o'quv yurtlari akademik litsey va kollejlarda uchun qo'llanmalar yaratish, maruza matnlarini tayyorlash va referatlar yozishda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqotda keltirilgan dalillar, tahlillar, ilmiy xulosalardan hozirgi adabiy jarayonga bag'ishlanan nazariy kurslar, amaliy seminarlarda foydalanish mumkin.

Tadqiqot yuzasidan Qarshi Davlat Universitetda o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda, o'zbek adabiyoti kafedrasidagi nazariy seminarlarda ma'ruzalar qilinib asosiy ilmiy tezislar ilmiy jamoatchilik etiboridan o'tkazilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya, kirish, uchta asosiy bob, olti fasl, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Natijalarning joriy va e'lon qilinishi. Mavzu 2013-yilning dekabr oyida O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida tasdiqlanib universitet ilmiy kengashiga tavsiya qilingan. Universitet ilmiy kengashining _____ majlisida tasdiqlangan. Mavzu bo'yicha 2 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishning umumiy tavsifini aks ettirgan kirish, uch asosiy bob, olti fasl, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, betni tashkil qiladi.

I BOB. O‘ZBEK NASRIDA PIRIMQUL QODIROVNING O‘RNI

I.1. PIRIMQUL QODIROVNING HAYOTI VA IJODI

Pirimqul Qodirov adabiyotga 50-yillarning o‘rtasida kirib keldi. Uning birinchi asarlari talabalik yillarida Toshkent Davlat universitetining sharqshunoslik fakultetida o‘qib yurgan kezlari e‘lon qilingan edi. Ular o‘sha vaqtdayoq ko‘pchilikning e‘tiborini jalb qildi, jamoatchilikning og‘ziga tushdi. Bular Bekobod metallurgiya kombinatiga bag‘ishlangan “Besh yilliklar farzandi” ocherki, “Studentlar” hikoyasi va boshqalar. Asarlar o‘sha davrlarda ko‘p uchraydigan siyqa va sxematik asarlardan keskin farq qiladi. Hali inson xarakterini mukammal chizishda, uning ichki dunyosini ro‘yi rost tasvirlashda yosh yozuvchining tajribasi kamligi sezilib tursa-da, bu asarlarda boshqa bir qimmatli fazilat bor edi! Ulardan bevosita jonli, real hayotning nafasi ufurib turardi. Yosh yozuvchi hikoya qilayotgan narsalarni bichib-to‘qimasdan, astoydil, puxta o‘rgangani tufayli, dastlabki asarlarining qiziqarli chiqishiga erishgan edi. Bu tasodifiy emas edi. Chunki Pirimqul Qodirov universitetga anchagina boy hayotiy tajriba ortirib kelgandi. Yozuvchi Tojikiston Respublikasi Shahrison dovonining etagida joylashgan Kengqo‘l qishlog‘ida 1928 yil 25 oktabrda tug‘ilgan. Qishloq benihoya so‘lim va xushmanzara bo‘lib, yonbag‘irlaridagi archazorlar, kumushdek sharqiragan buloqlar, o‘tloqlar, tubsiz o‘ngirlar har qanday odamning ham ko‘ngliga allanechuk ko‘tarinki kayfiyat baxsh etishi uning qalbida nurli tuyg‘ular uyg‘otib, romantik orzularning qanot yoyishiga yo‘l ochadi. Biroq yozuvchi ona qishlog‘ining husn-jamoliga to‘yib ulgurmay, tabiatning so‘lim husnidan qonib bahra ololmay urush boshlandi. Pirimqul Qodirovning bolalik damlari urush davriga to‘g‘ri keldi. Avji tengqurlari bilan yayrab-o‘ynashi kerak bo‘lgan kezlarda bo‘lajak yozuvchi poda boqdi, o‘t o‘rdi, yer haydadi, g‘alla yig‘di, xullas – sababi tirikchilik, og‘ir va mashaqqatli mehnat bilan shug‘ullandi. Keyin esa Bekobod metallurgiya zavodida ishlagan va ishlab turib texnikumda o‘qigan o‘smirlik yillari uni bebaho tajriba bilan boyitdi, unda inson baxti mashaqqatlar va mushkulotlarni yengish tufayligina qo‘lga kiritishiga ishonch hosil qildi. Adib

shunday hikoya qiladilar: “Men suyagi mehnat bilan qotgan oddiy mehnatkashlar orasida o‘sib-ulg‘ayganman. Qarindosh -urug‘larimning deyarli hammasi hozir ham yo cho‘pon, yo paxtakor, yo g‘allakor bo‘lib ishlashadi. Bolalikda, o‘smirlikda men bilgan, birga o‘sgan, birga ishlagan odamlarning ham suyagi mehnatda qotgan. Otam hamisha: “O‘g‘lim, halol bo‘l, halollikda hikmat ko‘p”, – der edi. “Yulduzli tunlar” romani uchun berilgan mukofotni olar ekanman, o‘sha daqiqalarda eng avvalo rahmatli dadamni, mehnatkash oyimni esladim.” Universitetni tugatgach, Pirimqul Qodirov Moskvaga –Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti qoshidagi aspiranturaga o‘qishga boradi va 1954 yilda, 26 yoshda “Abdulla Qahhorning urushdan so‘nggi ijodi” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shundan so‘ng sobiq SSSR Yozuvchilar Soyuzida o‘zbek adabiyoti bo‘yicha maslahatchi bo‘lib ishladi. Moskvada o‘tkazilgan hayot yozuvchiga ko‘p narsa berdi. U bu yerdagi adabiy anjumanlarda bahs va munozaralarda faol ishtirok etdi, mashhur yozuvchilar bilan tanishdi. Pirimqul Qodirov Moskvada yashab turgan kezlari yirik roman ustida ish boshladi va nihoyat, 1958 yilda bu roman “Uch ildiz” nomi bilan kitobxonlarga taqdim etildi. 1959 yili o‘zbek adabiy asarlar muhokamasida ulkan adib Muxtor Avezov bu asarga alohida to‘xtalib, yuqori baho berdi. U shunday degan edi: “Studentlar, ziyolilar bu kitobni katta qiziqish bilan o‘qiydilar, chunki unda juda ko‘p hayotiy voqealar olingan, har xil xarakterlar ko‘rsatilgan va men uchun bu kitobda eng muhimi, eng qimmatlisi – undagi aqlli, bilimli, fikrlovchi odamlardir. Intellektual qahramon – shu kunlarda bo‘layotgan ijtimoiy hodisalar haqida o‘z fikriga ega bo‘lgan Akbarovga o‘xshash qahramon bu kitob asosida yotgan qimmatli fazilatdir. Bundan tashqari, asarda obrazli fikrlar, ifodalar ko‘p. Bir joyda shunday deyiladi: “Kishining istak-intilishlari zo‘r bir cholg‘u bo‘ylab tortilgan torlarga o‘xshaydi. Hayot qaysisiga qattiq tegib ketsa, o‘shanisi kuchliroq tovush beradi”. Insonning ruhiy holati qanchalik obrazli, ayni vaqtda, falsafiy ifodalangan. Bu romanda yaxshi nishonalar ko‘p...

Milliy oliy maktab studentlari va yosh intellegensiyaning shakllanishi haqidagi bu kitob juda qadrlil. Bu kitob menga juda yoqdi”. “Uch ildiz” talabalar

hayotiga bag'ishlab yozilgan birinchi o'zbek romanidir. Asarda shaxsga sig'inish va uning zararli oqibatlari o'sha davr imkoniyatlari darajasida ochib berilgan. Binobarin, shaxsga sig'inish davrining ta'sirida 50-yillarda oliy o'quv yurtlarida ildiz otgan tarfakashlik, mansabparastlik, soxtalik, dabdababozlik – “qizil so'zlik”, haqiqatdan ko'z yumib, rostgo'y olimlarni beobro' qilish singari illatlarni fosh etish, ilm fidoyilari bilan soxta “olim”lar o'rtasidagi ziddiyatni va buning asl mohiyatini ochib berish, iste'dodli, haqgo'y ziyolilarni va tolibi ilmlarni qo'llab-quvvatlash – “Uch ildiz” romanining asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

Asar voqeasi asosan bir dorilfunun dargohida bo'lib o'tadi. Roman mazmuni asosida yotgan ziddiyat ana shu dargohda ishlayotgan yoki ta'lim olayotgan odamlarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'luvchi mafkuraviy kurashdan iborat. Romanning bosh qahramoni Mahkam mafkuraviy “xato”larga yo'l qo'ygan degan bahonada “urilgan”, ishdan haydalgan tarixshunos olim Toshevning qizi Gavharni sevib qoladi. Voqealar davomida Mahkamning ko'zi ochila boradi: u Hakimov, Eshonboyev kabi domlalarining haqiqiy qiyofasini anglab oladi. Xuddi shuningdek, mansabparast shaxslar tomonidan yomon otliqqa chiqarilgan Akbarov, Toshev, Umarov singari pedagog va ilmiy xodimlarning chin insonlar, haqiqiy olimlar ekaniga ishonch hosil qiladi. Natijada, Mahkam kurashlar jarayonida o'sib, toblanib yangi avlodning yorqin vakili sifatida gavdalana boradi. Samimiylik, e'tiqodga sadoqat, vafodorlik va rostgo'ylik, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik va ularni yengishga dadil intilish Mahkam qiyofasida mujassamlashadi. Yozuvchi Mahkam obrazini yaratar ekan, bu yigit shaxsining shakllanish jarayonini ochishda ruhiy tahlil san'atidan unumli foydalanadi.

“Uch ildiz” romani chuqur mazmunli, falsafiy umumlashmalarga, hikmatli so'z va iboralarga boy. Asarning nomi ham teran mazmun tashiydi, ya'ni yozuvchi asarda talabalik davrida shakllanadigan ezguliklar haqida hikoya qilar ekan, mustahkam bilim olishni, faol fuqaro malakasini kasb etishni va sevgi-sadoqatda ustuvor turishni samarali, mazmundor hayot kechirishning uch ildizi deb ataydi. Shu bilan birga, ana shu uch ildizi ham mustahkam bo'lgan kishigina jamiyatning

haqiqiy a'zosi bo'ladi, hayotda o'z o'rnini egallab, el-yurt hurmatini qozonadi, – degan fikrni olg'a suradi. Adib professor Akbarov tilidan talaba yoshlarga qarata: “Shu ildizlarning biri o'qishda o'ssa, biri jamiyat uchun qilingan ishda o'sadi. Ildizlar bir daraxtga kelib birlashganday, bular ham hayotlaringizda birlashib, bir-biriga kirishib ketadi. Shu ildizlaringiz qanchalik chuqur bo'lsa, shunchalik keng shox yoya olasizlar, qanchalik mustahkam bo'lsa, yer yuzida shunchalik mahkam qad ko'tarib tura olasizlar”, – deydi. Pirimqul Qodirov “Uch ildiz” ustida qizg'in ish olib borayotgan kezlarida, 1956 yili “O'tgan kunlar” romani bilan tanishdi. Bu tanishuv unga katta quvonch baxsh etdi. Yozuvchi o'sha quvonchli daqiqalarni eslab yozadi: “Menga shu vaqtgacha yetishmay yurgan badiiy nafosatning bir turini (o'sayotgan yosh tanaga zarur bir “vitamin”ni) Abdulla Qodiriy romanlaridan topganday suyundim. Bu yangicha nafosat ham dilimga payvand bo'lib, yozayotgan narsamga olijanob ta'sir ko'rsatgani o'zimga keyin sezildi... Davrimizning ijobiy qahramonlaridagi joziba meni ko'proq o'ziga tortardi”. Bu ayniqsa romanning bosh qahramonlari Mahkam bilan Gavhar, ular orasidagi samimiy, beg'ubor, hayotbaxsh sevgi muloqotlari ifodasida yorqin ko'rinadi. Yozuvchi ustoz Qodiriy an'analarini davom ettirib, bu romanda va boshqa bir qancha asarlarida yoshlar taqdirida chin sevgining nafosati va hayotbaxsh kuchini ochib berishga o'zgacha ahamiyat beradi. Uning talqinida chin sevgi faqat ikki yoshning bir-biriga samimiy talpinishi, ko'ngil sururi, beg'araz munosabatigina emas, balki katta mas'uliyat, ular orasidagi e'tiqod, mafkuraviy hamkorlik, samimiy sevgi ijtimoiy mazmun bilan boyisa, odamni yuksak maqsadlar sari undaydi, keng miqyoslarga olib chiqadi. Mahkam bilan Gavhar orasidagi sevgi ayni shunday fazilatlar bilan yo'g'rilgan –ular hamfikir, maslakdosh bo'lganliklari uchun ham shunchaki vafodor oshiq-ma'shuqlar emas, ijtimoiy adolat uchun faol kurashchilariga aylanadilar. Yozuvchilik ishi qator dovonlar oshib yuksak bir manzilga intilayotgan yo'lovchini eslatadi. Pirimqul Qodirov uzoq vaqtlardan beri katta shaharlarning qaynoq hayoti ichida yashab kelayotgan bo'lsa ham, o'zining bolalik davrlari doim hayolida yurar, biror asarda aks ettirilishini kutgandek bo'lar edi.

Haqiqatdan ham ushbu qissalar mazmunan turfa bo'lishiga qaramay barchasida chin insoniy fazilatlar ulug'langan, qadriyatlarga hurmat g'oyalari, insonga o'zgacha munosabat kabilar ilgari surilgan. P.Qodirovning "Erk" qissasi adabiyotshunos U.Normatovning fikricha, "Uch ildiz", "Qora ko'zlar" romanlarining davomiga o'xshab ketadi. Chunki ikki romanda 50-60 yillar voqeligi aks etgan bo'lsa, bu qissada 60-yillarning ikkinchi yarmida bo'lib o'tgan voqealar aks ettirilgan.

"Qissa asosini qahramonlarning ma'naviyati, oilaviy-intim hayoti, muhabbati, erki, ma'suliyatli masalalari tashkil etadi; shaxs erki va burchi problemasini yozuvchi asarning pafosi darajasiga ko'taradi, erk haqida jiddiy bahs qo'zg'aydi"¹ - deb yozadi u. "Erk" qissasida ijtimoiy hayot muammolari ham aks etgan. Xususan, o'sha paytdagi metropoliten qurilishiga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi, metroni loyihalashtirish va bu jarayonda qahramonlarning o'z o'rnini borligi ta'kidlangan. Lekin U.Normatov bu holatlarni, ya'ni ijtimoiy muammolarning qissada yoritilishi masalasini yana o'z fikrini davom ettirib quyidagicha baholaydi:

"Yozuvchi oddiy kundalik turmush ikir-chikirlaridan sekin-asta katta ijtimoiy, ma'naviy masalalarga keladi. Zilziladan keyingi sershovqin, betinim, tig'iz shahar manzarasi shundoqqina ko'z oldimizda gavdalanadi. Bir qadar cho'zilib ketgan shahar sayri, ko'cha qatnovi mashaqqatlari tafsilotlarining siri keyinroq ma'lum bo'ladi. Bu tafsilotlar shahar istiqboli, uy-joy, yo'l, metro qurilishi, tabiatni muhofaza etish kabi masalalar ustida qizg'in bahslarning boshlanishiga turtki berami"².

YA'ni yozuvchi qiyinchilik bilan tiklanayotgan shahar, bular orasidagi turli ijtimoiy muammolarni ko'rsatish jarayonida sustkashliklarga e'tiborni tortishga intiladi. "Afsuski, asarda xo'jalik xarakteridagi bu bahslar qiyomiga yetmay qolgan: kurash va olishuvlar keskinlashishi o'rniga susayib, so'nib boradi, bahslar "kelishuvchilik" yo'li bilan osongina bartaraf etilaveradi, ijobiy qahramonlar

¹ У. Норматов. Етуклик. Т., Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982 й., 207-бет.

² У. Норматов. Етуклик. Т., Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982 й., 207-бет.

qarshisida turgan kuchlar to‘laligicha namoyon bo‘lmaydi, loaqal asarda kengroq o‘rin olgan murakkab tabiatli Fayzulla Becnazarov obrazi ham durustroq ochilmagan”¹.

Bunday kamchiliklar bo‘lishiga qaramay, ushbu qissani insonning ichki kechinmalari aks etgan eng yaxshi asarlar sirasiga kiritish mumkin. Chunki unda inson uchun berilgan eng va oliy tuyg‘u-muhabbat xususida so‘z boradi, qahramonlarning o‘z muhabbatlariga munosabatlari, bu jarayondagi yuzaga kelgan muammolar asarning asosini tashkil qiladi.

Yozuvchi uchun bu yangi dovonni oshib o‘tish ancha mashaqqatli bo‘lishiga qaramasdan, ancha maroqli va ancha o‘ziga xos dovonlardan edi. Uning o‘zi bu haqda shunday deydi: “Moskvada, Toshkentda, ulkan shaharlarda uzoq yillar yashaganim sari, o‘zim tug‘ilib o‘sgan tog‘lik qishlog‘imiz Kengko‘lni ko‘p sog‘inar edim. Archazor yonbag‘irlar, go‘zal Oydinko‘l, ajoyib buloqlar, noyob tabiat go‘zalliklari inson uchun naqadar zarur ekanini men endi astoydil seza boshladim. Shu tuyg‘u ta’sirida tog‘larda mehnat qilayotgan oddiy cho‘ponlar, chorvadorlar hayotini adabiy asarda tasvirlashga arziydigan yorqin tomonlari ko‘pligi esimga tusha boshladi. Qishlog‘imizga qayta-qayta bordim, biz bola bo‘lgan paytlardan beri yuz bergan o‘zgarishlarni ko‘rdim. O‘n-o‘n besh yillik adabiy mashqlar, shaharda orttirilgan hayotiy tajriba – halol mehnatkashlar, qora ko‘zlar turmushini, qishloq materiali orqali ko‘rsatishga ishtiyoq uyg‘otdi”. Shu tarzda uning “Qora ko‘zlar” romani yaratildi.²

“Qora ko‘zlar” romani yozuvchi ijodida olg‘a tashlangan qadam va o‘zbek romanchiligida muhim hodisa bo‘ldi. Qishloq, aniqrog‘i, chorvadorlar hayotidan olingan bu asar qishloq haqidagi bir yoqlama tasavvurlarni buzib, adabiyot yuzini real hayotga, hayotning muammolari tomonga burib yuborishda muhim ahamiyat kasb etdi. Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov haqli ravishda “Qora ko‘zlar”ni “ona

¹ Ўша китоб. 207-бет.

² Маҳмудов М. Кўнгилда бори: [Пиримкул Қодировнинг “Қора кўзлар” романи ҳақида] //Гулистон.-1967.- №7.-Б.27-30.

asar” deb ataydi. “Qora ko‘zlar” muallifi olis qishloq va undagi orqada qolgan xo‘jalik hayotini roman ko‘zgusiga solib ko‘rsatdi. Asar boshdan-oyoq oddiy, zahmatkash mehnat ahliga, har qanday mushkul vaziyatlarda ham insoniy fazilatlarini saqlab qololgan asl insonlarga chuqur hurmat, hamdardlik ruhi bilan sug‘orilgan. Yozuvchi xuddi o‘sha qora ko‘zlar – jafokash kishilar boshiga tushgan kulfatlar uchun chin dildan qayg‘uradi, taqdirini chigallashtirgan hayotiy-ma’naviy omillar ustida teran mushohada yuritadi.

Roman voqealari yuz bergan makon – Oydinko‘l eskicha tushunchalar, qoloq odatlar ta’sir doirasida xiyla keng, xususan maishiy hayotda oilaviy – er-xotin, qaynona-kelin munosabatlarida, ayol zotiga muomalada inson erkini bo‘g‘adigan taomillar davom etadi. Yozuvchi bu romanida maishiy hayot ikir- chikirlarining chuqur bilimdoni ekanini ham ko‘rsatdi. Adib qoloq tushunchalarga odamlar turmushi va ongini zaharlovchi bir og‘u deb qaraydi. Qoloq tushunchalar aka bilan ukani bir-biriga raqib qilib, hali aqlini tanimagan norasidalarining ko‘ngil maylini, erkini jilovlab qo‘yadi, sof sevgini uyatga yo‘yadi, sevishganlarni xijolatda qoldiradi, er bilan xotin, qaynona bilan kelin, ona bilan bola o‘rtasiga nizo soladi, keskin dramalarga, xatarli fojialarga yo‘l ochadi, odamning odamlilik qadrini, nafsoniyatini yerga uradi, odamning odamdek yashashi uchun to‘g‘anoq bo‘ladi. Gulday nozik, go‘dakdek sodda, beg‘ubor Ma’suda jaholat zug‘umi, o‘zining go‘daklarcha mo‘min-qobilligi qoloq taomillarga qarshisizlik itoati, eng asosiysi, daxldor shaxslar – eri, qaynonasi, xo‘jalik rahbarlarining e’tiborsizligi tufayli sog‘lig‘ini boy beradi, bedavo dardga yo‘liqib, halok bo‘ladi... Ma’suda qismati romandagi Hulkar, Jannatoy, Cho‘lponoylar, ular qadriga yetmay hayotini zaharlayotganar uchungina emas, umuman 60-yillar o‘zbek qishloqlaridagi real ahvol haqida jiddiy ogohlantirish edi. Aynan shu g‘oya yozuvchining galdagi asarlari – “Jon shirin” hikoyasi, “Erk”, “Meros” qissalarida yana ham keskinroq yangradi.

70-yillar davomida yozuvchi ikki yirik asar – tarixiy mavzudagi “Yulduzli tunlar” va zamonaviy mavzudagi “Olmos kamar” romanlari ustida ish olib bordi. Birida besh asr burungi g‘oyat ziddiyatli tarixiy davr, u davrning shafqatsiz

haqiqati, Boburning mashaqqatli hayot yo'li, ikkinchi asarda esa, hozirgi fan-texnika inqilobi davri, gavjum shahar hayoti, o'ta zamonaviy, fan-texnika inqilobi boshida turgan kishilar turmushi aks ettirilgan. Zamonaviy mavzuda bitilgan ko'pgina asarlari orqali kattagina adabiy tajriba to'plagan yozuvchi murakkab va qaltis tarixiy bir mavzuga qo'l urdi – temuriylar saltanatining o'z yurtidagi inqirozi, o'zga yurtlar – Afg'oniston va Hindistondagi o'zgacha ko'rinishda qayta tiklanishi, jahonshumul dovrug'i, Temurxon naslining shonli siymolaridan Bobur va uning avlodlari hayoti, faoliyati to'g'risida hikoya qiluvchi keng ko'lamli epik asar ustida ish boshladi; uzoq yillik izchil tadqiqot, betinim ijodiy mehnat, ma'naviy-ruhiy izlanishlar samarasi o'laroq "Yulduzi tunlar", "Avlodlar dovoni" romanlari maydonga keldi. Pirimqul Qodirov bu qaltis, murakkab mavzuga qo'l urar ekan, oldinda hali ko'p mushkulliklar ro'y berishi mumkinligini yurakdan his etar, shu bilan birga, ezgu, ulug' bir muddao diliga tinimsiz dalda berib turardi. "Bizni qaramlik va mutelikda saqlashga o'rgangan yovuz kuchlar tarixiy ildizlarimizni qirqib tashlashga, bizni o'tmishimizdan bexabar manqurtlarga aylantirishga harakat qilar edi, – deb yozadi u "Turfa ma'noli taqdir" maqolasida. – Holbuki, o'zbek xalqichalik boy va yorqin tarixga ega bo'lgan xalqlar dunyoda ko'p emas.

"Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Amir Temur siymosi", "Til va el" asarlarida kitobxon yetuk san'atkor, teran faylasuf, qoyaday yuksak, mustahkam muallif shaxsi-ni ko'radi. P. Qodirovning san'atkor, mutafakkir daraja-siga ko'tarilishi qanday kechgan? Adib hikoyalari, qissala-ri, ilk romanlari shuni ko'rsatadiki, P. Qodirov, birii-chidan, zamon ruhini, uning istiqbolini ko'rishga intilgan. Bu hol "Uch ildiz" va "Olmos kamar"da aniq ko'rinadi. XX asrning o'rtalarida ro'y bergan muhim siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlardan kishilar lolu hayron bo'lib qoldilar, shoi-ru adiblar mavjud sxematizm inersiyasidan chiqib keta olmadilar. Pirimqul Qodirov yosh, shijoatli, istiqbolga intilgan, ijodning katta yo'li boshida turgan adib sifatida o'ta qaltis mavzuga qo'l urdi — "Uch ildiz"ni yozishga kirishdi. Hardamxayol yozuvchilar uzil-kesil to'xtamga kelmaslaridan, Pirimqul Qodirov shijoat bilan yaigicha ijtimoiy-siyosiy ruhni badiiy tahlil qildi,

o'ta dolzarb mavzuda roman yaratdi. Pirmqul Qodirov yosh, jo'shqin edi. U Mahkam, Ochil, Zamira, Gavhar, Sergey, Anna singari yoshlar xarakteri orqali yasharayotgan zamonni, kishilar ruhini egallab borayotgan ishonch, e'tiqod, jo'shqinlikni aks ettirdi. Romanning yosh, sururiy qahramonlari Toshkentni yangicha ko'z bilan ko'rdilar. Navoiy nomidagi teatriing me'-moriy o'ziga xosligi, shu teatr maydonidagi g'o'za chanog'i shaklidagi favvora, tunlarni kunduzday yoritib turgan rang-barang elektr chiroklar, tep-tekis asfalt ko'chalar, tramvay, trolleybuslar yosh qahramonlar diqqatidan chetda qolmaydi. Skver maydonidagi yagona universitet binosiga Mahkam, Gavharlar g'urur bilan boqadilar. Yozuvchi yoshlar ruhi, shahar ko'rinishini tasvirlagach, universitetdagi murakkab munosabatlar mohiyatini yoritadi. Universitetda Abdurahmon Toshev, Temir Akbarov, Akim Zadorin, Sulaymon Ziynatullayev singari haqiqiy olimlar, yoshlar rahnomalari ish-laydilar. Ular universitet minbaridan yoshlarga chin haqiqatni, ilmiy yangiliklarni aytishga odatlanganlar. Bun-day olimlar hamisha to'g'ri so'zliklari, ilmiy-tarixiy haqiqatga xiyonat qilmasliklari bilan tanilganlar. Zufar Hakimovich, Muhammadjon Eshonboyev, Nazarov singari o'qituvchi-amaldorlar stalinizm davri ruhini xarakterla-riga singdirib yuborganlar. Ular olimlikka da'vo qilolmaydilar, ammo partiya, davlat yo'l-yo'rig'ini ko'r-ko'rona universitet hayotiga tatbiq etadilar. "Uch ildiz"da har xil majlis, yig'ilishlarning ko'payib ketganligi ko'rsatiladi. Ularda ko'pincha shaxsiy masalalar ko'rilar, kishilarning auditoriyada, koridorda, kafedrada aytib yuborgan gap-so'zla-ri muhokama qilinardi. Shaxsga sajda qilish yillarida majlisbozlik dushman topishning sinalgan usuli edi. Haki-mov, Eshonboyev, Tursun singarilar majlis qilib — suvni loyqalatib dushman izlar, "baliq" tutardilar.

P. Qodirovning "Uch ildiz" romanidagi umumiy ruh, kayfiyat orqali ham g'oya yoritiladi. "Uch ildiz"da uzoq da-vom etgan bemorlikdan so'ng o'ziga kela boshlagan bemor — ijtimoiy muhitning ruhi ishonarli tasvirlangan. Romanda Obid Karamatov, Sulaymon Ziynatullayev singari yangi zamonning kishilari xarakteri yaratilgan. Obid Karamatov universitet firqa qo'mitasi

yetakchisi. U o'zida KPSSning XX syezdi g'oyalarini aks ettirgan. Lekin, baribir, Kara-matov ham kommunistik firqa yetakchisi edi... "Uch ildiz"ida demokratik tamoyillar, insonni sevish, e'zozlash ruhi aniq ko'rinadi.

"Qora ko'zlar"¹ yozuvchining sara asarlaridandir. M.Qo'shjonov uni ona kitob degan, O.Sharafiddinov roman haqida taqriz-tadqiqot yaratgan, yozuvchining san'atkor, siymo sifatida ulg'ayganligini ko'rsatgan. P. Qodirov tabiatan intellektual shaxs. Bunday yozuvchilar asarlarida his-tuyg'uga berilish, romantik tasvirlar kup bo'lmaydi. Ammo "Qora ko'zlar" ruhida "O'zbekim"ga (E.Vohidov) yaqinlik, "Men nechun sevaman O'zbekistonni" (A.Oripov) she'riga siyra-tan monandlik bor. P. Qodirov "Qora ko'zlar"da bolaligi, yoshligi o'tgan muhitni: qishloq, qir, adir, qo'y-qo'zilar, tog' manzarasi, qadrdon kishilarni tasvirlagan. Romanda biografik tadqiqot uchun boy material bor. P. Qodirovning 80 yilligi munosabati bilan chop etilgan "Mehrga yo'g'rilgan ijod" (Toshkent: Milliy kutubxona nashriyoti, 2008) maqolalar to'plamida yozuvchining "Tarjimai hol materiallari", "Hayotdan nimani izladimu nima topdim?" maqola va suhbatlari bor. To'plamga yozuvchining jiyani, sharqshunos olim Jalil Hazratqulovning "El-yurt farovonligiga baxshida umr" maqolasi kiritilgan. Shu maqolalarni o'qisangiz, "Qora ko'zlar"ni eslaganday bo'lasiz, undagi ruh qayta jonlanadi. "Qora ko'zlar" romanidagi Usta Qambar, "Olmos kamar"dagi A'zam ota qiyofalarini men otamga oid xotiralarim asosida tasvirlaganman... Onamizga oid xotiralardan "Qora ko'zlar" romanida patgilam to'qiydigan Sanam xolani va "Olmos kamar"dagi Xanifa xolani tasvirlaganda foydalanganman", — deb yozadi P. Qodirov "Hayotdan nima izladimu nima topdim?" suhbat-maqolasida (151-bet). Jalil Hazratqulov maqolasida "Qora ko'zlar"da tasvirlangan qishloq, Norboy ota singari personajlar nomi tilga olinadi. "Qora ko'zlar"dagi muhit, odamlar, tabiat tasviri kitobxonga ta'sir etadi, bolalik

¹ Атоқли адиб Пиримқул Қодировнинг "Қора кўзлар" номли китоби ҳақида //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-2001.-23 нояб.

chog'larini eslatadi. P.Qodirov "Qora ko'zlar"da o'zgarayotgan, yangilanayotgan insonlar ruhiyatini tasvirlaydi. Romanning asosiy qahramonlari Avaz, Hulkar, Zamonali, Cho'lponoy, Jannatoy, Xolbek singari yoshlar. Qarang, "Uch ildiz"da ham yozuvchi yoshlar xarak-terini yaratgan edi. "Qadrim", "Erk", "Meros", "Olmos kamar"ning asosiy qahramonlari ham yoshlar. Yozuvchi yoshlar, voyaga yetayotgan avlodda hayotdagi yangilik kurtaklarini ko'radi. Yoshlar deganda yozuvchi umrning ilk bosqichidagi kishilar-niginamas, hayotning yangilanayotgan qonuniyatlarini, ijti-moiy-ma'naviy, ruhiy o'zgarishlarini anglaydi. Hamisha otalar va bolalar aro – goh pinhoni, goh oshkora ziddiyat bo'lgan. Keksalar – udumlar, odatlar himoyachilari. Yoshlar – zamon ruhini urf-odatlar mohiyatiga singdirmoqchi bo'lgan faol kishilar. Aksariyat hollarda yoshlarning intilishlari samarali bo'ladi. "Qora ko'zlar"da Avaz va Hulkar sevib turmush quradilar. Zamonali va Cho'lponoy ham Avazlar izidan bormoqchi. Qishloqdagi qizlar, Jannatoy singari ke-linlar Hulkar, Cho'lponoyga havas qiladilar. Hulkar sevgan odamiga turmushga chiqish bilan cheklanmaydi: erining izi-dan toqqa chiqib ketadi, cho'pon Avaz suruviga cho'riq bo'ladi. Usta Qambarga ko'ngil qo'yib turmushga chiqqan Sanamoy xola, zahar Suyuma, eskilikka mukkasidan ketgan Turdi, Ismat bobo singarilar Hulkarni buzuqqa, udumlarni oyoqosti qilgan shakkokka chiqarib qo'yadilar. Yoshlar esa Hulkarni, uning qilmishlarini qo'llab-quvvatlaydilar. Musiqada "avj" degan yuksaklik bor. Kuy, ashula shinavandalari hamisha avj pardani kutadilar. "Avj"ni zabt etgan mashshoq, xonanda xalq dilidan joy oladi. Haqiqiy san'at asarida ham avj parda bo'ladi. "Qora ko'zlar" romani tuzilmasida Madamin-jon va Ma'suda sevgisi dostoni bor. Mumtoz asarlarning aksariyatida ruhning mukammal xarakteri ifodalangan avj daraja bo'larkan. "O'tkan kunlar"da Otabekning jununa Zay-iab bilan qabristondagi uchrashuvi kishini titratib yuboradi. Enaxonning xarobgina, zim-ziyo hovlisiga Zebining sehrli ashulalari samoviy nurlarni olib kiradiki, uni "Kecha va kunduz"ning avj nuqtasi deyish mumkin. Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asaridagi manqurt o'g'il va ona haqidagi

afsona-dostonni, “Qulayotgan tog‘lar”dagi qayliq faryodini beparvo o‘qish mumkinmi?!

“Qora ko‘zlar”dagi Madaminjon faryod-dostoni kishilar ruhiga singib ketgan bid‘at, soxta udumlarni kuydi-rib yuboradigan nur — davo, misoli. Sinchiklab kuzatilsa, Pirimqul Qodirovning “Erk”, “Meros” singari zamona-viy, Bobur, boburzodalar haqidagi tarixiy romanlarida, ilmiy badiialarida “avj nuqtalar” seroblighi diqqatni jalb qiladi. Adibning san‘atkorligi, asarning mumtozligi ki-tobxonni lol qoldiradigan “avj pardalar”da yaqqol ko‘rinadi.

Romanda Davlatbekov, Ortiqlar, eskicha aytganda, sal-biy kuchlar. Bular aqlli, tajribali, uddaburon kishilar, lekin hamisha yuqoridan beriladigan buyruq va topshiriq-larni bekamu kust uddalashga intiladilar. Ijrochi Davlatbekov go‘sht topshirish rejasini 250 foizga bajargan: xalq-ning qarg‘ishiga qolgan. Ortiq brigadirlikdan bo‘shab qolmaslik uchun ne-ne nojo‘ya ishlarga qo‘l urmadi? Hatto hayotini xavf ostida qoldirib, ayiq otdi, terisini katta amaddorga sovg‘a qilmoqchi bo‘ldi. Yozuvchi qahramon xarakte-rini yaratishda hayot oqimini asos qilib oldi. Davlatbekov, Ortiq, Ismat bobolarning yomon qilmishlari ko‘p, ammo ular vaqti-vaqti bilan kimnidir og‘irini yengil qilgan, kimga-dir yordam bergan, elga manfaatli ishga bosh-qosh bo‘lgan.

Pirimqul Qodirov muammo qo‘yish va uni ishonarli, badiiy hal qilishga mohir. “Olmos kamar” romanida sha-harsoz, metrosoz mutaxassislar, me’morlar hayoti ko‘rsatilgan, xarakteri ochilgan. Toshkent haqida ko‘plab she‘r, doston, qissa, romanlar yaratilgan. P. Qodirov Toshkent shahrini jahondagi go‘zal, muhtasham poytaxtlar darajasiga ko‘tarish masalasini qo‘yadi. Ikki yarim ming yildirki Toshkent sun‘iy o‘zanlardan keladigan suvdan foydalangan. Vaqti-vaqti bilan anhor, ariqlar ko‘milib qolgan. Miroblik, ariq qazish singari yumushlar toshkentliklarga yaxshi ta-nish. “Olmos kamar”da ilk bor shahar dizayn-me’morlari xarakteri yaratilgan. A‘zam ota, Abror, Vazira, Xolbekov, SHerzod singarilar metro qurilishi, Bo‘zsuv, Anhor, Solor, Bo‘rijar qirg‘og‘ini obod, kurkam qilish bilan shug‘ullanadilar. Toshkent dizayn-me’morlari orasida iste’dod-liligi, uquvliligi bilan

Abror ajralib turadi. Uning bobolari, otasi miroblik qilgan. Abror suvga yaqin bo‘lish, ariqlarni pokiza saklash nimaligini teran anglaydi. O‘zbe-kiston xalqi, xususan, toshkentliklar qadim-qadimdan ol-didan oqqan suvning qadrini bilgan. XX asrning 40-yil-larigacha Toshkentdagi aksariyat hovlilardan ariqcha o‘tardi, top-toza suv oqib turardi. “Olmos kamar”ning ruh-ruhidan ekologik e‘tiqod masalasi sizib chiqadi. “Olmos kamar” romanida maydachuyda masalalar ko‘payib ketganday tuyula-di. Abror ertayu kech olcha rang “Jiguli”sida Toshkent mav-ze, ko‘chalarida bo‘zchining mokisiday tinmay harakat qila-di. Lekin asar oxirida roman g‘oyasi, betakror o‘zligi aniq ko‘rinadi. “Olmos kamar” romanida ko‘tarilgan muammo — Toshkent zkoloshyasi, dizayni, go‘zalligi singarilar Mustaqillik yillarida bus-butun amalga oshmoqda: Bo‘zsuv, Anhor, Solor bo‘ylarida yursangiz bahri dilingiz ochiladi, to‘lib oqayotgan suv ruhingizni ko‘taradi.

Pirimqul Qodirov – kuzatuvchi, sinchkov yozuvchi. SHo‘ro davlati paydo bo‘libdiki, xalqni ishlashga, ter to‘kishga, “kommunizm binosiga g‘isht qo‘yishga” da‘vat etdi. Minglab asar-larda qadoq qo‘lli kishilar timsoli yaratildi. Pirimqul Qodirov 1974 yilda, sho‘ro tuzumi hali baquvvat, mustahkamligida “Meros” qissasini yaratdi,¹ kishilar ongiga singib ketgan qora mehnatni ideallashtirilishiga qarshi bong uradi.

“Meros” qissasida mohir paxtakor, Butunittifoqda dong taratgan, Mehnat Qahramoni, Oliy kengash deputata Yolqin Otajonov xarakteri yaratilgan. Bu qahramonning hayotdagi prototipi Mamajon Dadajonovdir. Ilg‘or paxtakor, mehnatda o‘zini ko‘rsatganlar haqida P. Qodirovgacha, undan keyin ham talay asarlar yozilgan. “Meros”da zamonning ideal qahramoni osmonu falakka ko‘tarilib maqtalmaydi. Ak-sincha... Yolqin toifasidagi qahramonlar yashash tarzi tan-qid qilinadi. Asar Yelqinning ukasi Tursun tilidan hikoya qilinadi. Tursun maktabni tugattach, institutga kirish uchun Toshkentga ketadi, Yolqinning o‘ta ziyoli qaynog‘asi Azlar-nikida yashaydi. Azlar Tursunga bir

¹ Қодиров П. Танланган асарлар, 3 томлик, 1-том. Т., Шарк. 2008й.

gapni rosa singdiradi. Odam dunyoga ho‘kizday ishlash-u bolalar sonini ko‘payti-rish uchun kelmaydi. Inson o‘zini hurmat qilishi, qadrini bilishi lozim. Yolqin tug‘ilibdiki, mehnat qiladi, subhi sahardan yarim tungacha daladan qaytmaydi. To‘g‘ri, mehnati orqasidan obro‘ topdi, uylandi, bola-chaqali, mashinali, uy-joyli bo‘ldi. Ammo u bolalarini olib sayr-sayohatga chiq-dimi, jannatday so‘lim joylarda dam oldimi, dunyo kezdi-mi, do‘st-yorlari bilan miriqib suhbat qurdimi? Tursun akasini yeru ko‘kka ishonmaydi, ota o‘rnida ko‘radi, ammo akasi izidan bormaydi – DEHQONQUL bo‘lmaydi.

Pirimqul Qodirov ilk asarlaridanoq g‘oyaning aniq, ifodaning badiiy bo‘lishiga odatlangan. E’tibor bering, kamdan-kam ijodkor o‘z qarashini lo‘nda, aniq holda sarlavhaga olib chiqadi. “Qadrim”, “Erk”, “Meros”¹ deb nom qo‘yish uchun P. Qodirov qissalari strukturasi, poetikasiga necha-necha bor kirgan. “Qadrim” va “Erk” o‘zaro yaqin, bir-birini to‘ldiradigan tushuncha. Ammo erkin bo‘lmay turib, qadr to-pish amri mahol. Oysha (“Erk”) urf, irimlarga ko‘nika-ko‘nika o‘zligini tamoman yo‘qotgan. Uning ongiga mudhish bir qarashni singdirishgan: qiz bola birovning xasmi, Erga tekkach, u o‘zligini bus-butun eriga topshiradi. U endi tu-g‘adi, mol-holga, uy-joyga qaraydi, xolos.

Yozuvchi oyshalarpi chirmoviqqa mengzaydi. Bir qarashda, chirmoviqli daraxt go‘zal ko‘rinadi. Ammo “daraxt” — er, “chirmoviq” — xotinini qabul qilarmikin? Sattor — za-monaviy, shahar kurgan, oliy ma’lumotli, eng asosiysi, sevgi nimaligini bilgan yigit. U avvallari Oyshaga toqat qilardi, oilaga moslashishga intilardi. Endi Oysha unga ortiqcha yuk, tashvishga aylandi. Dahshati shundaki, Sattor: “Bor-ye sen bilan yashamayman”, — deb etagini siltab ketib qola olmaydi. U Oyshani shaharga olib keladi, asta-asta mustaqil hayotga o‘rgata boshlaydi. Beorom tunlarning bi-rida Oysha o‘g‘lini

¹ Гафуров И. Мерос қолган яхшилик: [Ёзувчи Пиримқул Қодировнинг “Мерос” қиссаси ҳақида] //Ўзбекистон маданияти.-1975.-8 апр.

Гафуров И. Эркнинг маъсулияти: [Пиримқул Қодировнинг “Эрк” номли қиссаси ҳақида] //Тошкент оқшоми.-1970.-6 окт.

bag'riga tortar ekan: "Endi nima qila-miz, bolam?", — deydi. Shu savol qadrini izlashga tushgan odamning «o'zlik» tomon tashlagan ilk qadami.

Iskandar ("Qadrim") otasining o'zginasi. Otasi mo'min-qobil, kim nima ish buyursa bajarib ketaveradigan odam bo'lgan. U umrida hech kim bilan "senu menga" bormagan, takdiridan shikoyat qilmagan. Zulayho Iskandarni yoqtiradi: uni ko'lmak hovuzchadan olib chiqishga ahd qiladi. Iskandar Zulayhoga ergashib Cho'li Malikka keladi, gaz koni izlanayotganlar jamoasiga qo'shiladi. Yozuvchi jamoa va alo-hida odam aloqasi masalasini aniq, ishonarli tasvirlaydi. Iskandar kon izlovchilarning murakkab texnologiyasini qunt bilan o'rganadi. Ulkan mashinalar kuchini bilaklarida his qiladi. Bora-bora u jamoaning o'z odamiga aylanadi. Yer qa'ridan bandi devday otilib chiqqan gazning asov otini jilovlashga kirishadi. U o'lim bilan yuzma-yuz keladi, ammo vazifasini uddalaydi. Bo'sh-bayov Iskandar jamoada qadri-, ni topadi, sevgilisiga tik qarash huquqiga ega bo'ladi.

XX asrning o'rtalarida adabiyotga yangi ruxdagi avlod kirib keldi. Pirimqul Qodirov uzbek adabiyotidagi ana shu avlodning peshqadam namoyandasi bo'ldi. Iste'dodli siymo borki, zamon bilan munosabatini mustahkamlab oladi. "Uyimiz tor bo'lsa ham ko'nglimiz keng", — degan gapni Pirimqul aka ilk bor aytganday tuyulaveradi menga. Uning bir xonali maskapida ne-ne uzbek ziyolilari, yozuvchilari, qishloqdon!lari, tanish-bilishlari qo'noq bo'lmadi deysiz?!

Iste'dodli, kirishimli o'zbek yigiti Muxtor Avezov, Konstantin Simonov, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, Chingiz Aytmatov singarilar hurmatini qozondi, Ozod Sharafiddshgov, Matyoqub Qo'shjonov, Jumaniyoz Jabborovday do'stlar orttirdi, ularga o'z vaqtida jo'yali yo'd-yo'riq ko'rsatdi. Pirimqul Qodirov yosh yozuvchi deb ataladigan bosqichni deyarli o'tamadi. Olimlik dissertatsiyasini himoya qilgach, "Uch ildiz" romaniii yozishga kirishdi, xayolida bir qancha asarlar g'oyasi yetila boshladi.

"Yozuvchining oltmish yillik ijod yo'li uch davrga bo'linadi. Hikoyalari, "Qadrim", "Erk", "Meros», "Akramning sarguzashtlari", "Yayra o'qishga

kirmoqchi” qissalari, “Uch ildiz”, “Qora ko‘zlar”, “Olmos kamar” romanlari, drama, qator maqolalari yozuvchi ijodining birinchi bosqichi samaralari. “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” romanlari — ikkinchi bosqichining kurkam namunalari. “Ona lochin vidosi” romani, “Amir Temur siymosi”, “Til va el” ilmiy badialari, “Qalb gavhari” badiia-maqolalari to‘plami, bir qancha ilmiy-zestetik tadqiqotlari Pirimqul Qodirovning Mustaqillik davrida yaratgan asarlaridir. Yozuvchi ijodini yoritishda asarlari soni, yozilgan vaqtini asos qilib olmadik. Uning asarlaridagi izchil mantiq, falsafiy mushohada, yuksak badiiylik diqqatni tortadi. Yozuvchi asarlarida tafakkur ummoniniig shitob oqimi, izchil bog‘liqligi, mu-rakkablngi aks etib turadi. Adib yaratgan badiiy asarlarni, badialarni, ilmiy-talqiniy ishlarni kuzatsak, oddiylikdan murakkablikka, hayotiy voqea-hodisalardan keng umumlashmalar chiqarishga intilish yaqqol ko‘rinadi. Muhimi, san’atkor nngil, jo‘p muammolarni qo‘ymaydi. U shunday murakkab vaziyat, holatlarni tasvirleydiki, zukko adabiy qahramonlar ham o‘yga toladi, mavjud imkoiyatini muammoni haqqoniy, teran yechishga yo‘naltiradi. Qo‘yilgap badiiy-falsafiy muammolar yechimi yozuvchining o‘zini qiziqtiradi, uing san’atkor-mutafakkirlik ehtiyoji shunday yo‘sinni taqozo etadi. Ziddiyatlar, bahslar, ruhiy-ma’naviy tortishuvlar yo‘lidan borish-yozuvchi uslubining mu-him xususiyati. U atayin murakkab, faylasufu san’atkorlar diqqatini avvaldan jalb etib kelgan muammolarga qo‘l uradi.

Pirimqul Qodirov – O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, o‘zbek adabiyotining peshqadam vakillaridan biri. XX asrning ulug‘ yozuvchilaridan biri Muxtor Avezov Pirimqul Qodirovga yuksak baho berdi va kelajagi porloq ekanini bashorat qildi. Va bashorat to‘g‘ri chiqdi – yozuvchi qadam-baqadam ulg‘aydi va yirik san’atkor, mohir adib bo‘lib yetishdi. Adabiyotda hamisha amal qiluvchi isbot talab qilinmaydigan qonuniyatlardan biri shundaki, adib har qancha iste’dodli bo‘lmasin, butun umri davomida boshqa buyuk ijodkorlarning tajribasini o‘rganib boradi, ularga suyanadi, davom ettiradi va boyitadi. Pirimqul Qodirov

ham ayniqsa, Lev Tolstoy maktabini puxta o'rgangan, Qodiriylar, Oybeklar, Qahhorlar tajribasini o'ziga singdirib olgan edi. Shuning uchun ham, u o'z ustozlariga ergashib, so'z san'atini ulug' va muqaddas ish deb bildi, adabiyot xalq dardini ifodalamog'i, odamlarga hayot sirlarini o'rgatmog'i, yashash san'atidan, yaxshilik san'atidan saboq bermog'i kerak deb hisobladi. Yozuvchi o'z asarlarini yaratar ekan, ularning katta-kichikligidan qat'i nazar, har gal xalq manfaatlarini nazarda tutdi. Adib o'z asarlarida halollik, vijdoniylik, ma'naviy yuksaklikni, vafo va sadoqatni, fidokorlikni ulug'lash, har xil qalloblik va olg'irlikni, insofsizlik va diyonatsizlikni qoralash yo'lidan bordi. Adibning har bir yangi asarini ming-minglab adabiyot muxlislari mehr bilan o'qishadi. Pirimqul Qodirov ijodining xalqimiz orasida shunchalik e'zozlanishining siri shundaki, u xalq dilidagi gaplarni yozdi, uning qalbiga yaqin insonlarni mehr-muhabbat bilan tasvirladi. Xalq esa muhabbatga muhabbat bilan javob berdi. Ijodkorning orzu qilgan baxti ham mana shunda..

I.2. ADIB IJODIDA TARIXIYLIK VA ESTETIK IDEAL UYG‘UNLIGI

Aslida, odamzod aytmagan gap, o‘ylamagan muammo qolmagan, hisobi. Mohir san’atkor mangu muammolarning zamonaviy yechimini topadi, aytilgan fikrlar ma’nosini yangilaydi. Barcha zamonlarda, har xil yurtlarda yozuvchilar se-rob bo‘lgan. Ammo minglab adibu shoirlardan sanoqlisigipa zamonning cho‘ng gapini aytgan, ulkan muammoni dast qo‘ya olgan. Chin san’atkor, misoli, sor lochin: u zamonlardan zamonlarga erkin parvoz qiladi, iste’dodi yuksakligi da-razasiga ko‘ra o‘ziga xos vaqt birligini yaratadi. Amir Temurning kelinini, Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim haqida ne-ne gaplar aytilib, qanchadan-qancha badiiy, tari-xiy asarlar yozilmagan?! P. Qodirov ilk O‘zbek oyimlardan biri Gavharshodbegim haqida o‘z badiiy-estetik qarashini ko‘rsatdi. “Ona lochin vidosi” romanini yozdi.¹ Asarda xonzoda ayollarning murakkab tabiati, farzandu nabirala-riga munosabati yangi rakursdan — P. Qodirov qarashlari nuqtai nazaridan yoritildi. Gavharshodbegim uzoq umr kurgan, har xil odamlarni ko‘raverib ko‘zi pishgan temuriy xonzodalardan. Ulug‘bekni tuqqanida Amir Temur kelinini duo qilgan, “yirik-yirik la’llar qadalgan bir juft oltin sirg‘a” bergan. Umri davomida Gavharshodbegim qaynotasini ulug‘ladi: bolalari, nevara, chevaralari bobosiday bo‘lishni havas qildi. Shohruh, Mirzo ariqlar • qazitgan, Madrasa, masjid, yo‘l-ko‘priklar qurdirganida dil-dilidan quvonadi. Gavharshodbegim hayotida quvonchli yillar, alamli davrlar mo‘l bo‘ldi.

Pirimkul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani, Gavharshodbegim timsoli. Amir Temur bilan Mirzo Boburni bog‘laydi gap ko‘priklar misolidir. Yaratgannitsg karami bilan Gavharshodbegim Ulug‘ Temurga kelin, Shohruh Mirzoga xotin, Mirzo Ulug‘bekka ona, navnihol Alisherning ilk g‘azallarini tinglagan zurafo, tug‘ilajak Bobur shohga ulug‘ momo bo‘ldi.

¹ Сафаров М. Улуғ она киссаси: [Атоқли адиб Пиримкул Қодировнинг “Она лочин видоси” тархий романи хақида] //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-2004.-19 нояб.

Avliyo onaning ma'iaiy-ruhiy yetuklik yillari noshu-kur, jangari nevarachevara (temuriyzoda)larning o'zaro jan-glari, taxt talashlari pallasiga to'g'ri keldi. Abdulatif padarkushlik qilib, momosi qalbini jarohatladi, Alauddavla katta onani hamisha ezib, qiynab keldi. Zahiriddin Boburning bobosi – Umarshayx Mirzoning otasi Abdusaid Gavharshodbegimni qatl ettirib, mangu malomatga qoldi. Donishmand san'atkorlar his-tuyg'uga erk bermaydilar. Lmmo ular asarlarida shunday tasvirlar uchraydiki, kitob-xon adabiy qahramon ruhiyatini butun borlig'i bilan his qiladi: "Samarqandga, Amir Temur maqbarasiga yetib borganlarida Gavharshodbegim Ulug'bek qabrini xuddi beshik kabi quchoqlab, yelkalari silkina-silkina uzoq yig'ladi. Ulug'bek go'daklik paytida begim kechalari uning beshigiga bag'rini berib, bola emizganlari yodiga tushdi. Shundan keyingi ellik besh yillik hayot ko'z oldidan yashin tezligida o'tdi. Lekin xayoli o'ziga kelganda go'dakning iliq nafasi keladigan beshikni zmas, qirralari ko'krigiga botib turgan sovuq qabr toshini quchoqlab yig'layotganini ko'rdi..."¹. "Ona lochin vidosi" romanida Pirmqul Qodirov Gavharshodbegimni o'zi anglaganiday, bilganiday tasvirladi.

Zahiriddin Bobur-chi? Bu dilbar siymo, qo'lida shamshir o'ynatib, oyog'ini uzangidan uzmasdan yashashga majbur bo'lgan shoh armonlari, iztiroblari haqida jahon adabiyoti tarixida ozmuncha asarlar yozilganmi? Tangri tog'iday cho'ng "Boburnoma"ning borligi bois uncha-buncha ijodkor Bobur mavzusiga jur'at etib qo'l urolmagan. SHo'ro davlati, maf-kurasi shohu beklar, o'tmishning nurli siymolari haqida asar yozilishini sira-sira istamagan. Shunday murakkab vaziyat, qiyinchiliklarga qaramay, Pirmqul Qodirov Bobur mavzusiga qo'l urdi, ijodining nurli cho'qqilari bo'lib qolgan «Yulduzli tunlar», "Avlodlar dovoni" dialogiyasini yaratdi. SHo'ro mafkurachilarining bu asarlarga hujum qilishi kutilgandi. P.Qodirov Bobur, boburzodalar haqidagi romanlarini chop ettirguncha ne-ne qiyinchilikka, ruhiy iztiroblarga duch kelmadi?

¹ Пиримкул Қодиров. "Она лочин видоси", Т.; Шарқ, 2001, 125-бет

Millatimiz o‘z tarixiy ildizlaridan ma’naviy oziq olsa, qaddini tez tiklashi mumkin. Shuni dil-dildan his qilganim uchun 1969 yildan boshlab yigirma yil davomida tarixiy mavzuda ish olib bordim”.

“Yulduzli tunlar”¹ romanining ilk nusxasi 1972 yili yoziladi, asar qo‘lyozmasi o‘sha yili Yozuvchilar uyushmasida muhokama etilib yuksak baho oladi va yuqoriga tavsiya qilinadi. Biroq ko‘zga ko‘rinmas qora kuchlar qarshiligi tufayli roman olti yilcha bosilmay yotadi. Nihoyat, 1978 yili asar “Sharq yulduzi” sahifalarida dunyo yuzini ko‘radi, ko‘p o‘tmay alohida kitob bo‘lib chiqadi. Qisqa muddat ichida rus tilida ikki bor bosiladi, boshqa tillarga tarjima qilinadi, o‘zimizda va Moskva matbuotida yuksak baho oladi, Davlat mukofoti bilan taqdirlanadi. Adib bunday ma’naviy madadlardan ruhlanib “Yulduzli tunlar”ning davomi Humoyun va Akbar haqidagi roman – “Avlodlar dovoni” ustida qizg‘in ish boshlab yubordi, boburiylar sulolasiga doir jahonda yaratilgan son-sanoqsiz asarlarni sinchiklab o‘rganadi, ikki bor Hindistonga safar qilib, asar qahramonlari Bobur, Humoyun va Akbar yurgan yo‘llarni kezadi, ular yashagan joylarda bo‘ladi. Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” (“Bobur”) va “Avlodlar dovoni” romanlarida Bobur va uning avlodlari hayot yo‘lini kuzatish orqali Boburiylar saltanatining vujudga kelishi va ravnaq topishini yorqin tasvirlashga erishgan. U uzoq o‘tmishda va o‘zga mamlakatda ro‘y bergan voqealarni jonlantirishda o‘z fantaziyasiga emas, balki o‘zi e’tirof etganidek, “tarix fantaziyasi”ga, ya’ni chindan sodir bo‘lgan voqealarga ko‘proq asoslangan har ikkala asar ham keng kitobxonlar tarafidan samimiy kutib olinganiga qaramasdan, sho‘ro mafkurasi tomonidan keskin tanqid qilinib, yozuvchi o‘tmishni ideallashtirishda ayblandi.

“Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” romanlari chiqqanidan beri kitobxonlarning muallifga yo‘llagan maktublar keti uzilmaydi. Shulardan biri farg‘onalik hassos shoira, maktab muallimasi Maqsuda Ergasheva “Avlodlar dovoni” mutolaasi paytidagi his-hayajonlarini shunday izhor etadi: “Sizning

¹ Каттабеков А. Юлдузли тунлар тасвири: [Пиримқул Қодировнинг Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва фаолиятини акс эттирган “Юлдузли тунлар” романи ҳақида] //Тошкент оқшоми.-1979.-11 янв.

“Avlodlar dovoni” romaningizni katta qiziqish bilan o‘qib chiqdim”. Maktub 1989 yil 3 fevralda, ya’ni “oshkoralik, demokratiya” jazavasi avjiga chiqqan kezlari bitilgan, xatda o’sha kezlardagi behuda jazavalardan zada bo‘lgan nozik qalbning “Avlodlar dovoni”dan topgan taskinlari ifodalangan. “Hozir hamma gazetayu jurnallardan tortib, she’rlaru romanlargacha baqirib-chaqirib so‘zlanayotgan ushbu zamonda, – deya davom etadi muallima – ulug‘ bobolarimiz haqida shunday sokinlik bilan yozilgan asaringizni o‘qib, barcha kitobxonlarni noyob bir ma’naviy xazina bilan qutlagim keladi. Behadu behisob o‘limlarni ham hayot nuriga yo‘g‘irgan tasvirlaringiz dilrabo g‘azalning ohanglaridek ruhimga orom berdi”. Ayni vaqtda u romanni o‘qiyotib qalbini o‘rtagan armon-o‘kinchlarini ham to‘kib soladi: “Balki ulug‘ bobomiz Mirzo Bobur xoinlar tufayli bu tuproqdan chiqib ketmaganlarida, biz bu kungi holga tushmasmidik? Yurtimiz ham Movarounnahrligicha qolib, dunyodagi eng buyuk davlat bo‘larmidi? Humoyun va Akbarlar ham shu yerda tug‘ilarmidi, balki jahonga mashhur Tojmahal Andijonda qurilarmidi?!”

Bunday armon romanni o‘qigan har bir o‘zbek kitobxoni qalbidan kechadi. Pirimqul Qodirov L.Tolstoy, A.Chexov, K.Fedin, X.Deryayevlar ijodidan tarjimalar qildi.

Amir Temur, Bobur, Humoyun, Akbar shoh mavzusiga qo‘l urish boshqa, uni amalga oshirish, ulkan xarakterlar yaratish boshqa. Pirimqul Qodirov qanday murakkab ijodiy ishga qo‘l urayotganini teran anglardi. Haqiqiy san’atkor jiddiy mavzuni o‘zigagina xos yo‘ldan borib yoritadi: qayer-dadir, qachonlardir yoqilgan gulxanlar taftidan foydala-nishni xayoliga keltirmaydi. Shunday xavf P. Qodirov oldida kam bo‘lsa-da, bor edi. «Amir Temur siymosi» asari tarxini u tamoman yangicha chizdi. Bir tomondan temurshunoslik tarixi o‘rkach-o‘rkach bo‘lib kela boshladi: yozuvchi ularni nozik kuzatdi, aql tarozusida zargarona o‘lchab baholadi. Pirimqul Qodirov Temur haqida kim, qachon, qayerda fikr aytgani-ni emas, qanday g‘oya asosida xulosa chiqarilganini asos qilib oladi. U taft tortmay nomdor rus akademiklaridan A.Y. Yakubovskiy, V.V. Bartoldlarning Temurga nisbatan noxolis qarashda bo‘lganlarini yozadi. Aksincha, xorij tarixchilaridan M.

Ivanin, M. Sharmua, M. Arnoldov, L. Kerenlarning xolis, ilmiy teran xulosalarini samimiy tan oladi.

Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romanida Bobur Mirzoniig sal kam qirq yillik murakkab, mashaqqatli hayotini badiiy ifodaladi. Roman janri, misoli, ulkan dare: uning sirti, qirg‘oqlari, goh to‘lib, goh kamayib oqadi-gan suvi bor. Mohir san’atkor daryoing ostki oqimi, shid-datini asos qilib oladi. “Yulduzli tunlar”ning ostki oqimida inson va shoh Bobur ruhiyatida kechgan nihoyatda murakkab jarayonlar aks etgan. Bir tomondan, Bobur – shoh: Amir Temur avlodi. Uning tomirlarida Bobo Temurdan meros qon harakat qilyapti. Shohlikning qat’iy, shakllangan qonun-qoidalari bor. O’n ikki yoshli Bobur boshiga bekorga toj kiydirilmagan.

Ikkinchidan, Bobur Mirzo, hamma qatori, xudoing bandasi: insonga xos jamiki xususiyatlar unga yot emas.

Uchinchidan, Mirzo Bobur yaratganning alohida in’omiga ega –iste’dodli siymo. Shoh Bobur ko‘pincha amiru beklar, Temurzodalar davrasida bo‘ladi. Ular bilan yuz yoqni o‘ylab gaplashadi, diplomatlik tartibotini zinhor unutmaydi. Buni Xadicha begim bilan bo‘lgan suh-batda, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzolar uyushtirgan ziyofatdagi munosabatlarda kuzatish mumkin.

Bobur shoh xonu beklar, amiru navkarlar qurshovida bo‘ladi-yu, ko‘ngli hamisha Alisher Navoiyni, shoiru san’atkorlar suhbatini qo‘msaydi.

“Yulduzli tunlar”da Boburning ijod jarayoni ko‘rsatilmaydi. Ammo Boburning ayni bahor pallasida yalangoyoq bo‘lib adiru qirlarda yurishi, yamyashil dalalarga suqlanib boqishi, moviy osmonda uchayotgan qushlarni havas bilan kuzatishi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘layotgan tayyor she’r emasmi?! Bobur xayollari-chi? Yetar, bas. Shohlik kamarimni yechaman, oddiy cho‘pon, dehqonday qir-adirlarda mehnat qilaman. Jangu jadallardan, quvish-qochishlardan zada bo‘ddim... Or-zular qanotida parvoz qilayotgan Boburni ishongan, sadoqatli amiri yerga tushirdi, shohlik burch-vazifalarini eslatdi. Bobur chuqur xo‘rsindi-yu, etigini kiydi, lashkar-boshilik kamarini bog‘ladi, otga minishga majbur bo‘ldi.

Pirimqul Qodirov podsho va inson Bobur ruhiyatini bir yo‘la tasvirlab boradi. Qor gupillab yog‘ib turganida Bobur tog‘ dovonini oshib o‘tishi zarur bo‘lib qoldi. Bobur oddiy navkarlar qatori qor bo‘ronida qoldi, sovuq suyak-suyagidan o‘tib ketdi. O‘sha damda u ilk bor kasalga chalindi. Ibrohim Lo‘diy bilan jang qilmasa, zaharlanmagan bo‘lardi. Xullas, shoxlik yumushlari insoniy xususiyatlar o‘zaro omuxta bo‘lib ketadi.

Zahiriddin Bobur hayoti muhim bir haqiqatni tasdiqlaydi. Har qanday sharoitda inson yashayverarkan: g‘urbatda quvonch, xo‘rlikda zrk, armonda huzur, dardda taskin, tush-kuilikda surur topar ekan. Bobur Fazliddin me‘mor bilet emin-erkin suhbatlashadi, Tohirga yurak dardlarini ochadi, Xonzodabegim, ayollari, farzandlari mehridan yay-raydi. Hindiston taxtiga o‘tirgan Bobur adolat bilan ish yuritadi, yerli amaddorlarga keng huquq beradi, ona yurti-dan kalgan olimu san’atkorlar bilan dildan suhbat quradi.

«Avlodlar dovoni»¹ romanida boburzodalar, ularning muhiti ishonarli tasvirlangan. Pirimqul Qodirov bir necha bor Hindistonga bordi, sharoit, muhitni Humoyun, Akbar singari boburzodalar ko‘z i bilan kuzatdi, roman qahramonlari xarakteridagi asosiy xususiyatlarni aniq bilib olishga in-gildi. Humoyun otasi boshlagan ezgu ishlarni davom ettir-di, shahzodalar aro ziddiyat, jangu jadallar yo‘lini to‘sdi. Jigari bo‘lishiga qaramay haddidan oshib ketavergan Kom-ron Mirzo ko‘zlariga mil torttirdi. Akbar shoh Hindiston tarixida betakror qayta quruvchi (reformator), fayla-suf sifatida iz qoldirdi. U, otasi, bobosi singari, muqaddas kitoblarni berilib o‘qidi, donishmandlar bildirgan teran qarashlardan ogoh bo‘ldi. Akbar shoh faoliyatida musulmon dini qarashlari bilan hindlarning donishmandliklari birlashib ketdi.

Pirimqul Qodirovning tarixiy asarlarida XIV—XVI ayerning nurli siymolari – Amir Temur, Zahiriddin Bobur, Xumoyui Mirzo, Akbarshoh singarilar xakteri yaratildi. Yozuvchi inson va zamon bog‘liqligi, shaxe va

¹ Холмуродов А. Сукунат қўнғироғи: [Ёзувчи П. Қодировнинг “Авлодлар дово̀ни” романи ҳақида айрим кузатишлар] //Ўзбекистон санъати ва адабиёти.-1991.-14 июнь.

ijtimoiy muhit alo-qadorligini ishonarli ko'rsatdi. Tarixiy asarlarda Pirimqul Qodirovning san'atkorlik mahorati, hech kimnikiga o'xshamagan uslubi, muammolar yechimidagi donishmandligi, teran gafakkuri aniq ko'rindi. Indallo gap shuki, san'atkor Pirimqul Qodirov Bobur shoh, Gavharshodbegim haqida yashi gap aytdi, yuksak iste'dodini namoyon etdi.

Adib uslubining asosiy qirralaridan biri shuki, u yaratilajak asar ildizi, o'zagini aniq-tiniq bilib olmaganicha qo'liga qalam olmaydi. Amir Temur fitratida sinalgan qonun-qoidalarga rioya qilish asos hisoblashan. O'sha qoida-qonuniyatlar «Temur tuzuklari»da mukammal ifodalangan. Sohibqiron qanday ishga qo'l urmasin, qachon, qayerga yurish qilmasin, qaysi muammoga duch kelmasin, «Temur tuzuklari»da qayd etilgan yo'riq, ko'rsatma, qoidalarga asoslanadi. «Temur tuzuklari» teran mazmunli, hayotiy saboqlar asosida yozilgan asardir.

Qiyos joiz bo'lsa, «Tuzuklar» Amir Temurning iqror-iomasi, qat'iy e'tiqodi izhoridir. Qarang, Temurday qat'iyatli zot ulug'lar, olimu donishmandlar fikr-mulohazalariga quloq solgan. «Temur tuzuklari»ni o'zlashtirgan ahli dark bu asarni aqllilar kengashi sifatida anglaydi.

«Amir Temur siymosi» — badiiy-talqiniy asar. «Til va el» ilmiy badiia. Har ikkisining o'zagi — «Temur tuzuklari». Hozirgi akademik lingvistika nuqtai nazaridan «Til va el»dagi qarashlar sof ilmiy konsepsiyalardan farq qilar. Lekin unda badiiy asar tili muammolari bilan yarim asrdan ko'proq muddatga shug'ullangan olim-yozuvchiniig izchil qarashlari, e'tiqodi bor. Amir Temur, Bobur Mir-zo, Humoyun, Akbar shoh singari tarixiy shaxslarni baho-lashda tarix faninitg yapgi koitsrpsiyalari, ilg'or qarashlari mavjuddir. Bu siymolar xarakterini ishonarli yoritish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-estetik mohiyatini ochishda Pirimqul Qodirovning o'zigagina xos anglovi, badiiy tayanchi bor. Pirimqul Qodirovning o'zi ta'kidlab aytganidek: “Oddiy suhbatdoshingiz ham sizdan maroqli yangiliklar, fikr uyg'otuvchi va zavq beruvchi asl gaplar kutadi. Shu siz anchayin suhbat ham dilkash bo'lmaydi-yu,

ma'lum narsalarni takrorlaydigan va kitobxonni o'z ichiga olib kirib ketolmaydigan asar qanday dilkash bo'lsin!

Asarni qiziqarli qiladigan eng zo'r vosita – uning mavzui va g'oyasi ham, qahramonlari va syujeti ham, badiiy to'qimasi va uslubi ham o'ziga xos bo'lishi va mug'im bir yangilik bera olishidir". "Adabiy o'ylar"ni o'qir ekansiz, avvalo adibning o'z ijodiy tajribasidan kelib chiqadigan prinsiplarni himoya qilayotganini sezib olasiz. Yozuvchi hayotni o'rgangan vaqtida, uning hali hech kim tasvirlamagan muhim va yangi tomonlarini topishi kerak. Faqat buning uchun u adabiyotni ham juda yaxshi bilmog'i lozim. Chunki adabiyotga hayotning nimalari kirgan, nimalari kirmaganidan to'liq xabardor bo'lmagan odam "yangidan arava ixtiro qilaman" deb, behuda ovora bo'lishi ham mumkin".

Ma'lumki, ko'pincha ijodkorning tanqidiy tafakkuri qanchalik teran va chuqur bo'lsa, uning adabiy iste'dodi ham shu qadar kuchli bo'ladi.

"Tanqidchilik iqtidori imkoniyat tarzida bo'lsa ham har bir yozuvchida, albatta, bor, - deb yozadi Pirimkul Qodirov tanqidchi U.Normatov bilan qilgan suhbatida.¹ – Lev Tolstoyning mashhur gapini yana bir eslagim keladi: "Men ishlayotganimda, yarmim yozuvchi bo'lib asar yozsa, yarmim tanqidchi bo'lib, bu asarning qanday chiqayotganini aytib turadi. Kechasi ishlamayman, chunki tunda dilimdagi tanqidchi "uxlab" qoladi. Haqiqiy yozuvchi dilidagi tanqidchining hamisha uyg'oq bo'lishini istaydi. Busiz adabiyotning hali zabt etilmagan baland cho'qqilariga ko'tarilib bo'lmaydi. Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda – hammalari yozuvchi bo'lishdan tashqari, adabiyotimizning haqiqiy zarshunoslari ham bo'lganlari, tom-tom adabiy-tanqidiy maqolalar va ilmiy ishlar yaratib qoldirganlari ko'pchilikka ma'lum.

¹ Норматов У. Тарихнинг теран таҳлили: [Пиримкул Қодировнинг "Юлдузли тунлар" романи ҳақида] //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-1981.-14 авг.

Men o‘zimning kichkina tajribamdan shuni bilamanki, ilmiy ish qilib bo‘lib, badiiy ijodga qaytganda aql-idroki go‘yo qayrilib, avvalgidan o‘tkirroq bo‘lib qoladi. Badiiy asarning zamiridan chiqib kelib ilmiy ish qilganda esa, ijod jarayonining hali ochilmagan sirlari ichdan ravshanroq ko‘rinayotgandek tuyuladi. Lekin: “Ikki qayiqning boshini tutgan g‘arq bo‘ladi”, degan maqol ham esga tushib turadi. Shu sababli badiiy ijod bilan fan va tanqidchilikning har biri o‘z yelkani yordamida suzib borayotgan mustaqil kemalar ekanini hech qachon unutmaslikka tirishaman”.

Pirimqul Qodirov “ilmiy ish qilib bo‘lib, badiiy ijodga qaytganda aql-idroki qayralib, avvalgidan o‘tkirroq bo‘lib qolishi”ni o‘z ijodida necha bor sinab ko‘rgan adiblardan. Yozuvchi “Adabiy o‘ylar” badiasi va qator tanqidiy maqolalaridan so‘ng “Erk” qissasi va “Qora ko‘zlar” romanini yaratdi. “Xalq tili va realistik proza” deb nomlangan uzoq yillik ilmiy tadqiqotidan keyin “Olmos kamar” va “Yulduzli tunlar”ni yozdi.

Pirimqul Qodirov “Xalq tili va realistik proza”¹ deb nomlangan ilmiy tadqiqoti ustida uzoq yillardan beri tinimsiz ish olib bordi. Rostini aytish kerak, so‘nggi oltmish yil ichida o‘zbek sovet adabiyotining g‘oyaviy mazmuni ham, tasviriy vositalari ham, badiiy tili ham katta sifat o‘zgarishlarini boshidan kechirdi. Adibning o‘zi ta’kidlaganidek: “bu murakkab va ko‘pqirrali jarayonni tadqiq etish, uning ichki mexanizmini ochish adabiyotimizning ham, adabiy tilimizning ham bundan keyingi taraqqiyoti uchun juda zarur”.

Jonli xalq tili bilan adabiy tilning aloqasini o‘rganish yozuvchining ijodida ham o‘z aksini topmoqda. Bu fazilat Pirimqul Qodirov asarlarining syujeti qurilishida, dramatik holatlar asosiga qurilgan konfliktida, qahramonlar dunyosining ruhiy tahlilida o‘z ifodasini topgan.

¹ Пиримқул Қодиров “Халқ тили ва реалистик проза” Т.”Фан”, 1977й

I BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Dissertatsiyaning “O‘zbek nasrida Pirimqul Qodirovning o‘rni” mavzuidagi I bobi yuzasidan qo‘yidagicha umumiy xulosalarga keldik.

Birinchidan, Pirimqul Qodirovning o‘zbek nasridagi o‘ziga xos uslubga ega ijodkorligi asarlari misolida tadqiq etildi.

Ikkinchidan, ijodkorning hayoti va ijodiga doir individual qirralari olimlarning ilmiy-nazariy fikrlariga tayanib tahlil qilindi.

Uchinchidan, Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz”, “Meros”, “Qora ko‘zlar”, kabi asarlaridagi ijodkor mahorati tadqiq qilindi.

To‘rtinchidan, yozuvchining tarixiy roman yaratishdagi mahorati hamda o‘ziga xos estetik ideali baholi qudrat o‘rganildi.

II BOB. PRIMQUL QODIROVNING ADABIY-NAZARIY QARASHLARI

II.1. IJODKORNING BADIALARI VA HISSIY IDROK

Talantli adib Pirimqul Qodirov badiiy ijod sirlari, psixologiyasi muammolarini tadqiq etish bilan kariyb oltmish yildan buyen shug'ullanib kelmoqsa. Yozuvchi shu mavzuga bagishlangan «O'ylar» nomli ilk kitobidayoq o'zini qattiq go'lqinlantirgan, hayajon va iztmrobgga solgan fikrlari, o'ylari haqida kitobxon bilan o'rtoqlashadi. Shu asarning oxirida Pirimqul Qodirov «katta yozuvchilarimizyaing klassikaga aylangan asarlaridagi badiiy tal go'zal va ma'nolarga shu qadar boy, shu qadar sehrliki, bu asarlarni o'qiyotganda faqat ularni yozgan adiblarning tilidangana emas, umuman, ona tyalimizning boyligidan, jozibadorligidan faxrlanmay turolmaysiz»¹. - deb ta'kidlagan edi. Ana shunday klassikaga aylaigan asarlar yozgan yozuvchilar qatoriga Pirimqul Qodirov Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Sadridsin Ayniy, Oybek, G'afur» Gulom, Abdulla Qahhor kabi so'z ustalarini kiritadi hamda ularning badiiy til bobidagi san'atlarini, xalq tilidan foydalanishdagi ibratli tajribalarini davom ettirish, ular qilishga ulgurmagan ijodiy ishlarni amalga oshirish keyingi avlodlarning zimmasida qolganligini alohida ta'kidlaydi.

Pirimqul Qodirov S.Ayniyning «Qullar» asaridagi badiiy til mahorati haqida so'z yuritar ekan, fors-tojik tilidan o'zlashgan «mehmondo'st» va «mexmonnavoz» so'zlarining farqli holatlariga e'tiborni qaratadi: «tojik tilining hamma nozik qirralarini juda chuqur his qilgan Sadriddin Ayniy «mehmondo'st» so'zidan «mehmonnavoz»ni aniqroq va asliga to'g'riroq deb bilgan. Romanning tojikchasida bu so'z chindan ham juda aniq, ma'noni juda to'g'ri ifodalaydi. Ammo romanning o'zbekchasida bu - tojikchadan aynan olingan, oddiy o'zbek kitobxoniga tezda yetib bormaydigan ancha murakkab so'zga aylanganligini tadqiqotchi qayd qiladi. Xuddi shuningdek, P.Qodirovning «O'ylar» asarida S.Ayniyning «Sudxo'rning o'limi» qissasi

¹ Қодиров П.Ўйлар . Бадеалар.-Тошкент; Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.-152б.

ochko‘zlikda Balzakning Gobsegidan ham oshib tushadigan tengsiz birxasis Qori Ishkambaning sataroshxonada, yo‘lda,bozorda, uyda – hamma joyda xatti-harakatlarini tiyordamida juda aniq tasvirlaganini konkret misollaryordamida ochib beradi. Masalan, osh yegandagi Ishkambaning ochko‘zligini ta’kidlash maqsadida uning qo‘lini (panjasini) “panshaxa”ga qiyoslab mullabachalardan biri tomonidan aytilgan zaharxanda gap («Qori amakim mashoqchi bo‘lganlaridan keyin to‘g‘ri kelgan xirmonni sovura beradilar») tasvirning til yordamida aniq namoyon bo‘lishini ta’minlagan. Shunday kuzatishlardan keyin P.Qodirov o‘z asarida bunday tasvirlar «S.Ayniyning uslubiga xos badiiy mantiq ilmiy mantiq yordami bilan yanada o‘tkirlashadi», - degan xulosaga keladi.

Tadqiqotchi olim P.Qodirov Oybekning «Qutlug‘ qon», Abdulla Qahhorning «Sarob», «O‘g‘ri», «Bemor» kabi asarlarini badiiy til nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilib, quyidagi muhim ilmiy xulosaga keladi. «Yozuvchining tabiati, unga xos dahoning xarakteri, uning nimalardan ko‘proq ilhomlanishi, ilhomlangan mavzusini qanday ifodalashi - mazkur yozuvchiga xos badiiy til va uslubning individual shaklini belgilaydi... Yozuvchi tili va uslubida ijtimoiy mazmun bilan individual shakl doimo uzviy birlikda yashaydi».

Tadqiqotchi olim o‘zining badiiy til sohasidagi kuzatishlarini «Xalq tili va realistik proza» nomli monografiyasida yanada chuqurlashtirdi. Bu ishda Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Fitrat, Abdulla Qahhor singari taniqli uzbek adiblari nasriy asarlari tilining shakllanishida xalq tilining o‘rni masalasi o‘rganiladi. Shuningdek, bu tadqiqotda uzbek prozaiklari asarlarining tili va uslubi poetika va janr xususiyatlari bilan uzviy bogliq holda yoritiladi. Eng muhimi, ishda badiiy til taraqqiyoti asarlardagi xarakterlar rivoji masalasi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etiladi. Bu o‘rinda olimning «Maysaraning ishi»dagi Mullado‘st, Abdulla Qodiriy asarlaridagi Kalvak Maxzum va Toshpo‘lat tajang, «Tirilgan murda»dagi yalqov Mamajon, Abdulla Qahhor asarlaridagi Bashorat, Saidjalolxon kabi xarakterlarning rivojida ular nutqining o‘rni masalasi ancha asosli ochib berilgan.

Pirimqul Qodirovning badiiy til sohasidagi izlanishlarida «Til va dil» nomli risolasi ham alohida o‘rin tutadi. Bu ishda uzbek tilining sarchashmasi Alisher Navoiy zamonidan boshlab hozirgi uzbek adabiy tilining tadriji va takomili badiiy til rivojiga uzviy bog‘liq ekanligi konkret misollar yordamida tahlil qilingan. Olimning fikricha, «har bir so‘z - hayotdagi konkret bir narsa yoki tushunchani, ifodalaydi. Kishida so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, odam tilni qanchalik chuqur bilsa, uning ichki dunyosi. shunchalik boy bo‘ladi. Har bir xalq o‘zi obod qilgai vodiylar, o‘zi yaratgan shaharu qishloqlar bilan qanday faxrlansa, o‘zi yaratgan til boyliklari bilan xam shunchalik iftixor qiladi. Chushsi har bir shaharu qishloqlar kabi shu xalqning butun tarixi davomida yaratiladi, obod vodiylar kabi asrlar davomida sayqal topadi».

Pirimqul Qodirov o‘tgan asrning 70-yillarida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutining katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi sifatida ikki tomlik «Adabiyot nazariyasi» nomli fundamental tadqiqotning yaratilishida faol ishtirok etdi. Olim bu tadqiqotning «Adabiy asarning tili» «Adabiy-tarixiy jarayon haqida», «Ijod jarayoni» qismlarini yozib berdi. Pirimqul Qodirov tomonidan yozilgan «Adabiy asarning tili» bobi shu kunga qadar badiiy til haqidagi o‘zbek adabiy-nazariy tafakkuri rivojida yirik ish sifatida o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. Bu ishda adabiy asarda badiiy tilning tutgan o‘rni, qahramonlar nutqining individual va tipik xususiyatlari, muallif nutqi va muallif obrazi, nasriy asarlar tilida tasvir vositalari, nasriy asarlar tilining ifoda kuchi va badiiy tahlil vositalari kabi masalalar o‘zining konkret va asosli yechimini topganligi bilan xarakterlidir. Tadqiqotchi badiiy adabiyotning tiliga oid nazariy masalalar juda ko‘pligai chuqur his qiladi hamda o‘z ishida faqat realist proza tilining ayrim jihatlarini tahlil qilish bilan cheklanadi.

Pirimqul Qodirov o‘zining badiiy asar tili masalalariga doyr ilmiy izlanishlarini «Badiiy til muammolari» nomli salmoqli maqolasida davom ettirdi . Muallifning to‘g‘ri ta’kidlashicha, «tirik jonlarning o‘nib-o‘sishi uchun toza havoning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, adabiyotimizning ravnaqi uchun chinakam badiiy tilning ahamiyati ham shunchalik zo‘r» . P.Qodirovning

mulohazasiga ko'ra, badiiy asar tili masalalari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham, tilshunoslik nuqtai nazaridan ham keng va asosli o'rganilishi lozim. Umuman, «badiiy asar tili tahlili hamisha estetik tahlil bilan qo'shib olib borilishi, badiiy til asarning boshqa jihatlari bilan uzviy birlikda tekshirilishi kerak. Bu esa juda mushkul. Hali bu ishning metodikasi ishlab chiqilgan emas» . P.Qodirov haqqoniy ta'kidlaganidek, «badiiy tilni adabiy asar mazmunidan ajratib qo'yish mumkin bo'lmaganidek, uning nazariyasini ham adabiyotshunoslikning umumiy nazariy masalalaridan ajratib tashlash mumkin emas», Hozirgi vaqtda o'zbek tilida yozilgan barcha «Adabiyotshunoslikka kirish»¹ va «Adabiyot nazariyasi»²ga doir darslik hamda qo'llanmalarda asosan Pirimqul Qodirovning ana shu ilmiy tezisiga amal qilib ish tutilmoqda. Yuqori malakali filolog kadrlar tayyorlashda badiiy til muammolarini o'rganishning beqiyos ahamiyatga ega ekanligi nazarda tutib, hatto keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida «Badiiy asar tili va uslubi masalalari» deb nomlangan tanlanma fanlar ham joriy etildi.

Hassos olim P.Qodirov o'zining badiiy til sohasidagi ana shunday qarashlarining ayrim qirralarini shogirdlariga alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida tavsiya etib kelmoqda. Masalan, G.Imomova bevosita Pirimqul Qodirovning ilmiy rahbarligyada»Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nutkning roli» mavzuida nomzodlik ishini himoya qilgan edi. Keyinchalik bu olim «Milliylik va badiiy nutk»;» nomli monografiyasini ham e'lon qildi , bu ishga P.Qodirov «Milliy g'oyaga asoslangan risola» deb nomlanuvchi kirish so'z yozgan. «Ushbu risolaning fazilati shuki, - deb yozadi P.Qodirov, - muallif birinchi navbatda asarlardan olingan matnlarga asoslanib fikr yuritadi, badiiy nutq tahlili va talqini orqali milliy xarakter va tip nimalardan tarkib topishini ishonarli tarzda ko'rsatadi»³.

P.Qodirovning ilmiy merosida «Til va el» deb nomlangan ilmiy badia ham alohida o'rin tutadi Bu ishda ko'zda tutilgan asosiy maqsadni tadqiqotchining o'zi

¹ X.Умуров. Адабиёт назарияси . Тошкент Шарқ матбаа -нашриёти 2005 й

² Т.Бобоев Адабиётшунослик асослари Тошкент. Ўқитувчи нашриёти 2002йил

³ Г. Имомова “Миллийлик ва бадий нутк”. Тошкент. Янги аср авлоди 2004.46бет

quyidagicha izohlaydi: «Bugungi mumtoz adabiyotimizning badiiy tilini xalq ommasiga atroflicha tushuntirib, taxlil va talqin qilib berish bizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardandir. Bir vaqtlar «Til va dil», «Xalq tili va realistik proza» degan ilmiy risolalar yozib, ou borada ozgina tajriba orttirgan edim. Tarixiy romanlar yo:dash jarayonida to‘plangan nafis va teran ma’noli til boyliklari buning ustiga qo‘shildi. Temuriylar davridagi adabiy tilimiz muammolari va ular Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi buyuk siymolar tomonidan qanday hal etilganligi haqida alohida bir kitob yozish niyati paydo bo‘ldi. Mumtoz shoirlarimiz va adiblarimiz asarlarini ko‘pchilik kitobxonlar to‘liq tushunib o‘qishlari uchun ularni olimlik nigoh bilan ko‘rish va adiblik qalami bilan badiiy shaklda talqin qilishga, ya’ni ilmiylik bilan badiiylikni bir-biriga uyg‘unlashtirishga baholi qudrat intildim.

— Ancha yillar avval yozilgan “Xalq tili va realistik proza” nomli tadqiqotimda rang-barang, boy va go‘zal xalq tilining yangi o‘zbek prozasi shakllanishida, xususan, uning XX asr boshidagi realistik tamoyillari qaror topishidagi ahamiyatini ko‘rsatishni maqsad qilgandim. “Til va el”da ona tilimiz, adabiyot, madaniyat, ma’naviyatimiz tarixi haqida fikr yuritib, bu madaniyatni yaratgan buyuk siymolarimiz asarlariga to‘xtalishga, ularning bebaho fazilatlarini ko‘rsatib berishga, Alp Er To‘nga — Afrosiyob, Bilge hoqon, Kultegin, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlarning mumtoz adabiy tilimizni yaratishdagi buyuk xizmatlarini ko‘rsatib berishga harakat qildim. Negaki, “Bilge hoqon va Kultegin” dostoni, “Alp Er to‘nga jangnomasi”, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘atit turk”, Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostoni, Sayfi Saroyining “Guliston bit turki” asari kabi badiiy obidalar, shuningdek, sohibqiron Amir Temur davrigacha yaratilgan ko‘pgina asarlarda o‘zbek mumtoz adabiy tilimiz shakllangan edi. Oltin O‘rdaning adabiy tili ham bizning mumtoz o‘zbek adabiy tilimiz edi. Shunga qaramay, sho‘ro tilshunosligida bu davr adabiy tili “Chig‘atoy tili”, “Oltin O‘rda adabiy tili”, “Chig‘atoy adabiyoti” kabi qandaydir siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan, ilmiylikdan yiroq iboralar bilan atalib kelgan edi. Men bir adib va olim

sifatida “Til va el” kitobimda ana shu haqiqatni isbotlashga harakat qildim. Endilikda “Chig‘atoy tili” yoxud “Chig‘atoy adabiyoti” kabi iboralar o‘rniga o‘zbek mumtoz adabiy tili va o‘zbek mumtoz adabiyoti atamalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Istiqlolimizning sharofati, istiqlol bergan katta imkoniyatlar biz ijodkorlarni mana shu kabi ma’naviy qadriyatlarimizni tiklashga ilhomlantirdi. Bu katta imkoniyat bizni xalqimizning ongu tafakkurini ko‘tarish, ona tilimizni, xalqimizning badiiy tafakkurini rivojlantirish, ma’naviyatni yuksaltirishga ilhomlantirishi zarur, deb o‘ylayman.¹ Ana shu intilish mevasi sifatida yuzaga kelgan bu ilmiy badiia O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan na texnologiyalar markazi ko‘magi bilan chiroyli muqovada ko‘p ming nusxada nashr etildi hamda tilimiz tarixi elimizning tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda qiziqarli shaklda yoritilgan bu kitob kitobxonlarning sevimli asari bo‘lib qoldi. Bu asar haqida matbuotda juda ko‘plab taqrizlar e‘lon qilindi.

Xullas, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov keyingi oltmish yil davomida badiiy ijodni badiiy asar gilineing hassos tadqiqotchisi sifatidagi samarali faoliyati bilan qo‘shib olib bormoqda. Mamlakatimizda badiiy nutq nazariyasining rivoji va taomilida P.Qodirovning bu mavzuga oid risola va monografiyalari, ilmiy maqolalarining o‘rni beqiyosdir.

O‘zbek adabiyotshunosligida atoqli san’atkorlarimizning adabiy-estetik qarashlarining o‘zida mujassamlantirgan badiialari “Yozuvchi va davr”, “Adabiy o‘ylar” turkumlarida ko‘plab nashr etilmoqda. Bu turkumdagi nashrlarda yirik san’atkorlarimizning shaxsiyati, ijodiy tabiati, badiiy adabiyoti va adabiy mehnat qahidagi, adabiy jarayon hamda milliy madaniyatimiz xazinasini boyitgan barkamol asarlarning ijodiy g‘oya sifatidagi tug‘ilishi, yozilishi jarayoni, ijtimoiy-estetik ta’sir kuchi bilan bog‘liq g‘oyat qimmatli fikr-o‘ylari keng o‘rin oladi. Bu kabi hodisalar o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida alohida bir yorqin sahifani tashkil etadi.

¹ Қодиров П. Тил ва эл. Илмий бадиа-Тошкент; Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2005.-248б.

Ushbu hodisa kecha yoki bugun dabdurstdan yuzaga kelgan emas. Uning ildizlari ming yillik adabiyotimiz tarixiga borib tushadi, undan hayot suvini ichadi. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligining bugungi kamolida Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat va boshqa klassiklarimizning nafis adabiyotga, shoir mehnatiga doir zamondosh shoirlari she'riyatining o'ziga xos qirralari xususidagi mushohadalari zalvorli zamin bo'lib xizmat qildi. Shu ma'noda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Hamza, Abdulla Avloniy, G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Usmon Nosir singari san'atkorlarimizning adabiy-estetik qarashlarini, o'zida mujassamlashtirgan tadqiqotlari, maqolalari adabiyotimiz ilmini yangi sifat bosqichiga ko'tardi.

Adiblar hayoti va ijodida shunday bir bosqich bo'ladiki, ijodiy faoliyatining muayyan bir davrida bosib o'tilgan yo'lga, davr va odamlarga, tengqurlari, shogirdalir suxbatiga, ustozlari saboqlariga va nihoyat o'z tajribalariga ham bir razm solishni, o'z "meni" orqali ko'rgan kechirganlariga xolis baho berishni taqozo qiladi. Ana shu estetik baho ijodkorlarning individual ijodiy qiyofasini, betakror shaxsiyatini namoyon etadi. Shu bilan barobar, uning o'z zamonasining, halqining dardlari bilan nechog'li hamnafas yashaganligini ham ko'rsatadi.

Shu jihatdan agar adibimizning "Adabiy o'ylar" hamda "Yozuvchi va davr" turkumlarida e'lon qilgan maqolalaridagi fikr-mulohazalari tadrijiga nazar tashlasak, adabiy qahramon va zamon ruhini ijodbiy qahramon kim va u qanday kishi bo'lishi kerakligini badiiy adabiyot zimmasida nechog'lik salmoqli ijtimoiy hamda ma'naviy-ahloqiy masalalar turganligini, ushbu talab va vazifalar xalqimiz hayotining har bir ijtimoiy bosqichlarida yangi sifat belgilarida zuhur topganligini va har bir davrga yangi-yangi mazmun ila boyib borganligini kuzatishimiz mumkin.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ijodkorlarning badiolari fikr bilan hissiy idrokning ko'rkam omuxtaligini tashkil etadi. Zotan, badiia janrining badiiyligini ta'minlagan asosiy xususiyatlardan biri uning hissiy tafakkur teranligidanamoyon bo'ladi.

Yozuvchi Pirimqul Qodirov badialarining markazida ijodkorning qat'iy va aniq nuqtai nazari turadi. YA'ni, ijodkorning ilmiy bilim darajasi badialarning bosh qahramoni vazifasini ham o'taydi. Pirimqul Qodirovning muayyan faoliyati badialarining o'ziga xosligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xo'sh, ana shu o'ziga xoslik qanday belgilarda ko'rinadi.

Pirimqul Qodirov badialarida yolg'iz muallif individualligining muhri hisoblangan fikr irodasidagi jo'shqin kechinmalar o'quvchini rom etadi. Bu hol adibning aniq nuqtai nazari bilan izohlanadi. Ma'lumki, har bir adibning hayotni, odamlar odamlar qalbini ko'ra oladigan, kuzata biladigan maxsus ko'zoynagi bor (Abdulla Qahhor). Bu narsa adibning voqelikka va odamlar qalbiga nazar tashlaydigan san'atkorlik nigohi, ma'naviyati ko'zgusi aks etgan manzaralar jilvasidir. Ana shu ruhiyat manzaralarining tafakkur ko'zgusida aks etgan ko'rinishlari esselarni, badiiy etyudlarni, fikr-o'ylar silasini tashkil etadi.

Xususan adibning hayot va voqelikka, odamlarning qalb tarixiga yondoshish o'laroq falsafiy xulosalar chiqarishga moyillik Asqad Muxtor badialaridagi fikriy teranlikni ta'minlagan asosiy omil bo'lsa, kechinmali mushohadalar asosiga qurilgan tafakkur Pirimqul Qodirov badialarining keng o'quvchilarga manzur qilgan asosiy fazilatlaridandir.

Shu jihatdan Pirimqul Qodirovni "Til va shaxsiy uslub" badiasiga murojaat etishimiz mumkin. "har bir yozuvchining hayotiy tadribasi, o'ziga xos ichki dunyosi, voqelikka qanday ko'z bilan qarashi, fe'l atvori uni nimalarni yozganida emas, qanday uslub bilan yozganida ko'rinadi. Katta romanlarda har xil xarakterlar tasvirlanadi, turli voqealar ko'z oldimizdan o'tadi. Bularning hammasini ichdan birlashtirib, yaxlit bir asar qilib turgan narsalar – yagona g'oya, syujet, kompozitsiya, konflikt, va hokazolargina emas, g'oya ham, syujet, kompozitsiya va konflikt ham hammasi yozuvchining ichki dunyosida bir-biriga payvand bo'lib yaxlitlashadi. Shu sababli, adabiyot nimaligini yaxshi biladigan kishilar yangi asarni qo'lga olganlarida undan faqat hayot tasvirinigina emas, muallifning o'zini ham qidiradilar".

II.2. OLIMNING “ ADABIY O‘YLAR”, “AMIR TEMUR SIYMOSI” ASARLARIDA ILMIYLIK VA BADIYLIKNING UYG‘UNLASHUVI

Oltmishinchi yillarning o‘rtalarida gazeta va jurnal sahifalarida Pirimqul Qodirovning “Adabiy o‘ylar”¹ deb nomlangan badiialari e‘lon qilina boshlagan paytlar. Rostini aytish kerak, adibning o‘ylari – nozik kuzatishlari, adayuiy mushohadalarining teranligi, mulohazalarining sermazmunligi bilan hech mubolahasiz aytish mumkinki, birdaniga adabiy jamoatchilikning diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortdi.

Adib “Adabiy o‘ylar” badiasiga murojaat qilishning sababini asoslab, “bu – mohirlikning natijasi emas, mahoratga bo‘lgan ehtiyojning natijasidir” deb yozadi. Hech kimga sir emaski, san’atkor yozuvchilar ayni bir zamonda iste’dodli munaqqid ham bo‘lganlar. Badiiy ijod sirlari, mahoratning o‘ziga xos qirralari xususida har bir adib o‘ziga xos saviya bilan fikr yuritishi aniq. Pirimqul Qodirov ham o‘zining adabiy o‘ylarida bir qarashda go‘yo barchaga ayon haqiqatlar xususida so‘z yuritadi. Lekin adib tilga olgan haqiqatlar: hayotiy va adabiy bilim, haqiqiy talant, qahramon muammosi, adabiy til masalalari bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas.

“Adabiy o‘ylar” badiasi Pirimqul Qodirovni zakiy munaqqid sifatida qadrini oshirdi. Vaholanki, “Adabiy o‘ylar” e‘lon qilinguniga qadar ham Pirimqul Qodirov Abdulla Qahhorning Ulug‘ Vatan urushidan so‘nggi yillar ijodi mavzuida dissertatsiya himoya qilgan, adib asarlarining 3 tomliligiga chiroyli so‘z boshi yozgan va maqolalar, taqrizlar e‘lon qilgan, nihoyat o‘tkir ruhi bilan sug‘orilgan qator publitsistik maqolalar muallifi sifatida ham tanilgan edi.

Pirimqul Qodirovning o‘zi ta’kidlab aytganidek: “Oddiy suhbatdoshingiz ham sizdan maroqli yangiliklar, fikr uyg‘otuvchi va zavq beruvchi asl gaplar kutadi. Shusiz anchayin suhbat ham dilkash bo‘lmaydi-yu, ma’lum narsalarni

¹Шомансур Юсуф. Адиб ўйлари: [Ёзувчи П. Қодировнинг “Ўйлар” номли китоби ҳақида] //Гулистон.-1972.-№9.

takrorlaydigan va kitobxonni o'z ichiga olib kirib ketolmaydigan asar qanday dilkash bo'lsin!

Asarni qiziqarli qiladigan eng zo'r vosita – uning mavzui va g'oyasi ham, qahramonlari va syujeti ham, badiiy to'qimasi va uslubi ham o'ziga xos bo'lishi va mug'im bir yangilik bera olishidir". "Adabiy o'ylar"ni o'qir ekansiz, avvalo adibning o'z ijodiy tajribasidan kelib chiqadigan prinsiplarni himoya qilayotganini sezib olasiz. Yozuvchi hayotni o'rgangan vaqtida, uning hali hech kim tasvirlamagan muhim va yangi tomonlarini topishi kerak. Faqat buning uchun u adabiyotni ham juda yaxshi bilmog'i lozim. Chunki adabiyotga hayotning nimalari kirgan, nimalari kirmaganidan to'liq xabardor bo'lmagan odam "yangidan arava ixtiro qilaman" deb, behuda ovora bo'lishi ham mumkin".

Ma'lumki, ko'pincha ijodkorning tanqidiy tafakkuri qanchalik teran va chuqur bo'lsa, uning adabiy iste'dodi ham shu qadar kuchli bo'ladi.

"Tanqidchilik iqtidori imkoniyat tarzida bo'lsa ham har bir yozuvchida, albatta, bor, - deb yozadi Pirimqul Qodirov tanqidchi U.Normatov bilan qilgan suhbatida. – Lev Tolstoyning mashhur gapini yana bir eslagim keladi: "Men ishlayotganimda, yarmim yozuvchi bo'lib asar yozsa, yarmim tanqidchi bo'lib, bu asarning qanday chiqayotganini aytib turadi. Kechasi ishlamayman, chunki tunda dilimdagi tanqidchi "uxlab" qoladi. Haqiqiy yozuvchi dilidagi tanqidchining hamisha uyg'oq bo'lishini istaydi. Busiz adabiyotning hali zabt etilmagan baland cho'qqilariga ko'tarilib bo'lmaydi. Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda – hammalari yozuvchi bo'lishdan tashqari, adabiyotimizning haqiqiy zarshunoslari ham bo'lganlari, tomtom adabiy-tanqidiy maqolalar va ilmiy ishlar yaratib qoldirganlari ko'pchilikka ma'lum.

Men o'zimning kichkina tajribamdan shuni bilamanki, ilmiy ish qilib bo'lib, badiiy ijodga qaytganda aql-idroki go'yo qayrilib, avvalgidan o'tkirroq bo'lib qoladi. Badiiy asarning zamiridan chiqib kelib ilmiy ish qilganda esa, ijod jarayonining hali ochilmagan sirlari ichdan ravshanroq ko'rinayotgandek tuyuladi. Lekin: "Ikki qayiqning boshini tutgan g'arq bo'ladi", degan maqol ham esga tushib

turadi. Shu sababli badiiy ijod bilan fan va tanqidchilikning har biri o‘z yelkani yordamida suzib borayotgan mustaqil kemalar ekanini hech qachon unutmaslikka tirishaman”.

Pirimqul Qodirov “ilmiy ish qilib bo‘lib, badiiy ijodga qaytganda aql-idroki qayralib, avvalgidan o‘tkirroq bo‘lib qolishi”ni o‘z ijodida necha bor sinab ko‘rgan adiblardan. Yozuvchi “Adabiy o‘ylar” badiasi va qator tanqidiy maqolalaridan so‘ng “Erk” qissasi va “Qora ko‘zlar” romanini yaratdi. “Xalq tili va realistik proza” deb nomlangan uzoq yillik ilmiy tadqiqotidan keyin “Olmos kamar” va “Yulduzli tunlar”ni yozdi.

Pirimqul Qodirov “Xalq tili va realistik proza” deb nomlangan ilmiy tadqiqoti ustida uzoq yillardan beri tinimsiz ish olib bordi. Rostini aytish kerak, so‘nggi oltmish yil ichida o‘zbek sovet adabiyotining g‘oyaviy mazmuni ham, tasviriy vositalari ham, badiiy tili ham katta sifat o‘zgarishlarini boshidan kechirdi. Adibning o‘zi ta’kidlaganidek: “bu murakkab va ko‘pqirrali jarayonni tadqiq etish, uning ichki mexanizmini ochish adabiyotimizning ham, adabiy tilimizning ham bundan keyingi taraqqiyoti uchun juda zarur”.

Jonli xalq tili bilan adabiy tilning aloqasini o‘rganish yozuvchining ijodida ham o‘z aksini topmoqda. Bu fazilat Pirimqul Qodirov asarlarining syujeti qurilishida, dramatik holatlar asosiga qurilgan konfliktida, qahramonlar dunyosining ruhiy tahlilida o‘z ifodasini topgan.

Ijodkorlik tabiati ilm olamida turfa tavsifu ta’riflarga ega bo‘ldi. Zamonlar o‘tdi – ijodkorni ilohiylashtirib, payg‘ambar darajasiga ko‘tardi: zamonlar bo‘ldi – haq yo‘lidan ozdiruvchi kufr atab, ne-ne malomatlar yog‘dirishdi. Birda uni avliyo atashsa, birda Ollohga shak keltirgan inson bilib, quvg‘inlikka duchor etdi. Qo‘yingki, har bir davr ijodkorga, ijodga nisbatan o‘z qarashlarini ustivor tutishga intildi.

Baribir, u o‘z zamonasining kuyinchak zurriyoti bo‘lib, el g‘amida, haq yo‘lida ijodkorlikni yashash tarzi deb bildi. Uning mashaqqatli, holdan toydiradigan mehnat ekanligini his etgan holda “yozmasdan turolmayman, shuning

uchun yozaman” deya goho hayotini zamona, uning tartibotlari bilan bellashuvda o‘tkazdi...

Qaniydikim, “yozmasdan turolmaslik” holati qo‘lga qalam olgandan yuz bera qolsa. Balkim bunda Abdulla Qodiriy “Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko‘p, go‘yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar”, demagan yoki Abdulla Qahhor “Ko‘pchilik kabi men ham to “yozuvchilik” nimaligini... tushunib yetmaguningga qadar ancha ovora bo‘lganman” deb yozmagan bo‘larmidi.

Ha, ijodkorlik birgina tug‘ma iste’dod bilan cheklanmas ekan. Iste’dod ijodiy mehnatga tashnalik, “yozmasdan turolmaslik” holatiga yetish yo‘lidagi zaruriy fazilatlarining kamol topishi uchun o‘ziga quvvat va ilhom manbai.

Xo‘sh ijodkorga ilhom ya’ni ijod jarayon qayerdan boshlanadi?

Bu haqda yozuvchi Pirimqul Qodirov qo‘yidagicha fikrlaydi.

“ – Albatta yozuvchilar har xil bo‘lganidek, ulardagi ijod jarayoni ham turli xil bo‘ladi...”. Yozuvchining hayotiy, o‘tkir fantaziyasi, olijanob intilishlari – barchasi yangi asar rejasi tug‘ilmasdan oldin xuddi har biri o‘z kolbasida sokin turgan kimyoviy moddalarga o‘xshab – potentsiya tarzida turadi. Ulardagi o‘zgarishlar – miqdoriy o‘zgarish tarzida tinch davom etaveradi.

Yozuvchi doim izlanishda bo‘ladi. Miqdoriy o‘zgarishlar ko‘payib, sifat o‘zgarishi bo‘lag‘asiga borib qoladi. Shunday paytda yozuvchini uyquda ko‘rgan tushmi yoki qandaydir iroda kuchi ifodalanadi. Bu narsa portretga “jon kirgizadi”, “jilvalanadi” so‘zi “doimiy” so‘zi bilan bir-biriga hamohang tarzda uyg‘unlashib, portretni “harakatga” keltiradi. Shoirning yuzida aks etib turgan horg‘inlik ham qandaydir odamga og‘ir botuvchi, uni ezuvchi emas, balki o‘ziga yarashgan, go‘zal yengil horg‘inlikdir.

Oybek so‘zlarni tanlab ishlatadi. Portret tasvirida ham sallaga ko‘rkamgina, barmoqga pishiq, nafis, miyiqqa xushbichim, ko‘zga qiyg‘och, horg‘inlikka yengil, yuzga nisbatan esa go‘zal sifatlarini qo‘llaydi. Bularning barchasi arziyas narsadek tuyulsada, obrazni xarakterlovchi asosiy qirralarni ochishga xizmat qilgan muhim unsurlar sanaladi.

Yozuvchi obraz yaratar ekan, qahramonning mayda qusurlarigacha tasvirlashga harakat qiladi. Ba’zida adib shunday unsurlar ishlatadiki, ular qahramonning o’ziga xos tomonlari, xarakteridagi muhim qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. Oybek Navoiy portretini chizganda egnida ichidan odmi shohi to’n, ustidan yalang qo’ng’ir movut chakman, barmoqlari uzun va nafis deb tasvirlab o’tadi.

Yozuvchining tabiati, unga xos dahoning xakteri, uning nimalardan ko’proq ilhomlanishi, ilhomlangan mavzusini qanday ifodalash – mazkur yozuvchiga xos badiiy til va uslubning individual shaklini belgilaydi.

Adabiyotda kechayotgan sifat o’zgarishlar, ijodkorlarni ijod bilan barobar ilmiy salohiyatlarining kengayishi, hamda obraz yaratishda turli uslubda foydalanishayotgani, qahramonlarni erkin tasvirlashni his etayotganliklaridan dalolat beradi.

Pirimqul Qodirovning adabiyotshunoslik faoliyatidagi tadqiqotchi – mutafakkirlik yo’nalishiga yozuvchilik mahorati alohida nur bag’ishlab turadi: ijodiy jarayonlarni, adabiyotning rivojlanish bosqichini, ijod ruhiyati, badiiy til muammolari, badiiy mahorat singari masalalarda doimo yangi-yangi kuzatishlarga boy bo’lgan umumlashma xulosa-fikrlar aytishga adoqsiz ta’sir ko’rsatadi. YA’ni ilmiy-nazariy mulohazalarda pirimqul Qodirovning shaxsiy badiiy tajribasi katta o’rin egallaydi. Agar uning ilmiy-tadqiqotchiligi yozuvchi mutafakkirligiga estetik yo’nalish bag’ishlab tursa, badiiy tajribalari esa obrazlar hayotiga chuqurroq kirishda, badiiy obrazlar zimmasiga yuklangan ijtimoiy mazmun mohiyatini anglashda ochqich vazifasini o’taydi.

Pirimqul Qodirov o’z ijodiy tajribasida “hayotni o’rganish degan so’z, avvalo, odamlarni va ularning ichki dunyolarini o’rganish degan so’zdir” degan aqidani dastur qilib oladi. “Uch ildiz”, “Qora ko’zlar”, “Qadrim”, “Yulduzli tunlar” singari nasrimiz taraqqiyotida salmoqli o’rin tutgan badiiy polotnolardagi qahramonlar galeriyasiga nazar tashlar ekanmiz, “dunyoda bir-biriga mutlaqo o’xshash ikkita yaproq bo’lmaganiday, bir-birining hayotini va ichki dunyosini aynan takrorlamaydigan” (P.Qodirov) badiiy obrazlar qator fazilatlari va jozibali

ichki dunyosi ila bizni jalb etadi. Shu boisdan ham adib o‘z asarlari badiiyligining eng muhim shartli, bu – qahramonlarining ichki dunyosini chuqur ocha bilishlikda, kitobxonga takrorlanmas bir zavq, yangi bir hayotiy tajriba va unitilmas taassurotlar berishlikda deb biladi: bu xususiyatlarni ijodining bosh prinsipi darajasiga ko‘taradi. Adib mazkur omillar asosida badiiy asarlarni estetik baholashga ham, keng kitobxonlar ommasining badiiy didini yanada o‘stirishga ham intiladi.

Oltmishinchi yillarning o‘rtalari gazeta va jurnallar sahifalarida Pirimqul Qodirovning “Adabiy o‘ylar” deb nomlangan badialari e‘lon qilina boshlagan paytlar. Rostini aytish kerak, adibning o‘ylari –nozik kuzatishlari, adabiy mushohadalarining teranligi, mulohazalarining sermazmunligi bilan hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, birdaniga adabiy jamoatchilikning diqqat e‘tiborini o‘ziga oladi.

Adib “Adabiy o‘ylar badiyasiga murojaat qilishning sababini asoslab, bu mohirlikning natijasi emas, mahoratga bo‘lgan ehtiyojning natijasidir” deb yozadi. Hech kimga sir emaski san‘atkor yozuvchilar ayni bir zamonda iste’dodli munaqqid ham bo‘lganlar. Badiiy ijod sirlari, mahoratning o‘ziga xos qirralari xususida har bir adib o‘ziga xos saviya bilan fikr yuritishi aniq. Pirimqul Qodirov ham o‘zining adabiy o‘ylarida bir qarashda go‘yo barchaga ayon haqiqatlar xususida so‘z yuritadi. Lekin adib tilga olgan haqiqatlar: hayotiy va adabiy bilim, haqiqiy mahorat, qahramon muammosi, adabiy til masalalari bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas.

“Adabiy o‘ylar” badiyasi Pirimqul Qodirovni zakiy munaqqid sifatida qadrini oshirdi. Vaholanki, “Adabiy o‘ylar” e‘lon qilinguniga qadar ham Pirimqul Qodirov Abdulla Qahhorning ulug‘ vatan urushidan so‘nggi yillar ijodi mavzuida dissertatsiya himoya qilgan, adib asarlarining 3 tomligiga chiroyli so‘z boshi yozgan va maqolalar, taqrizlar e‘lon qilgan tanqidchi-olim sifatida tanilgan edi.

Pirimqul Qodirovni o‘zi ta’kidlab o‘tganidek “Asarni qiziqarli qiladigan eng zo‘r vosita uning mavzui va g‘oyasi ham, qahramonlari va syujeti ham, badiiy to‘qimasi va uslubi ham o‘ziga xos bo‘lishi va muhim bir yangilik bera olishidir”.

“Adabiy o‘ylar”ni o‘qir ekansiz, avvalo adibning o‘z ijodiy tajribasidan kelib chiqadigan jihatlarni himoya qilayotganini sezib qolasiz. Yozuvchi hayotni o‘rgangan vaqtida uni hali hech kim tasvirlamagan muhim va yangi tomonlarini topishi kerak.

Ma’lumki, ko‘pincha ijodkorning tanqidiy tafakkuri qanchalik teran va chuqur bo‘lsa, uning adabiy iste’dodi ham shu qadar kuchli bo‘ladi.

“Tanqidchilik iqtidori mikoniyat tarzida bo‘lsa ham har bir yozuvchida albatta bor, - deb yozadi Pirmqul Qodirov tanqidchi U.Normatov bilan qilgan suhbatida – Lev Tolstoyning mashhur gapini yana bir eslagim keladi. “Men ishlayotganimda, yarmim yozuvchi bo‘lib asar yozsa, yarmim tanqidchi bo‘lib, bu asarning qanday chiqayotganini aytib turadi. Kechasi ishlamayman, chunki tunda dilimdagi tanqidchi “uxlab” qoladi. Haqiqiy yozuvchi dilidagi tanqidchining hamisha uyg‘oq bo‘lishini istaydi. Busiz adabiyotning hali zabt etilmagan baland cho‘qqilariga ko‘tarilib bo‘lmaydi. Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘aqr G‘ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, maqsud Shayxzoda – hammalari yozuvchi bo‘lishdan tashqari, adabiyotimizning haqiqiy zarshunoslari bo‘lganlari, tom-tom adabiy-tanqidiy maqolalar va ilmiy ishlar yaratib qoldirganlari ko‘pqilikka ayon.

Men o‘zimning kichgina tajribamdan shuni bilamanki, ilmiy ish qilib bo‘lib, badiiy ijodga qaytganda aql idroki go‘yo qayralib, avvalgidan o‘tkirroq bo‘lib qoladi. Badiiy asarning zamiridan chiqib kelib ilmiy qilganda esa, ijod jarayonining hali ochilmagan sirlari ichdan ravshanroq ko‘rinayotgandek tuyuladi.

Pirmqul Qodirov “Xalq tili va realistik proza” deb nomlangan ilmiy tadqiqoti ustida uzoq yillar tinimsiz ish olib bordi. Adibning o‘zi ta’kidlaganidek “bu murakkab va ko‘p qirrali jarayonni tadqiq etish uning ichki sirlarini ochish adabiyotimizning ham, adabiy tilimizning ham bundan keyingi taraqqiyoti uchun juda zarur”.

Jonli xalq tili bilan adabiy tilning aloqasini o‘rganish yozuvchining ijodida ham o‘z aksini topmoqda.

Pirmqul Qodirov bu ilmiy kitobida uslub haqida alohida to‘xtaladi. “Uslub adibning mutaxassislik layoqati va ijodiy tajribasidan bino bo‘ladi. Yozuvchi

malaka hosil qilganda uslub ham o‘z-o‘zidan tug‘iladi”. Shuning uchun uslub, har bir qalamkash qiyofasini yaratuvchi yakka-yagona ijodiy ko‘rsatkich sanaladi.

Hammaga ayonki, to‘g‘ri topilgan, o‘rnida ishlatilgan so‘z asarga jon bag‘ishlaydi, unga harorat, rang, ohang kiritadi.

Yozuvchi so‘zga juda ta’sirchan xalq so‘z adib hissiy olamini: hayotiy-ijodiy tarjimai holini mohirona uyg‘unlashtirib, qalamni to‘g‘ri tebratish qobiliyatini namoyish qiluvchi vosita.

Pirimqul Qodirov asarlarining tili turfaligini ko‘rsatuvchi jihat tafakkurning adabiy fikrlash qobiliyatini namoyish qiluvchi badiiylikdan yaraladi. Badiiylik quruq, sovuq so‘zga jon bag‘ishlab, uni ilitadi. Bu haqda munaqqidning o‘zi shunday deydi “G‘oya bilan tuyg‘u... faqat badiiy til materialida, aniq va obrazli so‘zlar vositasida uyg‘unlashishi mumkin”.

Uslub yaratishda xizmat qiluvchi badiiy nutq asar hayotiga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi

Pirimqul Qodirovning ilmiy, adabiy-tanqidiy faoliyati doirasi keng, lekin u ko‘proq badiiy asar tili, yozuvchi mahorati muammolarini o‘rganadi. Olimning “O‘ylar” kitobiga kirgan talay qaydlari, “Dil va til”, “Xalq tili va realistik proza” tadqiqotlari shundan dalolat beradi. Adib davlat va jamoat arbobi sifatida ham tanilgan. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati, Respublika Oliy Majlisi deputati sifatida istiqlol yo‘lida ko‘p xayrli ishlarni olib bordi. 1988 yil Pirimqul Qodirov O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo‘ldi. So‘nggi yillarda Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani, “Amir Temur siymosi” ilmiy-tarixiy asarlari kitobxonlarga havola etildi. So‘nggi o‘n yil davomida yozilgan “Ona lochin vidosi” romanida Amir Temurning suyukli o‘g‘li Shohruh va kelini Gavharshodbegim bilan bog‘liq voqealar qalamga olingan. Asardagi Ulug‘bek Mirzo, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning yoshlik davridagi jasorat va iste’dodlari ham kitobxonlarda yorqin taassurot qoldiradi.

Uning “Amir Temur siymosi” asarini 2007 yil o‘qishga muyassar bo‘ldik. Adib Sohibqironning yoshlik va o‘smirlik yillari tasvirida Amir Temurni buyuk jahongirlik rutbasiga erishuvi bejiz emasligiga ahamiyat qaratib, uning kitob

mutolaasini sevishini, allomalarni juda hurmat qilishini asoslovchi ko'pgina tarixiy manbalarga murojaat etadi.

Pirimqul Qodirov bu asarida faqat adib emas, ayni choqda zukko tarixnavis ekanligini ham namoyon etadi. U Shomiy va Yazdiy "Zafarnoma"larini "Temur tuzuklari"ga qiyosan o'rganib, A.Temur hayotining o'ta mas'uliyatli burilish pallasi, Shomiy tomonidan bir o'rinda butunlay teskari bayon qilinganini aniqlaydi. Shomiy "Zafarnoma"sidan keyin yozilgan Yazdiy "Zafarnomasi"da ham Temurbekning xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilgani va To'g'luq Temurxon uni o'linga buyurgani mutlaqo ko'rsatilmagan", deb yozadi adib. Yozuvchining mahorati shundaki, Temurbekning saltanat boshiga kelishiga qadar bo'lgan hal qiluvchi janglar tafsilotini bir yo'la bir necha manbadagi tarixiy dalillar asosida xolis bayon etib beradi. Shu tariqa, kitobxon ko'z o'ngida Sohibqiron hayotining to'liq manzarasini gavdalantirib beradi. Pirimqul Qodirovning ushbu asari, garchi ilmiy-badia tarzida berilgan bo'lsa-da, uning har sahifasida buyuk Sohibqironning tafakkur dunyosi, qalb tebranishlari, mehr-muhabbati va iztiroblari, qahr-g'azabini his etib turasiz. Badia xuddi go'zal badiiy asar singari o'qiladi. Tarix sahnasida harakat qilayotgan buyuk insonning orzu-havaslari, halolligu tantiligi, mard inson sifatidagi himmatlaridan shodlanib, yovuz kimsalar xiyonatiga duch kelganda, u bilan birga iztirob chekasiz.

Amir Temur jahon tarixi sahnasiga ko'tarilib, ellar-yurtlarga tanilibdiki, u haqda yuzlab, minglab ilmiy, xotira, badiiy asarlar yaratildi. Kechagina, SHo'ro davrida Ulug' sohibqironni savodsizdan savodsizga, bosqinchidan bos-qinchiga, qilichidan qon tomgan zolimdan zolimga chiqarib malomat qilganlar ozmuncha edimi?! Jahon adabiyoti, san'-ati, tarixida Amir Temur siymosi ne-ne alfozda ko'rsa-tilmadi? Mustaqillikdan keyin Ulug' bobomizni alqab, maq-tab yozilgan qasidayu dostonlar, nasriy asarlar urchib ketdi. Amir Temurning asl mohiyatini, insoniyat tarixidagi o'rnini haqqoniy ko'rsatib beradigan ilmiy, badiiy asarga ehtiyoj kuchli edi. Uzbek adabiyotida Buyuk Temur haqida bir nechta jiddiy asarlar yaratildi. Pirimqul Qodirov badiiy, tarixiy temo'rshunoslikka o'zining munosib hissasini ko'shdi. Ustoz Pirimqul Qodirov Amir Temur haqida yuzlab

asar-larni sinchiklab o'rgandi, talqin qildi, baholadi. U Ulug' Temur haqida olmosday tiniq haqiqatni ifodalagan olim-larga o'zi, xalqi nomidan ta'zim qildi. Buyuk bobomizni atayin mazamat qilgan, u haqda soxta uydirmalarni aytgan zotlarga tegishli javobni qaytardi. Aslida-ku, Amir Temuriy XXI asrda ulug'lar, buyuklar qatoriga muhtaram yurt-boshimiz, Prezidentimiz qayta ko'tardi. Pirimqul Qodirov tajribali san'atkor, olim, ko'pni ko'rgan-bilgan siymo sifatida Amir Temur haqida o'z so'zini aytdi. — «Amir Temur siymosi»ni ilmiy badia ko'rinishida namoyon etdi. Bu asar haqida gap aytish uchun kishida ma'naviy-ruhiy-ilmiy huquq bo'lishi kerak. «Amir Temur siymosi» toifasidagi asarlar haqida yozish katta mas'uliyatni, grajdan sifatidagi burchni taqozo qiladi. Afsuski, bu asar haqida chala-chulpa, yuzaki, ermak tarzida bitilgan taqrizlar paydo bo'lyapti.

«Amir Temur siymosi»¹ asaridagi ilmiy o'zan badiiy talqinga qo'shiladi: yaxlit ilmiy-badiiy yo'sinni vujudga keltiradi. P. Qodirov ilmiy tahlil, badiiy talqinda ham jonli, harakatchan insonlar faoliyatini, fitratini asos, tayanch qilib oladi.

Amir Temur deganda aksariyat kishilar bir qo'lida qilich o'ynatib, ikkinchi qo'lida uchqur oti jilovini tutgan, butun ko'rinishidan qat'iyat, jasorat sezilib turgan lashkarbo-shini tasavvur qiladilar. Vaholanki, Amir Temur nozik qalbli, tiniq aqlli, teran mushohada yurituvchi INSON bo'lgan. U yakkayu yolg'iz egachisi Qutlug' Turkonni yeru ko'kka ishonmagan, farzandlaripi otalik mehri bilan suygan. Yigirma yoshli Jahongir Mirzo vafot etganida ngashqator yosh to'kkan, kelini Sevinch bekaga: «Endi sen kelinim emassan, bolamsan», degan. Olamni titratgan Buyuk Temur donishmand, suyukli xotini Saroymulkxonimni o'ta e'zozlagan, sadoqati, hamfikrligini yuksak qadrlagan. Temur keskin, bir so'zli shoh bo'lgan: amiru amaldorlari unga tik qaramagan. Ayni vaqtda biror jiddiy ishga qo'l ursa, ulug'lar maslahatiga quloq solgan, har bir ishi rejali, puxta bo'lgan, tavakkal qilib jangu jadalni boshlamagan. Uning o'zigagina xos sar-kardalik uslubi, jang qilish yo'rig'i, tartiboti bo'lgan. Amir

¹ П.Қодиров. Амир Темур сиймоси .Т. Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2007й

Temur amirlarini qattiq tergagan, ular doim o‘ylab, o‘ng-so‘lga qarab ish yuritganlar. Amirlar orasida Sohibqiron-ni xushlamaydigan, uni ro‘yirot yomon ko‘rganlar ham bo‘lgan. Zandchashm Opardiy, Amir Muso, Malik Mahmud, Boyazid Jaloyir, Amir Kayxusrav, Muhammad Mirak singarilar xiyonat ustiga xiyonat, munofiqlik uzra munofiqlik qilganlar. Bosh yorilsa bo‘rk ichida deganlariday, Amir Temur ala-mini ichiga yutdi, murosai madora yo‘lini tutishdan o‘zga chora topolmadi. Surbet, makkor Amir Muso haddidan oshib ketgach, Amir Temur uni jazolashga qasd qildi. Taqdir o‘yinini qarangki, Saroymulkxonim xolavachchasi Amir Muso gunohidan kechishni iltimos qilib turibdi. Amir Temur nafaqat bezbet Musoni kechirdi, balki u bilan quda bo‘lib qoldi. Kuyovi Muhammad Mirak ko‘r-ko‘rona sotqinlik, xiyonat qilganida, donishmand Temur yuz yoqni o‘ylab g‘azabga erk bermadi. Husayn So‘fi, Yusuf So‘fi, Sulaymon So‘filar Oltin O‘rdaga nihoyatda suyanar, shu bois Ulug‘ Temurni nazar-pisand qilmasdilar. Oradagi sovuqchiliklarni bartaraf etish maqsadida Amir Temur Oq So‘fi bilan quda bo‘ldi, Jahongir Mirzoga Sevinch bekani olib berdi.

Amir Temur mard bo‘lgan, o‘zgalarni ham shunday deb bilgan. Lafzsizlik unga tamoman yot etdi. Amir Husayn, To‘xtamish, Qamariddinlar necha bor Temur oldida tiz buk-kanlar, bundan keyin munofiqlik, lafzsizlik qilmaslik-ka ont ichganlar. Ammo ular zinhor xiyonat, bevafoqlikdan voz kechmaganlar. To‘xtamishning nufuzli vazirlaridan Edigey o‘z xo‘jasiga bunday deydi: «Chingiziylarda shunday bir odat bor: bergan va‘dangiz bitta daryoni kechib o‘tgandan keyin kuchini yo‘qotadi. Bobokalonimiz Chingizxon ko‘pincha shu odatga rioya qilar ekanlar».

Amir Temur zinhor jangariligi, shon-shuhratga o‘chligi uchun o‘zga yurtlarga yurish qilmagan. Sulton Boyazid Temur bilan bo‘ladigan jang oldidan o‘zini nihoyatda baland oladi, raqibini nazar-pisand qilmaydi. Jangda Sulton Boyazid mag‘lub bo‘lgach, darhol dabdabadan tushadi, osiy bandaligini namoyon etadi. Amir Temur maqtanchoq raqibini xo‘rlamaydi, izzat-

nafsini poymol etmaydi. Aksincha, Sultonning farzandlariga katta amallarni in'om etadi.

Pirimqul Qodirovning “Amir Temur siymosi” asari ilmiylik va badiiylikni uyg'unligida yaratilgan badiia. Bu ilmiy badiada Amir Temurdek buyuk siymoning kamol topishida zarur omil bo'lgan ma'naviy muhit masalasiga alohida e'tibor berilgani diqqatingizni tortadi: “Uning otasi Tarag'ay Bahodir butun Turonzaminga hokim bo'lgan Qorachorno'yonning avlodlaridan edi. Temurbekning onasi Teginabonu Buxoroyi sharifda shariat ishlari bo'yicha yuksak lavozimlarni egallagan Sadri-Sharia Ubaydulla Mahmudning qizi edi... Parvardigor ulug' farzandlarni ota-onaning ulug' muhabbatidan yaratadi, degan hikmatli gap bor. Tarag'ay Bahodir bilan Teginabonu orasida ulkan bir mehru oqibat bo'lmasa, shaharlik aslzoda qiz uzoq qishloqqa borib yashashi va go'zal tabiat bag'rida Temurbekday bo'lajak dahoni dunyoga keltirishi amrimahol edi. Temurbek bolalikdan ota-ona bag'rida juda yaxshi tarbiya oladi”.¹

Mana shunday benazir muhitda o'sib-o'lg'aygan Temurbek o'n yoshida Keshdagi Abdulla Qutb madrasasiga o'qishga borgan. Mudarrislar uning Qur'on oyatlarini ikki-uch o'qishdayoq yod olishini ko'rib hayron qoladilar. Ana shu yillari bo'lajak Sohibqiron Ozarbayjon shoiri Shabistarining “Sirlar gulshani” kitobini sevib o'qib, uning ko'p joylarini yod olgan ekan. Vaqti kelib jahongirlik martabasiga erishgan bobomiz Ozarbayjonning Shabistar qishlog'idan o'tganda o'sha kitobni yozgan shoir Turbatini so'rab-surishtiradi. Ma'lum bo'lishicha, uning qabri juda qarovsiz holda ekan. Amir Temur farmon berib, go'zal maqbara qurdiradi, vaqf yerlar ajratib, undan keladigan daromad hisobiga ziyoratgohni obod saqlashni buyuradi. Shu qishloqlik olti mingdan ziyod aholining har biriga shoir hurmati uchun besh misqoldan oltin ulashiladi...

Asarda Amir Temur ma'naviy qiyofasini gavdalantiruvchi muhim chizgi-detallardan biri sifatida keltirilgan bu ma'lumotni o'qirkanmiz, bir hayratimizga

¹ П.Қодиров. Амир Темур сиймоси .Т. Ўзбекистон нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2007й 406

o‘n hayrat qo‘shildi va beixtiyor Navoiy hazratlarining ushbu luftlari bejiz emasligiga iqrar bo‘ldik: “Temur Ko‘ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘b mahal va mavqe‘da o‘qibdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qig‘oni ming yaxshi bayt aytqonicha bor”....

Adibimiz Sohibqironning yoshlik va o‘smirlik yillari tasvirida Amir Temurning buyuk jahongirlik rutbasiga erishuvi bejiz emasligiga ahamiyat qaratadi, u kitob mutolaasini sevishini, allomalarni juda hurmat qilishini asoslovchi ko‘pgina tarixiy manbalarga murojaat qiladi. “Temur tuzuklari”dek buyuk asarni Amir Temurga ravo ko‘rmagan xorijlik tarixchilarning (Bartold va Yakubovskiy) bo‘htonlarini puchga chiqaruvchi misollarni tahlildan o‘tkazadi. Aftidan, “Temur tuzuklari”ni Amir Temur yozmagan deyish buyuk Sohibqironning markazlashgan davlat asoschisi, ulug‘ ma‘rifatparvar siymo emas, balki o‘zga mamlakatlarni kuch bilan bo‘ysundirishga ishqiboz shaxs sifatida talqin etish uchungina zarur bo‘lgan ko‘rinadi. Muallif haqiqatdan yuz o‘girib, g‘irrom siyosatni asoslash uchun Sohibqironni savodsiz deb yozgan ayrim sho‘ro olimlari g‘alamisligini ham fosh etadi. Ajdodlarimizga g‘ayriko‘z bilan qaragan bunday tadqiqotchilar “Amir Temur kitoblarni boshqalarga o‘qittirib eshitardi”, deya da’vo qilishgan.

Sohibqiron o‘z yurishlari chog‘ida zarurat yuzasidan islom ulamolari, mulla va qorilar, ilimli, zehni o‘tkir kishilarga ehtiyoj sezgan. Amir Temur solnomasini yozgan barcha tarixchilar uning o‘zi bilan birga Kur‘oni karimni olib yurganini, bu maqaddas kitobni yod bilgan siymo ekanini qayta-qayta e’tirof etadilar...

Pirimqul Qodirovning o‘nlab, yuzlab ilmiy va tarixiy manbalarni, igna bilan quduq qazigandek, sinchiklab o‘rganishi asosida yozilgan mazkur asarni o‘qib, unda iqtibos sifatida keltirilgan aniq dalillarni ko‘zdan kechirib, yana bir bor iqrar bo‘layotirmizki, Sohibqiron ikki asr mobaynida mo‘g‘ul bosqinchilari asoratida azob tortib yotgan Yevroosiyodagi qanchadan-qancha mamlakatlar, xonliklar, knyazliklarni chingiziy Oltin O‘rda asoratidan batamom ozod qilgan va shu ellarning ham xaqiqiy xaloskori bo‘lgan ulug‘ siymo ekan.

Amir Temurning jahon taqdirini hal etgan va tarixning buyuk burilish nuqtalarida amalga oshirilgan hal qiluvchi muhorabalaridan biri 1391 yili

Volganing chap sohilidagi Kandircha daryosi bo'yida, ikkinchisi esa, 1395 yilning 15 aprelida Kavkaz tog'laridan boshlanib Kaspiy dengiziga quyiluvchi Terek daryosi bo'yida yuz bergan edi. Kandirchadagi jangda To'xtamishning yengilib qochishi, adib yozganidek, tutqun ellarni chingiziylar asoratidan qutqarishida yangi sahifa ochgan bo'lsa, Terek bo'yida To'xtamish lashkarlari bilan bo'lgan so'nggi muhoraba va ko'p o'tmay Saroy Berkadan Zanjirsaroy o'chining olinishi, fransuz olimi Lyusyen Keren e'tirof etganidek, Oltin O'rdaning tiz cho'kib hech o'nglanmaydigan darajada tor-mor etilishiga, rus knyazliklarini ozodlikka chiqarib, bo'lajak rus imperiyasiga poydevor qo'yilishiga shart-sharoit yaratdi.

Uzoq yillar mobaynida e'tirof etilmay kelgan bu haqiqat, nihoyat, 2004 yili yosh rus tarixchisi Mixail Arnoldov tomonidan "Nauka i jizn" jurnalida bosilgan maqolada mardona e'tirof etilgani ibratlidir: "Kulikova maydonidagi jangdan keyin... yuz yil davomida Rossiya biror marta ham Oltin O'rda bilan yirik to'qnashuvga borgan emas. Ammo shu vaqt ichida Oltin O'rdaning o'zi tor-mor bo'lib tarix sahnasidan g'oyib bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, bizni kimdir o'zimizning ishtirokimizsiz ozod qilgan ekan-da? Kim u jo'mard? Kim bo'lardi, ayni o'sha zot – ko'p yillar nohaq qoralab kelingan "buyuk va shafqatsiz" Amir Temur bizni ozod qilgan. To'g'rirog'i, Oltin O'rda zulmidan ozod bo'lishimizga olib kelgan"....

Haqiqatan ham, XIV asrning oxirida va XV boshida butun dunyoning yirik qadamlar bilan olg'a ketishida Amir Temurning qahramonona faoliyati hal qiluvchi mavqeni egalladi.

XIV asrda dunyo tushunchasi hozirgiday keng va katta emas edi. U paytda hali har ikki Amerika qit'asi, Avstraliya, Markaziy Afrika, Okeaniya orollari kashf etilmagandi. U zamonning odamlari dunyo deganda Yevropani, Osiyoni va Afrikaning shimolidagi Misr kabi mamlakatlarni nazarda tutar edilar. O'sha davr nuqtai nazaridan qaraganda, Amir Temur Yevropa va Osiyoning eng katta qismini egallab olgan Chingizxon imperiyasining jabru zulmidan, avvalo, o'z vatanini, so'ngra Xuroson, Eron, Ozarboyjon, Rossiya, Ukraina kabi mamlakatlarni xalos qilgani chindan ham uning XV asr taqdirini ijobiy tomonga qarab o'zgartirgan

ulug' siymo bo'lganini ko'rsatadi. Buning ustiga Bolqon va boshqa Yevropa mamlakatlarini Yildirim Boyazid tajovuzlaridan qutqargani uning XV asr taqdirini hal qilgan daho inson bo'lganini yana bir bor isbot etadi.

Pirimqul Qodirov Amir Temur hayoti va faoliyatini, o'sha davr tarixini katta muhabbat bilan o'rgangani hamda uni kitobxonga jonli tarzda, sodda va samimiy tilda havola etgani har jihatdan tahsinga sazovordir. Adibning bu xizmati yana shu jihatdan e'tiborga molikki, bugungi kunda Amir Temur tarixiga doir kitoblar, tarixiy, ilmiy va badiiy asarlar juda ko'p. Bu hol Amir Temurdek buyuk siymo tarixini o'rganishda katta imkoniyat bo'lsa-da, manbalarning hammasini o'qib, bir fikrga kelish oddiy kitobxon uchun juda qiyin kechadi, deb o'ylayman. Ko'p hollarda, bu manbalarning turli davrlarda turli qarash va iqtidordagi mualliflar tomonidan yozilgani uchun ham, o'quvchini bir qadar chalg'itadigan o'rinlar topilib turibdi. Shu bois, manbalarni katta tajriba va ilm salohiyatiga ega bo'lgan, tarixni juda yaxshi o'rgangan adib nigohidan o'tgan holda sayqallanib kitobxonga taqdim etilishi ko'pchilik uchun, nazarimda, juda foydalidir...

II BOB YUZASIDAN XULOSALAR

“Pirimqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlari” mazuidagi II bob bo‘yicha qo‘yidagicha umumiy xulosalarga keldik.

Birinchidan, tadqiqotchi olim Pirimqul Qodirovning badiiy til sohasidagi dastlabki ilmiy kuzatishlari “ Xalq tili va realistik proza”,”Til va dil” nomli asarlarida tahlil etilganligi o‘rganildi.

Ikkinchidan, olim Pirimqul Qodirovning mulohazasiga ko‘ra, badiiy asar tili masalalari ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik fanlari nuqtai-nazaridan tadqiq etilishi tahlil qilindi.

Uchinchidan, olimning badiiylik va ilmiylik bilan uyg‘unlashgan badialarini tadqiq etishga urinildi.

To‘rtinchidan, “Adabiy o‘ylar”,badiasi olimning adabiyotshunoslik olamini yorqinroq ya’ni zakiy munaqqid sifatida qadrini oshirganligi o‘rganildi..

Beshinchidan, “Amir Temur siymosi” badiasidagi Sohibqironning yoshlik va o‘smirlik yillari tasvirida Amir Temurni buyuk jaxongirlik rutbasiga erishuviga qadar faoliyati olimona kuzatilganlig tahlil qilindi.

Oltinchidan, umuman Pirimqul Qodirovning jamiki badialarida ijodkorlik va olimlik iqtidorining sinkretlashuvi kuzatildi.

**III BOB. MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGIDA
PIRIMQUL QODIROVNING FAOLIYATI
III.1. PIRIMQUL QODIROV YANGI DAVR
ADABIYOTINING TADQIQOTCHISI**

Bugunki kun adabiyotimizdagi yangicha izlanishlar, unda jahon adabiyotidagi tamoyillarning paydo bo‘lishi, o‘zlikni tasvirlashning turfa xillari yuzaga kelayotganligi haqida so‘nggi paytlarda vaqtli matbuotimizda, xususan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi sahifalarida adabiyotshunos va ijodkorlar tomonidan turli mulohazalar bildirilmoqda. Bahs xarakteridagi bu mulohazalarning ko‘pchiligida bugungi tafakkurimizdagi izlanishlarni XX asrda paydo bo‘lgan modernizmga bog‘lash, unga modern adabiyotining o‘zbekcha ko‘rinishi tasvirdagi voqelik va hayolot uyg‘unligi deya tariflash yetakchilik qilsa, ba’zilar adabiyotlari realistik tasvir o‘z o‘rnini modern tasvirga bo‘shatib berdi, degan fikrlar bayon qilinmoqda. Aslini olganda, XX asr va XXI asr adabiyotimizda yuzaga kelgan har qanday janriy-uslubiy o‘zgarishlarni modern adabiyotining namunasi deyish unchalik ham to‘g‘ri emas. Bu fikrga e’tiroz bildiruvchilar yo‘q. Modernizm G‘arb adabiyotidagi bir necha adabiy oqimlarning fazilatlarini o‘zida jamlagan tasviruslubini deyishlari aniq. Ba’zi adabiyotshunoslar modernizmining ma’nosini beruvchi “zamonaviy”, “eng yangi” degan atama (ba’zi xollarda atama mohiyatni anglatmasligini ham e’tirof etish kerak)larga e’tibor bermaslikni taklif etadi. Biroq bu atamalarning yangi zamon va yangi voqelik tasvirini beruvchi ifoda usullarining yangicha ekanligini ham unutmaslik kerak.

To‘g‘ri, modern adabiyotning o‘ziga xos tasvir yo‘llari mavjud. Uning uslubiy yo‘nalishida ong oqimi tasviri va qahramon qalb kechinmalarining talqini yetakchilik qiladi. Modern adabiyotining tasvir usullari realizmga zid emas, aksincha u o‘ziga xos an’anaviy realistik tasvirda yuz ko‘rsatadi. Bu tasvirdagi ijtimoiy-psixologik va falsafiy-psixologik talqin ham uning o‘ziga xos xususiyatini

inkor etmaydi. Atoqli yozuvchimiz Sh.Xolmirzayev, taniqli adabiyotshunos Suvon Meli, filologiya nomzodi X.Do‘stmuhammad, iste’dodli yozuvchi Nazar Eshonqul, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov¹larning modern adabiyotining namunalari deb atalayotgan badiiy tafakkurimizdagi bu tamoyillar realistik tasvir ufqlarining yanada kengayib va boyib borayotganligini ko‘rsatuvchi xususiyat ekanligi haqidagi ijodiy va nazariy xulosalari asoslidir xullas, modernizm biz o‘ylaganchilik oddiy narsa, ustoz O.Sharafiddinov aytganidek, “.... hodisa emas” ijoddagi bu uslubning murakkabligi ham XX asr adabiyotshunosligi tomonidan turlicha talqin etilib kelinishiga sabab bo‘lgan edi.

Ijoddagi ana shu yo‘nalish haqida gap ketar ekan, atoqli adibimiz Pirimqul Qodirovning yuqorida eslatilgan maqolasidagi fikrlarni yana bir bor kuzatish foydadan xoli emas. Adib adabiyotshunos olim sifatida ham teran nazariy fikrlari bilan adabiy jarayonda faol qatnashdi. U o‘z maqolasida hozirgi ba’zi iste’dodli yosh yozuvchilarimiz milliy an‘analardan, realistik san’atdan chekinib, G‘arb modernchilariga ko‘r-ko‘rona sajda qilib, yanglish so‘ldan borayotganligini ko‘rsatib o‘tadi. Yoshlarni bu haqda ogohlantirib, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon kabi yirik san’atkorlar o‘z millati, vataniga xizmat qilgan edi. Hozirgi iste’dodli o‘zbek yozuvchilaridan To‘xtamurod Rutamov “Kapalaklar o‘yini” romanida o‘z vatani va millatidan voz kechgan, o‘z xalqini haqoratlab, o‘zining ulug‘ligini pesh qilgan ingliz modern adibi Jeyms Joysga taqlid qilishi yaxshi emasligini tushuntiradi. O‘zbek adabiyoti mustabid tuzumining ta’qibu tazyiqlariga qaramay XX asrda A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Fitratlardan boshlangan va keyingi avlodlarga davom etgan ulkan bir yangilanish va yuksalish jarayonini boshdan

¹ Ш.Холмирзаев “Кечирасиз жаноб Карпенгер, вақтим зикрок”, Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси 2000 й 31 сон,

Сувон Мели “Асл адабиёт – эзгуликка хизмат”, Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси 2000, 34 сон

Х.Дўстмуҳаммад “Уйғониш жозибаси”, Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси 1996, 7 сон

Назар Эшонқул “Самовий завқ лаззати” Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси 2000 й, 7 сон,

Пиримқул Қодиров “Маънавият, модернизм ва абсурд” Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2004, 12сон

kechirdi. Afsuski bu jarayonlar hali adabiyotshunoslarimiz tomonidan yetarlicha tahlil va talqin etilgan emas. Munosib bahosini ham olgani yo‘q. Qisman, shuning uchundir, Istiqloldan oldin yaratilgan asarlarni “davri o‘tgan” deb hisoblaydigan, faqat modern asarlarni yangilik deb tan oladigan adabiyotchilar paydo bo‘ldi.

P.Qodirovning adabiyotshunos Z.Pardayevaning “Romanning taraqqiyot tamoyillari” nomli (“Yoshlik” jurnali, 2003, 5 son) maqolasida O‘tkir Hoshimov va Tog‘ay Murodlarning Istiqlol davrida chop etilgan yangi romanlarini an’anaviy degan siyqa so‘z bilan baholaganini, taniqli adabiyotshunoslar tomonidan bir qator jiddiy kamchiliklari ko‘rsatib o‘tilgan To‘xtamurod Rustamovning “Kapalaklar o‘yini” romani modern uslubda yozilgani uchun adabiyotimizning yutug‘i sifatida baholanishiga bildirgan e’tirozi o‘rinli ekanligini e’tirof etish kerak. Olim yozadi: Butun dunyo hozir tinch evolyutsion taraqqiyotni afzal ko‘radi. Absurd nazariyasining asoschisi hisoblangan Kamyu ham o‘sha mashhur nutqida inqilobiy tanazzullarni, xudolarni yo‘qqa chiqargan mustabid mafkuralarni, ziyolilari tubanlashib, nafrat va zulm malaylariga aylantirilgan o‘tmish davrlarni qoralaydi, adabiyot odamlarni dushmanlikka emas, do‘stlikka da’vat etishi kerakligini ta’kidlab shunday deydi: “O‘zuvchining iste’dodi odamlarni birlashtirishga, ularning orasida totuvlik ko‘prigini qurishga xizmat qiladi. Yozuvchi o‘z kasbining ulug‘vorligini belgilaydigan ikki narsani imkon qadar bajarishga rozi bo‘lishi kerak. Bular haqiqat uchun va ozodlik uchun xizmat qilishdir.” (“Jahon adabiyoti” jurnali, 2002 yil, 2-son, 169-bet.) Qarangki, A.Qodiriy va Cho‘lponlar o‘tgan asrda haqiqat uchun va ozodlik uchun kurashga o‘z jonlarini fido qilgan bo‘lsalar, ular bilan bir asrda yashab ijod qilgan Kamyu ham haqiqat va ozodlik uchun xizmat qilishni yozuvchilik kasbining ulug‘vor vazifasi deb hisoblaydi. O‘ylaymanki, bizning hozirgi davrimizda ham nigilizmga berilmasdan, ma’nosiz absurd oqimlariga tushib oqmasdan, A.Kamyu kabi inson zotini absurd azoblaridan xalos qiladigan ma’nosi zo‘r asarlar yozish va shu yo‘l bilan ham odamlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish yozuvchilik kasbining eng ulug‘vor vazifasi bo‘lib qoladi.

Tirik jonzotlar orasida faqat inson kitob o'qiydi. Kitobdan ma'naviy oziq olib yashash ehtiyoji — inson zotini hayvonot dunyosidan ajratib turadigan ulkan chegaradir. Shu chegara buzilsa va inson ma'naviyatdan butunlay mahrum bo'lsa, yana orqaga — hayvoniy hirslar olamiga qaytib ketadi.

Mamlakatimizda ma'naviyatga juda katta e'tibor berilayapti. Ma'naviyat markazlari barcha xududlarda ishlab turganligi, hamma ta'lim muassasalarida ma'naviyat darslari o'tilayotgani xalqimizning ma'naviy sog'lom hayot kechirishiga yordam beradi, yoshlarimizni chetdan keladigan hayosizlik, ma'nosizlik va shafqatsizliklardan ogoh qiladi, ularni insoniy mehru oqibat ruhida tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.

Ayniqsa, xalq dardiga darmon bo'ladigan va inson kamolotiga xizmat qiladigan milliy adabiyotimizda eng samarali ijodiy izlanishlar ma'naviy izlanishlar jarayoniga qo'shilib boradi. Shaxsan menga biron yangi narsa yozish nasib etsa, bu yo'lda kitobxonning ma'rifiy va ma'naviy ehtiyojini ozgina bo'lsa ham qondirish, unga mushkul tuyulgan muammoni tahlil va talqin etishda ko'maklashish uchun o'zimni burchli sezaman. Ushbu badia ham ana shu burchni baholi qudrat bajarishga qaratilgan.»¹

O'z paytida “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida bu roman haqida jiddiy gaplar aytilgan edi. Jumladan, taniqli adabiyotshunos, professor Sanjar Sodiq romanda ongi shakllanmagan yoshlarni yo'ldan ozdiradigan va hayotdan bezdiradigan illatlar fosh etilganini, muallifning iste'dodida hajviy yo'nalish kuchli bo'lib, Jeyms Joysning ong oqimiga Marsel Prustning ekpressiv uslubiga taqlid qilish bilan cheklanilganligini to'g'ri ko'rsatgan edi.

Adib va adabiyotshunos P.Qodirov o'z maqolasida mashhur modernist yozuvchi Jeyms Joysning ijodi va shaxsiyatidagi xudbinlik va takabburliklar, uning o'z vatani va millatidan voz kechgani ijodiga ham salbiy ta'sir qilgani haqida tajribali va iste'dodli ijodkor sifatida xolis fikrlarni bildiradi. Jumladan, u Amerika

¹ Пиримкул Қодиров “Маънавият, модернизм ва абсурд” Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2004, 12сон

adibi J.Ferol va rus olimi D.Urnovlarning adolatli fikrlariga tayanib bunday yozadi: “Butun odamzotni (insoniyatni) jinoyatchilar to‘dasi deb ayblash va dunyoni sassiq go‘ng uyumi deb haqorat qilish insoniy ahloq odob qoidalarini qo‘pol ravishda buzish edi. Buning oqibatida J.Joys atrofida katta janjal ko‘tariladi. “Uilss” romani Angliya, Fransiya va AQShda ta‘qiqlanadi. Mashhur fantast yozuvchi Gerbert Uelss Joysga yozgan maktubida shunday deydi. “Siz oddiy odamlardan yuz o‘girdingiz va o‘zingizni juda katta olayapsiz. Menimcha, bu boshi berk ko‘chadir”.

Yuqoridagi firklardan xulosa shuki adabiyotshunos Pirimqul Qodirov ilmiy maqolalarida adabiyotimizda ko‘tarilayotgan munozarali mavzularga haqiqat va adolat tarozusi nuqtai-nazaridan fikr yuritadi.

P.Qodirov olim sifatida adabiyotshunoslikning muhim muomalalaridan biri bo‘lgan nutq haqida alohida kuzatishlar olib borgan, ilmiy maqolalar, monografiyalar yaratgan. O‘zi shu muammolar yuzasidan fikr bildirgan olimning yozuvchi sifatida yaratgan asarlari sifatidagi badiiy nutqdan foydalanish mahorati boshqa yozuvchilardan qay jihati bilan farqlanadi, kabi savollar bizni shu mavzuni tanlashga undadi.

Ijod psixologiyasi tabiatini bilish, tashqi manba – asarni ilm mezonlaridan o‘tkazish, ijodiy tajribani o‘rganish va ommalashtirish qalamkashga o‘ziga xos qiyofa bag‘ishlovchi mahoratni anglashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Pirimqul Qodirov adib sifatida shakllanish jarayonini shunday so‘zlaydi: “Yozuvchining ustoz bitta bo‘lmaydi. Milliy til imkoniyatlaridan unumli foydalanish yo‘llarini o‘rganishda: milliy ruh, ijobiy qahramon yaratish bobida, suxan arbobi bo‘lib unib-o‘shimizda birinchi ustoz deb xalq ijodini bilamiz. Ikkinchi ustoz – o‘zimizning milliy adabiyotimiz. Uchinchi ustoz – jahon adabiyoti xazinasini bo‘ladi. Biz ilk saboqni jannat makon onamizning jajji boshimizni qaynoq bag‘rlariga bosib aytgan uyquni nari qochiruvchi ertaklaridan olganmiz”.

Ijodkor uslub doirasida aniqlanadi. Tilshunoslar tili bilan aytganda to‘g‘ri so‘zlash va yozish san‘ati, yuksak iste‘dod va oliy mahorat bo‘lgan uslub har bir adibning kasbiy o‘ziga xolsik tomonini yaratuvchi ko‘rsatkichlar tizimidir.

Pirimqul Qodirov asarlarining tili adabiy til imkoniyati balandligini ko'rsatuvchi namuna manbai.

Yozuvchida asar hayotini yaratuvda ham so'zlasho'v tili, ham fan tili, ham adabiy-badiiy til birday ishlaydi. Fan tilining peshqadamliligi uslubga ijobiy ta'sir qilish bilan adabiy til rivojiga ham barakali ulush qo'shgan. Shuning uchun Pirimqul Qodirov asarlari ilmiy nuqtai nazardan jiddiydir.

Pirimqul Qodirovni ham olimlik ham yozuvchilik salohiyati shunda ko'rinadiki u fan tilida foydalanishda asar ichki muhitidan kelib chiqib, saralash va o'z-o'zini chegaralash, fikrni ta'kidlash, xulosa chiqarishdek usullarni qo'llaydi. Bunda yozuvchi fan tili bilan badiiy tilni ijodiy faoliyatda ayri, ayri emas, bir butunlikda ishlatishni olg'a suradi. Shuni izoh etish joizki, adib bu ikki tilni bir butunlik tarzida ishlatarkan, voqea ijtimoiy hayotning tarmog'ida kechayotganini diqqat markazida tutib, qo'yilgan maqsad tomon intiladi.

Pirimqul Qodirovning ijodkor sifatida o'ziga xosligini ko'rsatuvchi uslub belgilaridan biri ijodining xalq tiliga, xalqqa yaqin tilga qurilishi va yozilishi bilan farqlanadi. Adib asar hayotini yaratishda "Tildagi kitobiylikni, sun'iylikni xalqqa begonalik" deb biladi va undan qochadi.

Asarlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki Pirimqul Qodirov uchun tilning madaniy-ma'naviy xazinasini tashqi manba hayotiga milliy ruh bahishlab, uni milliy qadriyatlar doirasida jonlantiradi, barhayotlik ado etadi.

Badiiylik bag'ishlashda lirikadan foydalanish Pirimqul Qodirovga xos uslub jihatidir. Bu haqda adibning o'zi: Badiiy adabiyotning muhim xususiyatlarini belgilovchi omillardan birir uning tilidir. Shuning uchun ham badiiy ijodni so'z san'ati deyish odatiy taomilga aylangan.

Asar tilining badiiylik komponentlari orasidagi vazifasi, jonli, adabiy va badiiy tillar asosida tuzilishi, xususiyatlari va vositalari uning o'ziga xosligini ta'min etadi.

Yuqoridagi fikrlarimizni adib va olim Pirimqul Qodirovning qo'yidagi fikrlari bilan xulosalasak.

“Ona O‘zbekistonimiz iqtisodiy taraqqiyot borasida ham, ma’naviyat va ma’rifat sohasida ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritib, bu katta salohiyatni izchillik bilan mustahkamlab borayotganiga guvohmiz. Yonilg‘i-energetika manbalari va o‘zimizni g‘alla bilan ta’minlash kabi g‘oyat muhim strategik masalalarda mustaqillikka erishganimiz, temir yo‘l va avtomobil yo‘llarini rivojlantirish bo‘yicha Buyuk Ipak yo‘lining qadimgi mavqeini tiklab, jahonga o‘z yo‘llarimiz bilan chiqayotganimiz kimning havasini keltirmaydi, deysiz!

Mamlakatimizning iqtisodiy qudrati qay darajada o‘sganligini poytaxtimiz va viloyatlarimizda o‘tgan o‘n sakkiz yil mobaynida bunyod etilgan va hamon kun sayin keng quloch yoyib borayotgan yangi qurilishlar, shahar va qishloqlarimiz obodonchiligi sohasidagi misli ko‘rilmagan o‘sish-o‘zgarishlar ham yaqqol namoyon etib turibdi.

Mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib borishiga monand holda ma’naviy-ma’rifiy jabhada erishgan yutuqlarimiz ham har birimizni quvontiradi. Eng avvalo, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk ajdodlarimiz — sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi jahon tan olgan sarkardalarimiz, Mirzo Ulug‘bek, Ahmad Farg‘oniy kabi ulug‘ allomalarimiz, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Moturudiy, Imom Termiziy, Al-Hakim at-Termiziy kabi tasavvuf allomalarining ma’naviy merosidan xalqimizni bahramand etib, ularning tavallud sanalarini katta tantanalar bilan nishonladik. SHo‘rolar davrida unutilib, g‘ubor qoplagan ma’naviy qadriyatlarimiz tiklanib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bemisl hissa qo‘shgan qadimiy shaharlarimizning ko‘p asrlik tarixiy sanalari YUNESKO hamkorligida keng nishonlanmoqda.

Ayniqsa, Yurtboshimizning adabiyotimiz va adabiyot ahliga g‘amxo‘rligi bizni g‘oyat mamnun etadi. Negaki, yaxshilik va ezgulik tabiatan adabiyotning mohiyatida mavjud bo‘lsa-da, adabiyot yaxshilikdan yashnaydi. Yurtboshimizning yaqinda milliy adabiyotimizni rivojlantirish va adabiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifalar yuzasidan aytgan fikr-mulohazalari istiqlol yillarida Prezidentimiz tomonidan adabiyotimiz ravnaqi yo‘lida ko‘rsatib kelinayotgan g‘amxo‘rlikning izchil davomi bo‘ldi. “Adabiyotga e’tibor — ma’naviyatga,

kelajakka e'tibor" deb nomlangan ana shu fikr-mulohazalarda bildirilgan va ilgari surilgan muhim g'oyalar, o'ylaymanki, barcha ijodkorlarimiz qalbidan chuqur joy oldi. Yurtboshimizning iste'dod va uning tarbiyasi borasida aytgan mana bu gaplari yanada ibratlidir: "Mening fikrimcha, yozuvchilik — bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddur. Bu — qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir".

Mamlakatimiz Yo'lboshchisining bu fikrlarida yozuvchilik iste'dodi, yozuvchining mehnati va qobiliyatiga muhim ehtiyoj sifatida qaralib, iste'dodning jamiyat hayotidagi o'rni nihoyatda teran ifoda etilgan. "Yozuvchilik — qismat, peshonaga bitilgan taqdir", degan so'zlarning nihoyatda topib aytilganiga mening oltmish yillik ijodiy izlanishlarim ham bir misol bo'la oladi. Xalqimizda "Oqqan daryo yana oqadi", degan dono naql bor.

Shu ma'noda yozuvchilarga ijodiy sharoit yaratishning zarurligi alohida ta'kidlanib, buning eng to'g'ri yo'llari ko'rsatib berilgani ham ayni ko'ngildagi muddao bo'ldi. Bu adabiyotimiz kelajagi uchun katta g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir. Yozuvchilarga qilingan yaxshiliklar ularga qanot bag'ishlaydi. Bu qanotlar adabiyotni yangi yuksakliklarga olib chiqadi. Shu jarayonning izchilligini ta'minlash kelgusida ulug' yozuvchilar yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Kelajakda xalqimiz orasidan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek kabi buyuk adiblar yetishib chiqishiga ishonamiz. Prezidentimizning adabiyotimiz ravnaqi yo'lida ko'rsatayotgan ulkan e'tibori bu ishonchimizga asos bo'ladi."¹

¹ Пиримкул Кодиров: "Адабиёт яхшилиқдан яшнайти" Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси 2008йил 28 ноябр

III.2. OLIMNING “TIL VA EL” ILMIY BADIASIDA MUMTOZ ADABIY TIL MUAMMOLARI

Pirimqul Qodirov yozuvchi bo'lmaganida, yetuk adabiyotshunos olim bo'lardi. U yigirma yil O'zbekistan Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim (1963—1983) bo'ldi. «O'ylar» (1971), «Qalb ko'zlari» (2001) to'plamlarini, «Til va el» (2005) ilmiy badiasini yozdi. 2-jildli «Adabiyot nazariya»sining I jildiga P. Qodirovning «Adabiy asarning tili» (1979), II jildiga «Adabiy-tarixiy jarayon haqida», «Ijod jarayoni» (1979) tadqiqotlari kiritildi. Olim ilmiy faoliyati asosini badiiy asar tili muammosi belgilaydi.

So'z hamisha, hamma adabiyotlarda qurol bo'lgan. Badiiylik — so'z sehrini ko'z-ko'z qilish, uning sir-sinoatlarini yoritib berish. Asil poetika badiiy asar tilini talqin etishdan boshlanadi. Badiiy asar tilini o'rganish — struktura, semantika, semiotika singari sohalarga kirib bo-rish. Bu muammolar sir-sinoatini hamma yozuvchi bilmaydi. Yozuvchi bir so'z ustida o'lib-tiriladi, so'zdagi ma'nolarni yuzaga chiqarish uchun kuyib yonadi. Tilni ardokdagan, uni e'zozlab ishlov bergan adiblar doim hurmatda bo'lganlar. Insonga to'rt unsur-tuproq, suv, havo, o'tdan keyin so'z (til) zarurdir. P. Qodirov Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburni ulurlar ekan, ularning so'zdan zargarona foydalana olgan-liklarini asos qilib oladi. Tadqiqotchi Fransua Rableni fransuz, Aligyeri Danteni italyan, Aleksandr Pushkini rus tilini ulug'lagani uchun hurmat qiladi. Hamisha mashhur san'atkorlarning so'z boyligiga, undan foydalana bi-lish mahoratiga e'tiborini qaratadi. Tilshunoslik, badiiy asar tili muammolari bilan shurullanish insonni sinch-kovlikka, zarraga ham e'tibor berishga o'rgatadi.

Pirimqul Qodirov asarlarining pishiq-puxtaligi sabablaridan biri shundaki, yozuvchi asardagi ohang, urg'u, nuqta, detalga ham shoirday alohida qunt bilan yondashadi

Aytish joizki, o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar tilining obrazli tasvirga ega bo'lishi, mumtoz adiblarimiz asarlari tilining shakllanishida xalq tilining xizmati haqida bir qator tadqiqotlar mavjud. Biroq, nafsilambarlik va

e'tirof nuqtai-nazaridan aytganda adabiyotshunoslik (umumfilologik ham) ilmidagi bu sohaga oid fundamental tadqiqotlar mashhur adibimiz va taniqli olim Pirimqul Qodirov qalamiga mansubdir.

Ilm ahlining barchasiga ma'lumki, hurmatli adibimiz o'tgan asrning 70-yillarida ana shu muammoga bag'ishlangan monografik yo'nalishdagi "Til va dil", "Xalq tili va realistik proza" nomli kitoblarini e'lon qilgan edi. Hanuzgacha ijodkoru ilm ahli orasida qo'lma-qo'l bo'lib o'qilayotgan bu asarlar o'zining ilmiy va amaliy kuzatishlarga boyligi bilan kitob javonimizni bezab turibdi. "Xalq tili va realistik proza" kitobi sahifalarining birida muallif "har bir xalq o'z tilini mustaqil adabiy til shaklida rivojlantirishda alohida bir ehtiyoj sezadi" degan g'oyani olg'a surgan edi.

Milliy til taraqqiyoti yo'lidagi ana shunday fidoiylik adibning yaqinda nashr etilgan "Til va el"¹ nomli ilmiy badiasida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Muallif ushbu kitobda jamlangan ilmiy badialarida ilmiy va badiiy tafakkuri uyg'unligidagi tahlil va talqini orqali keng kitobxonlar ommasini mumtoz adabiyotimizning til boyliklari, Temuriylar davridagi adabiy tilimiz muammolari va ular Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi buyuk siymolar tomonidan qanday hal etilganligi hamda bu tarixiy shaxslarning o'zbek adabiy tilining yuksak rivoji va mumtozlik darajasiga ko'tarilish borasidagi xizmatlari bilan tanitishni maqsad etgan. Kitobni o'qir ekansiz har bir sahifa sizni ohangrabodek o'ziga tortadi, "tarix daryosining to'lqinlari bir-biriga zanjir xalqlarida bog'lanib harakatlanadi", va siz shu harakatlar ichidan har bir davrga xos bo'lgan adabiy tilning nozik tovlanishlarini his qilasiz, ilg'aysiz.

Tadqiqotda adabiy tilimizning ildizlari Turon zaminning miloddan oldingi turkiy tilida yozilgan Alp Er To'ng'a haqidagi dostonga borib taqalishi ishonarli dalillarga ko'rsatilgan.

Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Beruniy, Ibn Sinolar, Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Xorazmiy, Qutb, Durbek, Sayfi Saroyi, Nosuriddin Rabg'uziy,

¹ Пиримкул Қодиров "Тил ва эл" Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодиёти уйи, 2005(Бундан кейинги кўчирмалар ҳам шу нашрдан бўлиб саҳифаси қавс ичида кўрсатилади.)

Yusuf Amiriy, Atoyi, Lutfiy asarlari adabiy tilimizning oltin ko‘priklari ekanligi jo‘shqin va go‘zal she‘riy shakllar misolida tahlil qilingan.

Kitobning “Amir Temur ma’naviyati tilimiz ko‘zgusida” nomli bobida adabiy tilimiz muammolari “Temur tuzuklari” asari misolida o‘rganiladi va Alisher Navoiy asos solgan adabiy tilimizning yuksak rivoji, Temuriylar davri bilan bog‘liqligi qiziqarli, tarixiy, real voqealar bilan sharhlab beriladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy asarlarini tasavvuf bilan bog‘liq bo‘lgan botiniy ma’nolarini o‘rganish borasida ancha ishlar qilingan. Pirmqul Qodirov esa o‘z kitobida shoir g‘azallarining badiiy tilida Ahmad Yassaviy an‘analarini davom ettirganligini misollarda ko‘rsatadi.

Ahmad Yassaviy she‘rining xulosasi shuki, Haq diydoriga yetish yo‘lda inson tortgan barcha xorlik, zorlik, mashaqqatlar uni chiniqtirib, kamolga yetkazadi. Xuddi shunday tasavvufiy xulosa Alisher Navoiy g‘azalining so‘nggi bayotida kelishi ta’sirchan she‘riy shaklda ifoda etiladi.

Ma’lumki, har bir tilning o‘ziga xos afzalligi, kashfiyoti, so‘z boyliklari mavjudki, bu mavjudlik milliy xalqining hayot tarziga bog‘liqdir. “Alisher Navoiyning badiiy til bobidagi eng ulug‘ kashfiyotlaridan biri shuki, u o‘z asarlarida turkiy tillarga xos singarmonizmni arab-fors tillaridan kirgan so‘zlarning uzun-qisqa tovushlar garmoniyasi bilan uyg‘unlashtirishning ajobiy yo‘llarini topgan” (126-bet).

Olim o‘z fikrini tasdiqlash maqsadida “Qora ko‘zim” g‘azalini keltiradi. Adabiy tilda “Qora ko‘zim” deyiladi. Aruz vazni uzun va qisqalikka asoslangan, “Qora ko‘zim” deganda har ikki unli yovushlar qisqa aytiladi. Navoiy bu g‘azal uchun tanlagan “mafoiylun” rukni har ikki so‘zning ikkinchi bo‘g‘inlari uzun “o”, “u” shaklida jaranglashni talab qiladi. Shuning uchun “qora” o‘rniga “qaro” va “ko‘zim” o‘rniga “ko‘zum” so‘zlari tanlanadi. Navoiy bu bilan turkiy til qoidasini buzmaydi, balki “qora”ni “qaro”, “ko‘zim”ni “ko‘zum” deb qabul qilgan shevalardan so‘z oladi (Qarang: 127-bet).

Demak, Alisher Navoiy uch tilni mukammal bilganligi va bu uch tilning go‘zalliklaridan, boyliklaridan unumli foydalanganligi u yaratgan asarlarining umrboqiyligidan darak beradi.

Tadqiqotning “Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko‘targan siymo” bobida adabiy tilimizda asrlar davomida to‘plangan til boyliklari va qoidalarini Alisher Navoiy ijodida umumlashib sintez xoliga kelganligi va Navoiy davrida tilimiz mumtoz adabiy til talablariga to‘liq javob beradigan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilganligi asosli tarzda sharhlanadi.

“Bobur Mirzo ijodida mumtoz tilimiz kamoli” bobida Bobur asarlarining tili sodda, jonli so‘zlashuv tiliga yaqinligi hamda “Boburnoma” til va uslub jihatidan “Temur tuzuklari”ga hamohangligi haqida batafsil hikoya qilinadi.

Tadqiqotda Bobur Mirzo so‘z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib, shoir sifatida keng o‘rganiladi. Ayniqsa, uning ruboiy va g‘azallarida birorta ortiqcha so‘z, harflar yo‘qligi, tovushlar she’riy vazn, turoq, qofiyalarga mahorat bilan joylashtirilganligi asosli tahlillarda ko‘rsatiladi.

Kitob mutoolasining so‘ngida muallifning fidoiyligi Hazrat Alisher Navoiyning “Tilga ixtiyorsiz – elga ixtiyorsiz” degan hikmatli so‘zlarini bot-bot esga tushiradi. Darhaqiqat, muallif to‘g‘ri ta’kidlaganidek, tilga ixtiyor elga mehrdan boshlanadi. Har bir tilning qudrati shu tilni yaratgan xalqning o‘zi bilan, eli bilan yashagandagina u rivojlanishda bo‘ladi. Bu xulosaning hayotiy tasdig‘ini bugungi mustaqillik yillaridagi turmush tarzimiz ham isbotlab turibdi. Chunki, Davlat tili maqomini olgan ona tilimizning bugungi kunda rivojlanishi uchun imkoniyatlar katta. Yangi avlodga o‘z ona tilining go‘zalligi va boyligini tushuntirish hamda ular ongiga singdirishda bu kabi tadqiqotlarning ahamiyati cheksizdir.

Ulug‘ adiblarning ijodi serqirra bo‘ladi. Bunga jahon adabiyotidan ko‘plab misollar keltirish mumkin. O‘zbek adabiyoti ham bundan mustasno emas. Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Oybek ijodining serqirraligi badiiy adabiyot bilan bir qatorda adabiyotshunoslikda ham namoyon bo‘ladi. Mana shu mo‘tabar an’ana hozirgi adabiyotimizda atoqli yozuvchimiz Pirimqul Qodirov timsolida

davom etib kelayotgani quvonarli hodisadir. Adibning “Uch ildiz”, “Qora ko‘zlar”, “Olmos kamar”, “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” singari romanlari o‘zbek adabiyotini yangi bosqichlarga ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Abdulla Qahhor haqidagi maqolalari, dissertatsiyasi badiiy mahorat xususidagi qator ishlari, adabiy tanqid tarixiga doir ilmiy tadqiqot adibning adabiyotshunoslik sohasida ham jiddiy izlanishlar olib borganini ko‘rsatadi.

Pirimqul Qodirov ilmiy faoliyatining yana bir yo‘nalishi til muammolariga qaratilganligidir. Shunisi e‘tiborliki, adib badiiy til muammolari bilan shunchaki, yo‘l-yo‘lakay emas, balki maxsus va izchil ravishda uzoq yillardan buyon shug‘ullanadi.

Ana shunday izlanishlar hosilasi sifatida ijodkorning “Til va el” kitobi maydonga keldi. Olimning avvalgi – “Xalq tili va realistik proza” nomli tadqiqotida rang-barang, boy va go‘zal xalq tilining o‘zbek realistik nasri qaror topishida, xususan, XX asr avvalidagi uning realistik tamoyillari qaror topishidagi ahamiyati ko‘rsatilgan bo‘lsa, mazkur “Til va el” nomli asarda esa, endi til muomalasining boshqa bir yo‘nalishi – mumtoz adabiy tilimizning uzoq asrlik shakllanish jarayonlari tadqiq etiladi.

“Til va el”ni muallifning o‘zi “ilmiy badia” deb atar ekan, bu atama o‘zini to‘la oqlaydi. Zero, kitob muallifi o‘zbek mumtoz adabiy-badiiy til muammolari, ularning uzoq asrlik tarixiy yo‘li haqida fikr yuritadi, o‘z oldiga qo‘ygan masalalarning nozik qirralarini tahlil qilar ekan, tadqiq metodi va metodikasi sof tilshunoslik doirasida qolib ketmaydi. U “Bilge hoqon va Kultegin” dostonlaridan tortib, hamda “Alp Er To‘ng‘a jangnomasi”gacha, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otut turk”dan tortib, Yassaviy hikmatlarigacha, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Qutb Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turki”sidan Amir Temur davrigacha bo‘lgan noyob asarlarni o‘zbek mumtoz adabiy-badiiy tili qaror topishi nuqtai nazaridan o‘rganar ekan, tahayyul arg‘umog‘ining nozik jilovini erkin qo‘yadi.

Ilmiy kuzatuvlar, izlanishlar. xulosalar, mushohadalar asosida yaratilgan asar adibning go‘zal adabiy tili vositasida bamisoli badiiy asardek yengil va huzurbaxsh o‘qiladi.

“Til va el”ning markazida mumtoz o‘zbek adabiy tilining shakllanish muammolarini tadqiq etish tursa-da, muallif o‘zini butkul shu masala bilangina chegaralab qo‘ymagan. U, umuman, tariximiz, xususan, adabiyotimiz, ma’naviyatimiz tarixiga bot-bot murojaat etadi, ko‘pchilikka, u qadar ma’lum bo‘lmagan, biroq buyuk ajdodlarimiz taqdiri va tariximizda muhim o‘rin tutgan ayrim hodisalarga e’tiborimizni tortadi, ular bilan bog‘liq ba’zi bahsli nuqtalariga o‘zining mustaqil munosabatini bildiradi va shu tariqa ayrim muammolarga oydinlik kiritadi.

Bularning barchasi yana qaytib, oxir-oqibat, o‘zbek mumtoz adabiy tilimizning shakllanishi, qaror topish jarayonlari haqidagi mulohazalar va xulosalar bilan tutashib ketgan holda, ilmiy-badialarga ajib bir kompozitsion yaxlitlik va uyg‘unlik baxsh etadi.

Yozuvchi kezi kelganda, V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy kabi jahonga mashhur olimlar bilan bahslashadi, ularning “ma’lum darajada mustamlakachilik siyosati bilan hisoblashib, Amir Temur “savodsiz bo‘lgan” degan qat’iy fikr”lariga qarshi chiqadi, “Temur tuzuklari”ning muallifi o‘zga kishi emas, buyuk Sohibqironning o‘zi ekanligini qator tarixiy va lisoniy dalillar asosida isbotlaydi. A.N.Samoylovich, E.N.Najin, A.K.Borovkov kabi olimlarning mumtoz o‘zbek adabiy tili haqida ayrim xulosalarini rad etadi.

Pirimqul Qodirov ko‘z oldimizda nainki, millatparvar, balki haqgo‘y va xolis olim sifatida ham gavdalanadi.

Turli olimlar tomonidan o‘zbek tili tarixining ayrim bosqichlaridagi buyuk badiiy asarlar tili “tahlilidan” kelib chiqib ishlatilgan “Chig‘atoy tili”, “Oltin O‘rda adabiy tili”, “Oltin O‘rda – Misr tili” singari atamalarning barchasi izchil ilmiylikdan xoli bo‘lib, ularning zahirida qandaydir siyosiy maqsadlar, yoki mashhur adabiy yodgorliklarning bevosita o‘zbek tiliga mansub ekanligini xaspo‘shlash yotadi, deyilgan.

Pirimqul Qodirovning ayrim ulkan tilshunos olimlar qarashiga tutash bo'lgan nuqtai nazariga qo'shilmaslik mumkin emas.

Yozuvchi o'z qarashlarini shunchaki e'tirof etmaydi. U o'z fikrlarini aniq dalillar, misollar asosida isbotlaydi, ular sizni ishontiradi. Shu tariqa, Pirimqul Qodirov yuqoridagi sun'iy atamalar o'rniga "O'zbek mumtoz adabiy tili" ibora-atamasini ishlatishni taklif etishi, bu masalaga o'zgacha nuqtai nazarda bo'lgan olimlarga xayrixohligini bildirishi, bugungi tilshunosligimizdan tashqari, adabiyotshunoslikka ham ta'sir etadi, deb umid qilamiz. "Chig'atoy tili", "Chig'atoy adabiyoti" singari atamalar o'rnini, har bir bosqichdagi o'ziga xos, xususiyatlari e'tirof etilgani holda, "O'zbek mumtoz adabiy tili", "O'zbek mumtoz adabiyoti" ibora-atamalar bilan nomlanishi tarafdorimiz.

Yozuvchini Bobur va uning davri haqidagi ajoyib romanlari muallifi sifatida yaxshi bilar edik. Mazkur kitobda Navoiyning o'zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko'targan dahosini ko'rsatuvchi qator nozik kuzatishlar bilan bir qatorda, Boburning bu masalada ulug' ustozi an'alarini davom ettirishdagi xizmatlari alohida mehr bilan yoritiladi.

Kitobda Bobur shaxsi, farzandlariga munosabati, shoh va shoirning "Boburnoma" bilan aloqadorlikdagi tabiatiga doir qator nozik kuzatishlarga ham duch kelamizki, ular bu daho qoshidagi tasavvur va taassurotimizni yanada boyitadi. "Til va el"da boshdan-oxirigacha tilimiz, adabiyot, madaniyat, ma'naviyatimiz tarixi haqida fikr yuritilar ekan, adib imkon qadar, umumiy mulohaza yuritishdan qochadi, aniq fikr yuritishga intiladi.

Mushohadalarini til, adabiyot, madaniyat, ma'naviyatimiz tarixini yaratgan muayyan asarlar va ularning mualliflaridagi yorqin xislatlarni ko'rsatish bilan mustahkamlaydi. Natijada, ko'z oldimizda Alp Er To'nga – Afrosiyob, Bilge hoqon, Kultegin dan tortib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Xumoyungacha bo'lgan siymolarning o'ziga xos tarzidagi ixcham ilmiy-badiiy obrazlari gavdalanadi. Aytish mumkinki, tarixiy adolat tuyg'ulari "Til va el" kitobining avvalidan-oxirigacha izchil amal qilinuvchi yetakchi ijodiy prinsipdir.

Til millatni, xalqni, Vatanni birlashtirib, jipslashtirib, ulug‘ maqsadlar yo‘lida elni yanada hayrihox va hamnafas qiladi. Pirimqul Qodirovning “Til va el” kitobi bu borada barchamiz uchun muhim manba bo‘lib qadri baland asarlarimiz qatoridan o‘rin olishiga ishonamiz.

Adabiyot muxlislariga yaxshi ma’lumki, yaqinda atoqli adibimiz O‘zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirovning 80-yilligi adabiy jamoatchilik kitobxonlar tomonidan keng nishonlandi. Shu munosabat bilan sevimli adibimiz P.Qodirovni muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov tabrikladi.

Yozuvchining tavallud ayyomi butun adabiyot ahlining katta bayramiga aylanib ketdi. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti shu sanaga bag‘ishlab «Mehrga yo‘g‘rilgan ijod» (P.Qodirov ijodi adiblar va munaqqidlarlar talqinida) deb nomlangan kitobni nashrdan chiqardi. Mazkur kitob O‘zbekiston qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning «shoirona qalb egasi» sarlavhali so‘z boshisi bilan ochildi.

P.Qodirov siymosida, menimcha, uchta muhim jihat mukammal ravishda mujassam bo‘lgan. Bular: yuksak yozuvchilik iqtidori, terak olimlik salohiyati va nihoyat, eng muhimi insoniy fazilatlaridir – deb yozadi sevimli adibimiz haqida A.Oripov. U kishining nim jilmayishida, o‘ychan ko‘zlarida shoirona hayol teran o‘y jilvalanib turadi.

O‘tgan asrning 60-yillarida hali Cho‘lpon nomi tilga olinishi mumkin bo‘lmagan kezlarda O.Yoqubov, O.Sharafiddinov, P. Qodirov va ular orasida men ham tevarak-atrofdan hadiksirab Ohangaron qirlariga chiqib ketardik. Fusunkor tabiat qo‘ynida biroz olim olib, dala – dashtlarda Cho‘lpon she‘rlarini o‘qir edik. O‘sha davrimizda Pirimqul aka Cho‘lpon she‘rlarini alohida ehtirom va hayajon bilan yodaki aytib hammamizni lol qoldirardi. Shul boisdan bo‘lsa kerak, P.Qodirov asarlarida poetik ruh nihoyatda kuchli?!

Taniqli adabiyotshunos olimdan O.Sharafiddinovnnig «Ulg‘ayish», Matyoqub Qo‘shjonovnnig «Bahslarda yo‘g‘rilgan ijod», Umarali Normatovnnig «Tarix xaqiqatiga sadoqat» hamda boshqa adib-u munaqqidlarning kitoblaridan joy

olgan ko‘plab tadqiqotlari, e’tirof va dil so‘zlarida ham adib ijodinnig muhim jihatlari haqida so‘z yuritilgan.

M.Qo‘shjonov tadqiqotida¹ P.Qodirov, A.Qodiriy va Oybek ijodiy maktabinnig munosib davomchisi sifatida e’tirof etilgan.

«Mehrga yo‘g‘rilgan ijod» kitobida O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning «Dovon oshgan adib», Akmal Saidovnnig «Amir Temur mavzusi ummonday cheksiz» kabi maqola va dil so‘zlari keltirilgan.

Kitobdan P.Qodirovnnig «Tarjimai hol lavhalari», «Hayotdan nimani izladim-u, nima topdim», «Zulfiya opaning mehriyosi», «Asarlarimni mehr bilan yozaman» singari qayd va suhbatlari, shuningdek, P.Qodirov hayoti va ijodinnig asosiy sanalariga doir bibliografik ko‘rsatkichlar ham o‘rin olgan. Taniqli adibimiz O‘tkir Hoshimov ushbu kitobidagi dil izhorida yozganidek, «Atoqli adib, teran bilimli olim jamoat arbobi P.Qodirov adabiyot ravnaqida salmoqli hissa qo‘shgan yozuvchidir. Uning asarlari ham, o‘zi ham bir-biridan baland dovonlardan o‘tib va bundan keyin ham o‘taveradi».²

¹ Qo‘shjonov M. Mehrga yo‘g‘rilgan ijod Saylanma. 2 tomlik, 1-tom.T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982 y., - 23 bet.

² Qo‘shjonov M. Mehrga yo‘g‘rilgan ijod Saylanma. 2 tomlik, 1-tom.T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982 y., - 25 bet.

III BOB YUZASIDAN XULOSALAR

“Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida Pirimqul Qodirovning ilmiy faoliyati” mavzuidagi III bob bo‘yicha quyidagicha xulosalarga keldik.

Birinchidan, Pirimqul Qodirov olim sifatida mustaqillik davrida o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos tarzda shakllanib kelgan modern adabiyotining tasvir yullari haqida bildirgan mulohazalarini tahlil qilishga urinildi.

Ikkinchidan, olimning mazkur davr adabiyotshunoslari tomonidan qayd etilgan ya’ni mustaqillik davrida yaratilgan romanlarni an’anaviy degan siyqa so‘z bilan baholangan fikrlariga qarshi bildirgan ilmiy mulohazalari urganlib tadqiq qilindi.

Uchinchidan, olim mustaqillik davrida yozilgan maqolalarida yosh yozuvchilarni realistik san’atdan chekinib, G‘arb modernchilariga ko‘r-ko‘rona sajda qilishlari tahlil qilinib, o‘rganildi .

To‘rtinchidan, olimning “Til va el” ilmiy badiasidagi mumtoz adabiy til masalalari tahlil qilindi.

UMUMIY XULOSALAR

Biz mazkur dissertatsiyaning har bir bob va fasllarini alohida xulosaladik. Va ana shu tuxtlardan kelib, chiqib qo'yidagicha umumiy xulosalarga keldik. Ham olim, ham yozuvchi bo'lish hamma ham nasib bo'lavermaydi. Ana shunday yuksak darajadagi unvonga Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan Abdurauf Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda sazovor bo'lgan. Zotan, shoir va yozuvchi bo'lish, ayniqsa, olim va ijodkor bo'lish adabiyotning inson ruhiyatiga, uning his – hajoniga ta'sir etuvchi anor suvidek obi hayotni qahramonlar qoniga singdirib, uni keng hayot dengiziga olib kirish demakdir.

Birinchidan, olmos iste'dod sohibi Pirimqul Qodirovning mu'jizasi ana shunday xislatlarga ega bo'lib, u kitobxonning ruhiyatiga, kechinmalariga ko'nikib ketadi. Sababi shundaki, kitobxon Pirimqul Qodirov qahramonlari davrasidan chetga chiqa olmaydi. U o'zini ba'zan Andijonda, Bog'i Eram ichida, ba'zan Shayboniixon qo'shinlarning hujumi tufayli Samarqand qal'asida, ba'zan poyida chorig' qilgan holda Xo'jand cho'llari orqali Pomirning muz tog'larida yoki Afg'onistonning taxti ichida yoki Hindistonning Dehli hamda Agra shaharlarida, Andijon hokimlari, suvvoriylar, tabiblar, shoirlar, olimu fuzolalar ichida sezadi. Biz ana shu sezishlikni taxlil qilishga urindik.

Ikkinchidan, Pirimqul Qodirov ijodining bunchalik keng qamrovli bo'lishi aslida Temur avlodining buyuk sarkardasi, iste'dod egasi, qomusiy olim, buyuk shoir, tarixchi, etnograf olim, eng muhimi, jahon madaniyatiga o'z ijodi bilan bebaho xazina qo'sha olgan Mirzo Boburning mu'jizaviy hayoti mohirona lavhalarda gavdalantirilishi bilan bog'liqligini o'rganishga harakat qildik.

Pirimqul Qodirovning ijodda bunchalik yuksak cho'qqilarni egallashining sababi uning adabiyotimizning daholari A.Navoiy, Nizomiddin Ganjaviy, Firdavsiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Bobur ummon dengizida suzish va undan qo'liga siqqancha javohir olib chiqib, uni qaytadan Bobur avlodiga, xalqiga, zamondoshi, yoshlarga in'om etish bo'ldi. Biz ana shu merosni qisman tahlil qilishga urindik.

Uchinchidan, bundan tashqari, Pirimqul Qodirov ham olimona ham ilmiy tafakkur bilan Gʻarb va Yevropa adabiyotini metod va anʼanalarini ijodiy uzlashtirganligini oʻrgandik.

Toʻrtinchidan, olim Pirimqul Qodirovning Sohibqiron Amir Temur siymosi haqidagi toʻlaqonli va haqqoniy tasavvur beradigan, ishonchli va nufuzla manbalarga asoslanib yozilgan, badiiy tafakkur va ilmiy mushohada adib mahorati tufayli uygʻunlashib ketganligini tahlil qildik.

Pirimqul Qodirovning adabiy-nazariy qarashlarini uning mohirlik bilan yozilgan “Adabiy uylar”, “Amir Temur siymosi” kabi badialari orqali tahlil qilishga harakat qilindi..

Beshinchidan ,olimning badiiy til muammolari tadqiq etilgan “Xalq tili va realistik proza”, “Til va dil” kabi badialari ham tahlilga tortildi..

Oltinchidan, olimning Mustaqillik davri oʻzbek adabiyotshunosligidagi tadqiqotlari ,ayniqsa uning “Til va el” ilmiy badiyasidagi mumtoz adabiy til masalalari baholi qudrat tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 225-modda). Toshkent sh., 1997-yil, 29-avgust, 464-I-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Idoraviy me'yoriy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish boshqarmasi. 2012-yil, 18-dekabr.

II.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari:

1. Karimov I. Istiqlol va ma'naviyat. T. «O'zbekiston» 1994.
2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000. – B. 14.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. – Toshkent, "O'zbekiston", 2001.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008

III. Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Aristotel. Poetika. Ob iskusstve poezii. – M.: GIXL, 1957. - 184 s.
2. Aliyev B. Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi (70-80-yillar): Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 1994. - 20 b.
3. Adabiyotimizning yarim asri. 1-kitob. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Badiiy adabiyot, 1967. - 552 b.
4. Adabiyotimizning yarim asri. 2-kitob. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Badiiy adabiyot, 1975. - 552 b.

IV Asosiy adabiyotlar

1. Abdullayev M. Abdulla Qutb madrasasi tolibi: Pirimqul Qodirovning “Amir Temur asarini o‘qib...” // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.- 2007.-16 fev.
2. Asqad Muxtor. Yosh do‘stlarimga.-T.: Yosh gvardiya, 1980.-160 b.
3. Atoqli adib Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” nomli kitobi haqida //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-2001.-23 noyab.
4. Badiiy asarlarda Bobur siymosini yaratish mahorati: [Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romani asosida] //Til va adabiyot ta’limi.-2007.-№1.-B.52-54.
5. Boboyeva N. Erk va burch bahsi: [Pirimqul Qodirovning “Erk” nomli qissasi haqida] //Guliston.-1971.-№10.-B.28-29.
6. Jo‘raboyev A. Yashashning ma’nosi: oshkora suhbat [O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov bilan suhbat] //Sharq yulduzi.-1990.-№12.-B.157-163.
7. Imomova G., To‘rayev D. “So‘zimni o‘qib, sog‘ingaysan o‘zimni...”: [Badii. Pirimqul Qodirovning “Til va el” nomli badiasi haqida] //Mohiyat.-2006.-6 yanv.
8. Kattabekov A. Yulduzli tunlar tasviri: [Pirimqul Qodirovning Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatini aks ettirgan “Yulduzli tunlar” romani haqida] //Toshkentoqshomi.-1979.-11 yanv.
9. Matyoqubov A. Tarix va uning badiiy talqini: [Yozuvchi P. Qodirovning “Tungi yulduzlar” tarixiy romani haqida] //Toshkent haqiqati.-1978.-22 sent.
10. Mahmudov M. Ko‘ngilda bori: [Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” romani haqida] //Guliston.-1967.-№7.-B.27-30.
11. Mahmudov T. Erk va sevgi. [“Erk” qissasi haqida] //Sharq yulduzi.-1971.-№4.-B.224-227.
12. Ma’naviy madad: [1990 yilgi Hamza nomidagi O‘zSSR Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan asarlari haqida] //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-1990.-21 dek.
13. Mirzayev S., SHermuhamedov S. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti tarixi: oliy o‘quv yurtlari uchun.-T.: O‘zbekiston, 1993.-422 b.

14. Mirqosimova M. Epik tasvir va hayotni badiiy idrok etish: [P. Qodirovning “Olmos kamar”, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanlari haqida] //Sharq yulduzi.-1985.-№9.-B.163-167.
15. Mukofot muborak: [Hamza mukofotining laureati Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar” romani SSSR Yozuvchilar Soyuzining 1983 yilgi mukofotiga sazovor bo‘lganligi haqida] //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-1984.-23 mart.
16. Nazarov B. Til qadri: kitob javoningizga //Sharq yulduzi.-2006.-№1.-B.138-140.
17. Nazarov B. Til qadri: [Yozuvchi P. Qodirovning “Til va el” kitobi haqida] //Sharq yulduzi.-2006.-№1.-B.138-140.
18. Nasriddinov F. “Qora ko‘zlar”: [P. Qodirovning “Qora ko‘zlar” romaniga tanqid va taqriz] //Toshkent haqiqati.-1967.-13 may.
19. Norboyev B. “O‘ylar”ni o‘qib...//Yosh leninchi.-1972.-8 dek.
20. Normatov U. Tarix haqiqatiga sadoqat: [P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” romanlari xususida] //Guliston.-1996.-№2.-B.27-30.
21. Normatov U. Tarixning teran tahlili: [Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani haqida] //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-1981.-14 avg.
22. Normatov U. Erk bahsi: [Pirimqul Qodirovning “Erk” qissasi haqida] //O‘zbekiston madaniyati.-1970.-11 sent.
23. Normatov U. Yoshlik: maqolalar.-T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982.-364 b.
24. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar.-T.: Ma’naviyat, 2000.-112 b.
25. Oqilova N. Avlodlar adovatlaridan ustun: [Yozuvchi P. Qodirovning “Avlodlar dovoni” tarxiiy romanidagi voqea va taqdirlar haqida mushohada] //Milliy tiklanish.-2002.- 30 iyul.
26. Panjiyev X. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima: Mutolaa: [O‘zbekiston xalq yozuvchisi P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani haqida] //Qishloq hayoti.-2002.-30 avg.
27. Rasulov A. Til – millat taqdiri, tabiati, tarixi: [Pirimqul Qodirovning “Til va el” kitobi haqida] //Jahon adabiyoti.-2005.-№1.-B.146-150.

28. Rustamova I. Dramatik asarlarda muallif konsepsiyasi: [Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” romanidagi hamda Sh.Boshbekovning qator dramalaridagi voqealarga muallifning ta’siri haqida] //O‘zbek tili va adabiyoti.-1999.-№2.-B.46-48.
29. Saidova Sh. Tarixga nazar tashlaganda...: [Yozuvchi P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani haqida] //Ilmiy ishlar to‘plami.-Toshkent Davlat un-ti.-1979.-№609-B.105-111.
30. Safarov M. Ulug‘ ona qissasi: [Atoqli adib Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” tarxiy romani haqida] //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-2004.-19 noyab.
31. Tarixga nazar tashlaganda...: [Yozuvchi P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani haqida] Ilmiy ishlar to‘plami Toshkent Davlat un-ti-1979-№609.-B.105-111.
32. To‘xtamishev I. Buyuk ibrat namunasi: [P. Qodirovning “Amir Temur siymosi” deb nomlangan asari haqida] //Jamiyat.-2007.-2 noyab.
33. Fayziyev B. Hayot ildizlari: [P. Qodirovning “Uch ildiz” romani haqida] //O‘zbekiston madaniyati.-1959.-4 apr.
34. Fayziyev B. Hayot qadri: [P.Qodironing “Qadrim” povesti haqida] //Sharq yulduzi.-1962.-№12.-B.138-140.
35. Xolmurodov A. Sukunat qo‘ng‘irog‘i: [Yozuvchi P. Qodirovning “Avlodlar dovoni” romani haqida ayrim kuzatishlar] //O‘zbekiston san’ati va adabiyoti.-1991.-14 iyun.
36. Xo‘shboqov J. Yangi dovon: [Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar” romani haqida] //O‘zbekiston madaniyati.-1977.-5 avg.
37. SHermuhamedov P. Pirimqul Qodirov: adabiy portret T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.-120 b.
38. Shomansur Yusuf. Adib o‘ylari: [Yozuvchi P. Qodirovning “O‘ylar” nomli kitobi haqida] //Guliston.-1972.-№9.-B.18-19.
39. Shomansur Yusuf. Hayotiy obrazlar: [Pirimqul Qodirovning “Qora ko‘zlar” romani haqida] //Mehnat va turmush.-1972.-№8.-B.24.

40. Shomansurov Y., Karimov H. Mehnat madhiyasi: Taqriz: [P. Qodirovning “Meros” nomli asari haqida] //Toshkent haqiqati.-1975.-9 okt.
41. Shomansurov Y., Karimov H. Mehnat madhiyasi: [P. Qodirovning “Meros”, “Erk” va “Qadrim” nomli qissalari haqida] //Jizzax haqiqati.-1976.-27 yanv.
42. Erk va burch bahsi: [Pirimqul Qodirovning “Erk” nomli qissasi haqida] //Guliston.-1971.-№10.-B. 28-29.
43. Eshbekov T. Sohibqiron siymosi: [P. Qodirovning “Amir Temur siymosi” kitobi haqida] //Fidokor.-2008.-22yanv.
44. “Yurakdagi quyosh”: [P. Qodirov shu nomli romani haqida] //Toshkent haqiqati.-1964.-15 mart.
45. Yashashning ma’nosi: unutilmas uchrashuvlar [“Sharq yulduzi” jurnali muxlislarining savollariga yozuvchi Pirimqul Qodirov javob beradilar] //Sharq yulduzi.-2005.-№1.-B.37-43.
46. Qodirov I. Badiiy asarlarda Bobur siymosini yaratish mahorati //Til va adabiyot ta’limi.-2007.-№1.-B.52-54.
47. Qodirov P. Dunyoni lol qoldirgan siymo // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-2007.- 14sent.
48. Quljonov A. Studentlar hayotidan yangi asar: [Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani haqida] //Sharq yulduzi.-1959.-№10.-B.149-155.
49. Quljonov A. Qalb qo‘shig‘i: [P. Qodirovning “Qadrim” povesti haqida] //Yosh leninchi.-1964.-30 yanv.
50. Qo‘shjonov M. Tarix saboqlari haqida roman: [P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” nomli asari haqida] //O‘zbekiston madaniyati.-1978.-12 dek.
51. G‘afurov I. Adibning o‘ylari: [Pirimqul Qodirovning “O‘ylar” kitobi haqida] //O‘zbekiston madaniyati.-1972.-5 may.
52. G‘afurov I. Meros qolgan yaxshilik: [Yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Meros” qissasi haqida] //O‘zbekiston madaniyati.-1975.-8 apr.
53. G‘afurov I. Erkning ma’suliyati: [Pirimqul Qodirovning “Erk” nomli qissasi haqida] //Toshkent oqshomi.-1970.-6 okt.
54. Qodirov P. Tanlangan asarlar, 3 tomlik, 1-tom. T., Sharq. 2008y. – 400 bet

55. Qodirov P. Til va el Ilmiy badia-Toshkent; Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi,2005.-248b.
56. Pirimqul Qodirov: “Adabiyot yaxshilikdan yashnaydi” Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi 2008yil 28 noyabr
57. SH.Xolmirzayev “Kechirasiz janob Karpenter, vaqtim ziqroq”, Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi 2000 y 31 son,
58. Suvon Meli “Asl adabiyot – ezgulikka xizmat”, Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi , 2000, 34 son
59. X.Doʻstmuhammad “Uygʻonish jozibasi”, Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi 1996, 7 son
60. Nazar Eshonqul “Samoviy zavq lazzati” Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi 2000 y, 7 son,
61. Pirimqul Qodirov “Maʼnaviyat, modernizm va absurd” Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati gazetasi, 2004, 12
62. X.Umurov. Adabiyot nazariyasi Toshkent Sharq matbaa -nashriyoti 2005 y
63. T.Boboyev Adabiyotshunoslik asoslari Toshkent. Oʻqituvchi nashriyoti 2002yil
64. A. Rasulov Yangi zamon- yangi qahramon.-T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot 1976yil
65. P.Qodirov. Saylanma. Uch jildlik.-T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot,1987-1988
66. P. Qodirov . Avlodlar dovoni, T .: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot, 1989 y
67. P.Qodirov. Ona lochin vidosi. T.: Sharq 2001
68. Mirzayev S. XX asr oʻzbek adabiyoti, T., Yangi asr avlodi, 2005y, - 419 bet.
69. Normatov U. Yetuklik T., Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1982 y, 368 bet.
70. SHermammedov P. P.Qodirov (Adabiy portret). T., Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983 y.
71. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. T., Oʻqituvchi, 1979 y, - 367 bet.

72. Qo'shjonov M. Baxslarda ulg'aygan ijod. Saylanma. 2 tomlik, 1-tom.T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982 y., - 231 bet.
73. P.Qodirov. Amir Temur siymosi .T. O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007y
74. www.literature.uz.
75. www.ziyonet.uz.